



ISSN:2181-3558
«SCIENCE AND RESEARCH»

JOURNAL

OF INTEGRATED EDUCATION
AND RESEARCH

INTEGRATSIYALASHGAN
TA'LIM VA TADQIQOT JURNALI

ЖУРНАЛ ИНТЕГРИРОВАННОГО
ОБРАЗОВАНИЯ И ИССЛЕДОВАНИЙ

**THE JOURNAL OF
INTEGRATED
EDUCATION AND
RESEARCH**

ISSN 2181-3558

VOLUME 2, ISSUE 1

COLLECTION A

JANUARY 2023



Tahririyat a'zolari

Berdialiev A. f.f.d., prof.
Nurullaeva Sh.U. ped.f.d., prof.
Tursunov K.Sh. ped.f.d., prof.
Babadjanova D. tarix.f.d., prof.
Ernazarova G.O. ped.f.d., prof.
Abduraximova D.A. ped.f.d., prof.
Мадымапов Т.Т. yur.f.d., prof.
Мурзаева С.Р. fil.f.d., prof.
Yuldashev M.M. fil.f.d., prof.
Xolliyev A.E. bio.f.d., prof.
Mahmudov N.M. fil.f.d., prof.
Salayeva M.S. ped.f.d., prof.
Salaeva M.S. psi.f.n., dotsent
Tojiboyeva M.A. fil.f.d., dotsent
Sabirova N.E. fil.f.d., dotsent
Norboyeva U.T. bio.f.d., dotsent
Yarmatov R.B. ped.f.d., dotsent
Egamberdiyeva N.A. tarix.f.d., dotsent

Achilov N.K. fil.f.d., dotsent
Imomova G.M. fil.f.n., dotsent
Zakirova H.R. f.f.n., dotsent
Tuhtahujaev H.B. ped.f.f.d., dotsent, TFA Akademik
Bakiyev Z.A. ped.f.n., dotsent
Razzakov H.K. tex.f.n., f.f.d., dotsent
Ortikov O.A. tex.f.f.d., dotsent
Djuraeva M.Y. f.f.f.d.
Nabikhodjaev A.A. iqt.f.n., dotsent
Otadjanova M.O. f.f.d.
Tajibaeva M.A. fil.f.d., dotsent
Hasanov A.M. fil.f.f.d.
Kholmurodov A.E. fiz.m.f.d., dotsent
Aripov O.A. iqt.f.d., dotsent
Safarova U.A. fil.f.d., dotsent
Dexqonova M.Sh. f.f.d.
Hasanov A.M. fil.f.d.
Soatov A.J. ped.f.f.d.

Mas'ul kotib: M.Yusupov

TEACHING ACADEMIC TERMS BY VARIOUS METHODS IN ENGLISH LANGUAGE

Otamurodova S.A.

An English teacher of the department “Languages” of Tashkent State Agrarian University

Abstract. English teachers from Agriculture field could implement the use of academic terms based on the variety or diversity of agriculture terms, being aware that terms learning strategies must be purposefully taught, to improve the existing situation, and contribute to their professional profiles. One of the most crucial issue is that teachers need to be aware of different learning approaches such as kinesthetic, visual, auditory and reading/writing learners in order to use different methodologies and approaches so that all students can benefit.

Key words: academic terms, specific, agricultural sector, presentation, discussions, demonstration, class experiments, problem solving, digital learning.

Аннотация. Қишлоқ хўжалиги соҳасидаги инглиз тили ўқитувчилари атамаларни ўргатиш стратегиялари мақсадли равишда ўргатиш. Мавжуд вазиятни яхшилаш ва ўзларининг касбий профилларига хисса қўшиш кераклигини англаган холда. Қишлоқ хўжалиги атамаларининг хилма-хиллиги ёки хилма-хиллигига асосланган академик атамалардан фойдаланишлари мумкин.

Энг муҳим масалалардан бири шундаки, ўқитувчилар кинеситик, визуал, эшитиш ва ўқиш, ёзиш каби турли хил таълим усулларида хабардор булишлари керак, бунда барча талабалар фойда олишлари учун турли методология ва ёндашувлардан фойдаланиш керак.

Калит сўзлар: академик атамалар, ўзига хос, қишлоқ хўжалиги сектори, тақдимот, муҳокамалар, намойиш, синф тажрибалари, муаммоларни хал қилиш, рақамли ўрганиш.

Аннотация. Преподаватели английского языка в области сельского хозяйства могут использовать академические термины на основе разнообразия сельскохозяйственных терминов, осознавая, что стратегии изучения терминов должны преподаваться целенаправленно, чтобы улучшить существующую ситуацию и внести свой вклад в их профессиональные профили. Одна из наиболее важных проблем заключается в том, что учителя должны знать о различных подходах к обучению, таких как кинестетические, визуальные, аудиальные и чтение/письмо, чтобы использовать разные методологии и подходы, чтобы все учащиеся могли получить пользу.

Ключевые слова: академические термины, специфика, аграрный сектор, презентация, обсуждение, демонстрация, классные эксперименты, решение задач, цифровое обучение.

Teaching students English language terminology in agricultural field is a fundamental and crucial component for ESP students. It is very challenging for the ESP teachers to perform both the task of English teachers and have good knowledge of all the students' subjects. This article is aimed to extend a general

academic terms to the students of agricultural field on the basis of English materials. It is concentrated on presenting the most useful vocabulary for specific purposes, namely agriculture. Academic terms has to be coincide for all the needs of the students A good knowledge of the English academic terms in the field of Agriculture will improve all the skills of the students: speaking skills (speaking with fluency, good pronunciation, good conversation with specific agriculture terms), as well as reading ones and comprehension (understanding the main ideas of the text, presenting reports in/from the field, skimming and scanning activities).. English teachers from Agriculture field could implement the use of academic terms based on the variety or diversity of agriculture terms, being aware that terms learning strategies must be purposefully taught, to improve the existing situation, and contribute to their professional profiles.

Choosing the suitable methodology to teach ESP courses is another challenge that the teachers face in order to achieve a successful ESP course. Another crucial issue is that teachers need to be aware of different learning approaches such as kinesthetic, visual, auditory and reading/writing learners in order to use different methodologies and approaches so that all students can benefit. As Hutchison and Water highlighted that the starting point of teaching a language is to understand how people learn (Hutchison & Water, 1987). The teacher's role in ESP courses is to be the facilitator of the learning process.

Teach students how to look up words and apply dictionaries, or use the internet to search for more information, emphasize that terms have restricted meaning across disciplines. Teach them to consult with an expert of the field, to clarify the exact meaning of the terms. There are words which students come across frequently, if students know these words, they will have possibilities to learn low-frequency words. Some techniques that can be used in ESP course: visual technique: - some words are difficult to explain, showing them pictures or real objects can help them understand the terms; definitions and explanation: – giving the definition of the words in both languages; matching- matching words with sentences or pictures; giving the synonym or antonym of the words for example- ground- field or landscape; grains- particles (synonym) or integration-separation (antonym); guessing from the context: it means to understand it from the context by activating background knowledge. Teachers should guide students to success of being fluent and confident in all the areas of using ESP. Some suggestions that can be applied in class to help in memorizing and learning new terminology: organizing discussions related to the field of their study, by dividing the students based on their skills level and giving them freedom to contribute by giving suggestions regarding the topics. encourage students to work and research independently rather than memorizing language rules choose materials which suit the students' needs help students how to fit into target situation by organizing role-plays in class; prepare students to be able to present in front of an audience make a presentation on aspects of agriculture and environment and it increases the likelihood to introduce and acquire new vocabulary enlarge their knowledge through reading extensively. And these academic terminologies should be attained

by student by a number of successful teaching methods by professors and assistants.

The research findings established that the lecture method, class discussions, class projects, problem solving, and tours and field trips were the common methods in agriculture classes. Though recommended in the literature review section, digital learning was hardly mentioned as a teaching approach for this study.

Terminology in the field of agriculture is directly related to the ongoing socio-economic processes in society. In today's world, the media is facing huge changes in the agricultural sector in the context of various climate changes, socio-political events, complex economic processes.

The most successful teaching process should lead to the result in having a student creativity and critical attitude. This process should encourage students' ability to adapt to the given situation, mutual communication with other course mates as well as desire for independent research and solving the anticipated problems. The goal of teaching terms methods in the field of agricultural science (because of its specificity) is that students memorize new course material, which is often necessary to be deepened by the additional curriculum content, and to apply theoretical knowledge in practice. According to Klafki (1971), teaching methods are used to enable the successful teaching and successful learning for students. Teaching and learning are always directed towards contents oriented to the target - the knowledge or cognition, abilities or skills, behaviors or attitudes.

Agricultural teaching approaches have been operationally defined in this study to refer to the processes or methods of attending to agriculture students' needs, experiences, and feelings both theoretically and practically and making appropriate interventions to help them develop relevant skills for food security. The mostly applied methods of teaching in agricultural field are; the lecture method, class discussions, demonstration, class experiments, problem solving, and tours and field trips. However, with the emergence of technological advancement, digital learning has also risen especially in higher education.

High school agricultural knowledge broadens the students' capacity and makes them more effective, self-reliant, resourceful, and capable of solving farming problems even at their youthful stage.

Class projects on gardens give students an opportunity to participate in hands-on learning that teaches not only the intended subject terms but also responsibility, teamwork, and respect for nature as well as promote healthier eating habits and a practical opportunity for students to reconnect with nature and the ecology that surrounds them.

Applied education subjects such as agriculture, home science, business studies, computer studies, art and craft, and music are the centerpiece of the practical aspects of the high school. In the current trends of agricultural education, various teaching approaches have been approved in the syllabus to be used in the teaching of agriculture terms in high schools. These include the lecture method,

class discussions, demonstration, class experiments, problem solving, tours and field trips, and the current digital learning.

Lectures usually take place in a classroom and referred to as talk and chalk or textbook method. This method is teacher centered with little participation from learners. Students are passive in this teaching process and knowledge transmitted by the teachers in the learning process.

Discussions teaching method in agriculture allows the teacher to stimulate critical thinking on the learners. This approach helps the teacher establish a rapport with the students, demonstrating an appreciation of their contributions and challenging them to think more deeply and to articulate their ideas more clearly. Through class room discussions, a set of acquired skills that is necessary for establishing and developing interpersonal relationships such as communication skills, cooperation, emotional intelligence, and critical thinking is developed. Discussion can be improved through incorporation of digital technology. The usual purpose of outdoor training through tours and field trips is to develop teamwork skills. Field trips to agricultural centers, industries, farmlands, etc., where students get firsthand experience and practice of the theoretical methods of agriculture, can prove to be very helpful. However, assignments, write-ups, and projects must be given to students to aid them to participate effectively in the field trips.

In the context of this study, agriculture students can benefit from such experiences by employing the team spirit in study-based and community projects such as nursery practices and poultry projects from where they can sell the produce to both the school and the community making them food secure.

Through the demonstration method, the teacher does whatever the learners are expected to do at the end of the lesson by showing them how to do it and explaining the step-by-step process to them. The demonstration may include diagrams, charts, e-learning, and other illustrative materials accompanied by an oral explanation. The audience observes the process, listens to the explanation, and poses questions during or at the conclusion of the demonstration. The demonstration method increases students' interest and understanding and consequently promotes high achievement rate. Demonstration procedures in agriculture may include machine milking, how to preserve fish, how to graft a mango tree, or how to install drip irrigation in a home garden. In the context of the current study, incorporation of demonstration improves both recall and psychomotor skills when the students are allowed to repeat the same procedures either individually or in groups.

The project method is a teacher-facilitated collaborative approach in which students acquire and apply knowledge and skills to define and solve realistic problems using a process of extended inquiry. Class projects are therefore student-centered, following standards, parameters, and milestones clearly identified by the teacher. The project teaching method is based on the conviction that learning by doing, discussing in groups, and revisiting ideas and experiences are superior ways of gaining a better understanding of one's environment. According to existing literature, practical work through class projects makes learning more enjoyable and their purposes in agricultural education have expanded beyond skill acquisition and

proficiency to include personal development for diverse career preparation beyond agriculture. The current study advocates class projects as an important part of an agricultural education that provides application of concepts taught in class. Students can hence transfer the acquired skills to their homes.

According to, multimedia projects allow students to explore subject matter using film, audio, and even software they create. Technology provides the possibility of including multimedia and interactive resources that can make adult learning more attractive and realistic, encouraging and even inspiring adults to develop their skills. Videos, radio, mobile phones, and television are among the information communication technology (ICT) tools that are gaining popularity in enhancing agricultural terms for students to access agricultural-related knowledge and information. When incorporated into the classroom setting, the social learning nature of the ICT devices can fast-track skills development in agriculture and be the bait to making youths be more interested in agriculture. The utilization of mobile technologies in game-based learning improves the effectiveness of the educational process and augments students' knowledge; hence, an effective educational game design must achieve a balance between fun and educational value. Additionally, the use of computers, tablets, digital cameras, video conferencing technology, and Global Positioning Systems(GPS) devices can all enhance a student's learning experience. The intuitive nature of the mobile technology, their affordability compared to other ICT devices, mobility, usability, and accessibility among the youth are factors that can ease their integration in agriculture.

Reference

1. Research Journal of Agricultural Science, 52 (2), 2020 187
2. Buskist, W. And Saville, B. K., 2001. Rapport-building: creating positive emotional contexts for enhancing teaching and learning. Association for Psychological Science. Vol.14, no.3.
3. Carter, R. & Mccarthy, M., 1988, Vocabulary and Language Teaching. London and New York: Longman
4. Chittenden, M., Rogers, L. and Smith, D., 2003. Focus: 'Targetitis ails NHS. Times Online, [online] 1 June.
5. Basturkmen.H., "Ideas and Option in English for Specific Purposes" Lawrence Erlbaum Associates, Publisher, London 2006
6. Dudley-Evans.T (1997) An overview of ESP in the 1990's "The Japan Conference on English for Specific Purposes Proceeding" (Aizuwakamatsu City, Fukushima, Novemeber 8, 1997)
7. Dudley-Evans.T & St.John.M.(1998), "Developments in English for Specific Purposes" A multi-disciplinary approach Cambridge University Press
8. Coxhead.A., (2013) "Vocabulary and ESP" in Paltridge,B., &Stafield,S., "The Handbook for Specific Purposes" A John Wiley & Sons, Ltd., Publication

ЭЛЕКТРОН ТАЪЛИМ МУҲИТИДА ИНТЕРАКТИВ ТАЪЛИМ РЕСУРСЛАРИНИ ЯРАТИШ МЕТОДИКАСИНИ БОШҚАРИШ МОДЕЛЛАРИ

Зарипов Олимжан Кувандиқ ўғли

Ажсиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институтини н.ф.ф.д. (PhD)

olimjon4300@gmail.com

Abstract. The article discusses the content and functions of management models for the methodology of creating interactive educational resources in the e-learning environment, the levels of creation of electronic information educational resources, types of electronic educational resources, electronic educational resources, the use of interactive learning and interactive educational tools, electronic resources for the transfer of educational materials, the development of a system of electronic resources for e-learning.

Key words: Electronic resources, interactive educational resources, interactive learning, interactive educational tools, electronic graphic works, virtual stands

Аннотация. В статье рассматриваются содержание и функции моделей управления методологией создания интерактивных образовательных ресурсов в среде электронного обучения, уровни создания электронных информационных образовательных ресурсов, виды электронных образовательных ресурсов, электронные образовательные ресурсы, использование интерактивного обучения и интерактивных образовательных инструментов, электронные ресурсы передачи учебных материалов, разработка системы электронных ресурсов электронного обучения.

Ключевые слова: Электронные ресурсы, интерактивные образовательные ресурсы, интерактивное обучение, интерактивные образовательные инструменты, электронные графические работы, виртуальные стенды

Аннотация. Ушбу мақолада, Электрон таълим муҳитида интерактив таълим ресурслар яратиш методикасини бошқариш моделлари мазмуни ва функциялари, электрон ахборот таълим ресурсларини яратиш даражалари, электрон таълим ресурсларининг турлари, электрон ўқув-тарбиявий ресурслар, интерактив ўқитиш ва интерактив таълим воситаларидан фойдаланиш ҳамда ўқув материалларини узатишнинг электрон ресурслари, ўқитишни ташкил этиш электрон ресурслари тизимини ривожлантириш бўйича тавсиялар ишлаб чиқилди ва амалиётга тадбиқ қилинди.

Калит сўзлари: Электрон ресурслар, интерактив таълим ресурслар, интерактив ўқитиш, интерактив таълим воситалари, электрон график ишлар, Виртуал стендлар

Кириш. Замонавий жамиятда рўй бераётган узлуксиз таълимни электронлаштириш жараёни турли электрон таълим ресурслари сонининг ўсиши билан бирга олиб борилмоқда. Уларни олий таълим соҳасида қўллашнинг оммалашиб бораётганлиги электрон таълим ресурсларининг сифатини ўқув жараёнида фойдаланишга яроқлилиги нуқтаи назаридан

баҳолашни зарур қилиб қўяди. Электрон таълим ресурсларининг тузилиши ва услубий мазмунига бўлган талаблар бугунги кунда ҳам етарли даражада тартибга солинмаган, бу эса бир томондан ишлаб чиқувчилар (курс муаллифлари) учун маълум даражада эркинлик беради ва бошқа томондан, электрон таълим ресурсларининг тарқалишини ва уларни таълим жараёнида амалга оширишни секинлаштиради, чунки стандартлаштириш етарли эмас, шунингдек ЭТР ва ЭЎУП контентининг эксперт баҳосини мураккаблаштиради. Электрон таълим ресурсларидан фойдаланиш ва яратиш бўйича ҳозирги вақтда аниқ бир электрон таълим ресурси учун қўлланиладиган ягона стандарт мавжуд эмас.

Асосий қисм. Электрон таълим муҳотида интерактив таълим ресурслардан фойдаланиш ва таълим-тарбия жараёнларини илмий асосда ташкил этиш ва самарадорлигини оширишда талабаларнинг фаоллигини таъминлаш, паст даражадаги ўзлаштирадиган талабалар билан юқори ўзлаштирадиган талабаларнинг ҳамкорликдаги ўқув жараёнини ташкил этиш, уларда креатив ва тизимли фикрлаш, мустақил қарор қабул қилиш, интеллектуал қобилиятларини намоён этувчи вазифалардан ҳисобланади.

Электрон таълим муҳотида талабаларда интерактив таълим ресурслардан фойдаланиш кўникмасини ривожлантиришни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш механизмларини лойиҳалаштириш, шунингдек, электрон таълим ресурси орқали билим олиш кўникмасини ривожлантириш жараёнларининг ўзаро боғлиқлиги ва алоқадорлигини таъминлаш, унинг заруриятини ҳам назарий, ҳам амалий жиҳатдан илмий асосларини яратиш методикасини бошқариш моделларини куйидаги масалаларни ҳал этилиши зарур: талабаларда электрон таълим муҳотида интерактив таълим ресурслардан фойдаланиш кўникмасини ривожлантириш субъектлари (талаба ва ўқитувчилар)нинг шахсий хислатлари ва ижодий қобилиятларини ривожлантириш даражаси ва илмий-методик таъминот ўртасидаги номувофиқлик; танқидий фикрлаш, ахборотни мустақил излаш, таҳлил қилиш ва қайта ишлаш кўникмалари шакллантирилмаган; компьютер графикаси фанидан мустақил таълим олиш кўникмасини ривожлантиришни бошқаришнинг функция ва методлари ҳамда уларни амалга оширишга замонавий ёндашувларни илмий асосланмаганлиги; мураккаб педагогик тизим сифатида компьютер графикаси фанидан интерактив таълим ресурслардан фойдаланиш кўникмасини ривожлантириш компонентларининг ўзаро алоқадорлиги ва узвий боғлиқлигини таъминловчи инновацион ёндашувларни амалиётда қўллаш технологияларини ишлаб чиқилмаганлиги; компьютер графикаси фанидан интерактив таълим ресурслардан фойдаланиш кўникмасини ривожлантиришда такомиллаштиришда раҳбарлар, ўқитувчилар ва талабаларнинг қўшимча таълим олиш учун шахсий эҳтиёжларини шакллантириш, рефлексив таълимий муҳитни ва табиий рақобатни вужудга келтириш технологияларининг мавжуд эмаслиги; компьютер графикаси фанидан интерактив таълим ресурслардан фойдаланиш кўникмасини ривожлантириш йўналишларида ўқитувчиларнинг касбий компитентлигини ривожлантиришга қаратилган узлуксиз малака ошириш

жараёнларини ташкил этиш ва бошқариш механизмларини ишлаб чиқилмаганлиги ва ҳ.к[1].

Интерактив таълим ресурсларини яратиш биринчи навбатда фаол фойдаланувчилар гуруҳига қаратилиши керак.

Интерактив сўзи инглиз тилидан олинган бўлиб, “inter” – ўзаро (взаимный), “act”-фаолият қилмоқ (действовать) маъносини билдиради.

Интерактив ўқитиш - талаба ўзида олдин мужассамлашган тажрибадан фойдаланган ҳолда, ўқув жараёнида фаол иштирок этади, машғулот давомида шахсий рол ўйнаб, янги тажрибалар орттиради, олган тажрибалари асосида дарсни таҳлил қилиб, ўзига керакли муҳим материалларни олади ҳамда ўзининг кундалик фаолияти билан боғлайди.

Интерактив ўқитишда маъруза ва амалиёт бир бутун машғулотнинг қисмлари деб қаралади ва бу ўқитувчи ҳамда талабанинг ўзаро таъсири ҳамда талабаларнинг машғулот давомида фаол иштирок этиш даражаси билан белгиланади[2].

Интерактив таълим воситалари – бу турли хил алоқа объектлари: компьютер, алоқа техник қурилмалари, дастурий таъминот ва унинг имкониятлари, муайян дарснинг муаммоларини ҳал қилиш учун махсус ишлаб чиқилган ва танланган элементлар, шунингдек, талаба ва ўқитувчининг хатти-ҳаракатлари билан ўзаро алмашилиш жараёнини амалга оширишга ёрдам берадиган фаолиятлар.

Электрон график ишлар ёзма ишларга ўхшаш бўлиб, улардан техник жараёнлар (география, компьютер графикаси, математика, чизмачилик, расм, технологик таълим)да кенг кўламда фойдаланилади.

Электрон хрестоматия (юн. “chrestos” – яхши, фойдали, “manthano” – ўрганаман, ўқийман) – ўзида муайян ўқув модули (ўқув фани) асосларига оид энг самарали маълумотлар ёки улардан парчаларни қамраб олган тўплам шаклидаги электрон ўқув манбаи.

Рақамли видео лавҳалар – ўқув модули (ўқув фани) бўйича билим, кўникма ва малакаларни ўзлаштиришга ёрдам берадиган маълумотларни ўз ичига олган 3D ўлчамдаги замонавий ўқув манбаи.

Виртуал стендлар – реал объект, предмет, жараён, воқеа ва ҳодисаларнинг электрон модели; Матн, расм, схема, жадвал, диаграмма ва б. Шаклдаги ахборот, жараён ҳамда виртуал муҳитларни яратиш, сақлаш, ишлов бериш, рақамлаштириш ва тизимли равишда амалга оширишни ифодаловчи компьютерли восита.

Таълим жараёнида имитация ва моделлаштириш электрон-таълим ресурсларидан фойдаланиш, ишлаб чиқилган таълим ресурслари моделларини қўллаш, уларнинг хатти-ҳаракатларини ўрганиш, "компьютер" тажрибаларини ўтказиш, шунингдек, эксперимент маълумотларини шарҳлашни ўрганиш имконини беради.


Ушбу тадқиқот ишимизда интерактив таълим ресурсларидан таълим жараёнида фойдаланишнинг педагогик фаолиятга таъсир кўрсатишни ўрганамиз.

Бизнинг фикримизча, hozirgi vaqtda informatika ўqituvchilarni tayёрлаш uchun zamonaviy talablar qўyilmokda. Standart dasturlarni qўllash va ulardan optimal echimni olish uchun foydalaniш qobiliyatini shakllantirish asosiy vazifa bўlmoqda. Belgilangan maqsadlarга эришиш uchun nazariy bilim olishга йўналтирилган taъlimdan amaliy qўnikmalarni shakllantirishга йўналтирилган bўlishi керак. Faqat aniq maълumotlar orqali talabalarga ўrgatish mumkin, informatikaда usullarni qўllash uchun interaktiv taъlim resurslarini modelni yaratish va olingan natijalarning turli jihatlarni taъlim qiliш lozim. Shuni taъkidlash керакки, kўrib chiqilayotgan muammolarning aksariyati kompyuterdan foydalanmasdan hal etilmaydi.

Yangi interaktiv taъlim resurslaridan foydalaniш taъlimning zamonaviy va dolzarb vazifasidir. Axborot texnologiyalarini taъlim soҳasiga joriy etish turli xil pedagogik muammolarni samarali hal qiliшга imkon beradi. Masalan, maъruzalarda, seminarlarda va boshqa ўquv faoliyatida raқamli texnologiyalardan foydalaniш taъlimot uslubini tubdan ўzgartirishi mumkin.

Pedagogik jaraъnni modellashtirish asosini, odatda, fikrlash konstruktsiyasi tashkil qiladi hamda maълum maъnoda ўrganilayotgan obьektga ўxshash bўladi va ayni vaqtda u ёki bu darajada undan farq qiladi. “Jaraъn” ham maълumki kўp maъnoli. Jaraъnni muayyan natijaga erishiш, hamda informatika ўqituvchining axborot madaniyatini shakllantirishda amalga oshirilayotgan izchil harakatlar йigindisi sifatida tushunamiz.

O.D.Rahimov [2], D.S. Tўxtasimova [3] va boshqalar tomonidan web texnologiya asosida elektron axborot taъlim resurslarini yaratish va ularni amaliyotga joriy etish va modelini yaratish muammolari bўyicha tadqiqot ishlari olib borган. Tadqiqot ishimizda taklif etayotgan “Elektron taъlim muхitida interaktiv taъlim resurslarini yaratish” modeli taъlimni axborotlashtirish sharoitida zamonaviy informatika ўqituvchisi tayёрlashga karatilgan(1-rasm).



1-расм. Интерактив таълим ресурсларини яратиш модели.

Дидактик талаблар: мослашувчанлик, интерфаоллик, компьютер визуаллаштириш имкониятлари, таълим олувчининг интеллектуал қобилиятини ривожлантириши, фикрлаш, мураккаб вазиятларда мустақил қарорлар қабул қила олиш маҳоратини ошириши, ахборотга ишлов бериш бўйича кўникмаларни шакллантириши, ўқув материални намойиш қилишнинг тизимлилик ва функционал боғлиқлигини, таълим беришнинг тўлиқлиги ва узлуксизлигини таъминлаши ҳамда муаммоли ва изланиш топшириқларининг интеллектуал ўргатувчи тизимига эга бўлиши.

Услубий талаблар: ўқув материални тақдим этишнинг тушунчали, образли ва ҳаракатли компонентларининг ўзаро боғлиқлигига таянган ҳолда яратилиши, ўқув материални юқори тартибли тузилма кўринишида таъминлаши, фанлараро мантиқий ўзаро боғлиқлик ҳисобга олиниши, таълим олувчига ўқув материални босқичма-босқич ўзлаштириш учун турли хилдаги назоратларни амалга ошириш имконияти яратилиши, барча амалга ошириладиган ҳисоблашлар визуаллаштиришнинг очик тизимига эга бўлиши, ўзгарувчан объектлар ёки жараёнларнинг боғлиқлиги намойиш қилиниши.

Психологик талаблар: ўқув материални намойиш қилиш нафақат вербал, балки когнитив жараённинг сенсорлик ва намойиш қилиш ҳолатларига ҳам мос келиши, қабул қилиш, диққат, фикрлаш, тасаввур қилиш, хотирада сақлаш каби психологик жараёнлар хусусиятларини ҳисобга олиши, ўқув материал мазмунида таълим олувчиларнинг ёши, таянч билимлари инобатга олиниши, образли ва мантиқий фикрлашни ривожлантиришга йўналтирилган бўлиши, ўқитишнинг кўргазмалилигини

таъминлаши, талабалар томонидан ўрганилаётган объектлар, уларнинг макетлари ёки моделларини сезгили, анланган ҳолда қабул қилиши ва шахсан кузатиши, ҳаётий тажрибасини ҳисобга олиш заруриятини кўзда тутиши.

Техник, технологик талаблар: локал ва бошқа ташқи ахборот ташувчиларда ва тармоқли тартиботда ҳаракатланиши, мультимедиа ва телекоммуникация технологияларининг замонавий воситаларини максимал қўллаш имконини бериши, ишлашда пухталиқ ва турғунлиқ таъминланиши, гетерогенлиги (электрон дарслиқ спецификациясида кўзда тутилган турли хилдаги компьютерли ва бошқа шунга ўхшаш воситаларда турғун ишлаши), ресурслардан самарали ва тўғри фойдаланиш имконияти яратилиши ва тестлаштирилган бўлиши[4].

Тадқиқот ишимизда таълимни ахборотлаштириш шароитида таклиф этилаётган “Электрон таълим муҳитида интерактив таълим ресурсларини яратиш” модели тажриба-синов ишларида ўзини ҳаётийлигини кўрсатди.

Хулоса. Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш жоизки, талабада электрон таълим муҳитида интерактив таълим ресурсларини яратиш ва ундан фойдаланиш – онгли ташкил қилинадиган ва бошқариладиган жараён бўлиб, тажриба-изланиш натижалари асосида ишлаб чиқилган модел мажмуаси талабанинг ахборот маданиятини шакллантиришга хизмат қилади.

Адабиётлар

1. Жанабергенова А. Математика фанидан мустақил таълимни ташкил этишда талабаларнинг математик тафаккурини ривожлантириш// «Умумтаълим фанларини ўқитишда инновацион методикалар». Республика миқёсидаги масофавий илмий семинар материаллари. Тошкент. Низомий номидаги ТДПУ ва СамДУ 2020й. 43-44 б.
2. Рахимов О.Д. электрон таълим ресурсларини яратиш талаблари ва технологияси. Замонавий таълим. Илмий амалий журнал -Т. 2016. 47-б.
3. Тўхтасинова Д.С. Электрон ўқув адабиётларини яратиш ва расмийлаштириш, услубий қўлланма, Т.2017.8б
4. Электрон таълим ресурсларига умумий талаблар. – ОЎМТВ, 2013. -10, 14-б.

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI
TARBIYALASHDA ERKIN TARBIYA ASOSLARI***Sattorova Farida Saidovna**Buxoro viloyati Buxoro tumani 18-sonli DMTT tarbiyachi*

Annotatsiya. Erkin tarbiya tizimi uchun bolaning ko'ngli, tarbiyashunoslik ilmidagi ilgari surilganidek, istagan narsani yozish mumkin bo'lgan oq qog'oz emas.

Har qanday sog'lom bola dunyoga kelishda haqiqat, go'zallik, halollik, adolat singari bir qator ijobiy tuyg'ulari bilan birga tug'iladi va u hayoti davomida bu hislarni faoliyati, xatti-harakatida namoyish etib boradi. Erkin tarbiya texnologiyasi odamdagi mana shu tabiiy sifatlarga uyg'un holda ish ko'rishga monandligi, ularni takomillashtirishga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir. Bunday tarbiya insonning tabiiy axloqiy-ruhiy taraqqiyotiga hamohang bo'lib, har qanday bola tabiiy muhit va erkin faoliyat natijasidagina o'zligini boridek namoyish qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: erkinlik, bola, kompetensiya, tarbiyachi, pedagog, texnologiya, metod, ota-onalar, ta'lim sifati, mashg'ulot, markazlar.

Annotation. For the free education system, the child's mind is not a white paper on which you can write anything you want, as it is put forward in the science of education.

Any healthy child is born with a number of positive feelings, such as truth, beauty, honesty, and justice, and he demonstrates these feelings in his activities and behavior throughout his life. The technology of free education is important because it is similar to work in harmony with these natural qualities of a person, and is directed to their improvement. This type of upbringing is in harmony with the natural moral and spiritual development of a person, and any child can show his personality as a result of natural environment and free activity.

Keywords: freedom, child, competence, educator, pedagogue, case study, technology, method, parents, training.

Аннотации. Для системы бесплатного образования разум ребенка – это не белая бумага, на которой можно написать все, что угодно, как это выдвигается в педагогической науке.

Любой здоровый ребенок рождается с рядом положительных чувств, таких как правда, красота, честность, справедливость, и проявляет эти чувства в своей деятельности и поведении на протяжении всей жизни. Технология бесплатного обучения важна тем, что она подобна работе в гармонии с этими природными качествами человека и направлена на их совершенствование. Этот вид воспитания находится в гармонии с естественным нравственным и духовным развитием человека, и любой ребенок может проявить свою личность в результате естественного окружения и свободной деятельности.

Ключевые слова: свобода, ребенок, компетентность, воспитатель, педагог, кейс, технология, метод, родители, обучение.



Erkinlik – bu shaxsning subyektiv pozitsiyasini faqat tashqi majburlashsiz o'zi uchun ahamiyatini tushunishga asoslangan, harakatlarni amalga oshirish uchun imkon beradigan eng yuqori darajadagi ma'naviy qadriyat. Insonning yuksak darajada rivojlangan

sivilizatsion mavjudot sifatida mohiyatan nimani izlayotgani va uning mavjudligining ma'nosi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham u atrof-muhitga va sodir bo'layotgan voqealarga nisbatan uning hayoti uchun ahamiyatligini aniqlash pozitsiyasi bilan murojaat qiladi. Erkinlik tufayli inson nafaqat atrofdagi haqiqatga moslashibgina qolmay, balki uni yaxshi hayot haqidagi g'oylarga muvofiq ravishda o'zgartiradi.

Erkinlik har doim nisbiydir. U ijtimoiy hayot sharoitlari bilan tartibga solinadi va turli shakllarda namoyon bo'ladi. Jumladan, ichki va tashqi erkinlik, vijdon erkinligi, tanlov erkinligi, intellektual erkinlik, ijod erkinligi, axloqiy erkinlik va hokazolar. Ichki erkinlik nafaqat insonning mustaqil, ma'suliyatli va ijodiy shaxs bo'lishi, o'z tanlovlari to'g'risida qaror qabul qilish irodasiga ega bo'lishi balki barcha ma'suliyatni o'z zimmasiga olishi bilan ham xarakterlanadi. Ijtimoiy ma'suliyat doimo erkinlikning namoyon bo'lishi bilan izohlanadi. Chunki bu boshqa shaxslarning ham manfaatlariga ta'sir qilish zarur. Har qanday shaxs o'zini erkin inson sifatida anglash barobarida boshqalarning u yoki bu erkinligini cheklashimiz mumkin ekanligini unutmasligimiz zarur.

Insonning axloqiy qadriyatlari qatoriga kiruvchi erkinlikni shakllantirishda ta'lim qanday rol o'ynaydi? Erix Fromm o'zining "Erkinlikdan qochish" nomli kitobida shunday yozadi: «... ijtimoiy jarayonlar nuqtai nazaridan olib qaralaganda tarbiyaning asosiy vazifasi shaxsning jamiyatda bajarishi kerak bo'lgan vazifalar uchun tayyorlashdan iborat. Ya'ni tarbiya uning fe'l-atvorini shunday shakllantirishi kerakki, u ijtimoiy xarakterga yaqinlashishi kerak. Shunda, uning intilishlari ijtimoiy hayot talablariga mos keladi.

Biz tarbiyani axloqiy, insonparvarlik qadriyatlarga asoslangan, inson taraqqiyotining maqsadli jarayoniga hamrohi sifatida tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o'zaro ta'siri natijasida amalga oshiriladigan jarayon ekanligidan xabardormiz.

Pedagogika nazariyasining maqsadlariga ko'ra tarbiyani turli xildagi aspektlarda tekshiradi.

Birinchi, tarbiya – sotsializatsiya jarayonining pedagogik tarkibiy qismi bo'lib, ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan harakatni nazarda tutadi. Jumladan, insonning jamiyatdagi integratsiyasiga, ijtimoiy rollarning kompleksini o'zlashtirishga yo'naltirilganligini nazarda tutish mumkin.

Ikkinchi, tarbiya insonning rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, shaxsiy imkoniyatlaridan kelib chiqib eng yuqori darajaga erishishi uchun unga maksimal yordam beradi.

Uchinchidan, tarbiya insonning hayot normalarini qamrab oluvchi o'z madaniy elementlarining o'zlashtirishini nazarda tutadi. Natijada tarbiya jarayoni shaxsning rivojlanishiga olib keladi.

Biroq, ushbu uchala yondashuvning barchasi ham insoniyatni zamonaviy dunyoga kirib borishiga ko'maklashuvchi erkinlikni aks ettirmaydi.

Shundan kelib chiqib, tarbiya bolaning mavjudligini anglashi va o'z hayotining dizaynini qurish uchun maqsadli yo'naltirish lozim. Ana shundagina bolani erkin shaxs sifatida tarbiyalashga erishish mumkin.

J.P.Sparta so'zlariga ko'ra, "Inson o'zini qanday tug'ilgani emas balki, kim bo'lib shakllanishi muhimdir. Inson kelajakka intilib yashovchi hamda subyektiv tajriba asosida hayot kechiradigan mavjudotdir". Olimning aynan mana shu fikrlari ekzistensializmning birinchi tamoyili hisoblanadi.

Faylasuf olimlarning ekzistensializm tamoyili bo'yicha qarashlarining turlichaligiga qaramay ularni yagona fikr birlashtirib turadi. Bu shaxsning o'zini anglashi, shaxsiy fazilatlarining individual rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishidir.



Avvalo, bola rivojlanishining har bir bosqichida hayotning maqsadi va unga erishish yo'llarini belgilashi kerak. Bunga muvofiq, bolaning individual xususiyatlariga mos keladigan, uning xususiyatlarini inobatga olgan holda, faoliyatning turli turlariga kiradigan, mashg'ulot va mashg'ulotdan tashqari ishlarda shaxsning imkoniyatlarini ochib beradigan, har bir bolaga o'zini o'zi anglash imkoniyatini beradigan maxsus vazifalarni ajratib ko'rsatish kerak.

Bolalar bilan ishlashni ularning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishni loyihalashtiradigan va o'z loyihalarini amalga oshirish yo'llarini izlaydigan tarzda tashkil etish muhimdir.

Bolalarning o'z-o'zini rivojlantirishga tayyorligini shakllantirishda uchta asosiy bosqichni ajratish mumkin: propedevtik, dolzarb va aks etuvchi.

Propedevtik bosqich bolalarga o'z-o'zini bilishda yordam berishni, ularning rivojlanishini loyihalashga tayyorlanishni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichda asosiy vosita maxsus ishlab chiqilgan treninglar, individual maslahat berishdir. Hozirgi bosqichda o'z-o'zini rivojlantirish dizaynini pedagogik rag'batlantirish va loyihani amalga oshirishda yordam berish kerak. Ushbu bosqichda samarali vosita rag'batlantiruvchi diagnostika hisoblanadi.



Analitik bosqich bolalar tomonidan o'z-o'zini rivojlantirish natijalarini tushunishni, sanatoriy maktabining imkoniyatlaridan foydalanishni baholashni, yangi kompetensiyalarni egallash asosida o'z-o'zini rivojlantirishning yangi vazifalarini belgilashni o'z ichiga oladi

Erkin insonni tarbiyalash uchun o'qituvchining mavqei, uning bolalar bilan munosabatlarining mohiyati katta ahamiyatga ega. Bizning tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, erkin insonni tarbiyalash quyidagi shartlarga bog'liq:

- bola hayotini qat'iy tartibga solishni rad etish, ularga ma'lum bir qat'iyat namoyon bo'lishi bilan ratsional yo'llar bilan o'ylab topilgan narsalarga erishish uchun bosqichma-bosqich harakat qilish uchun zarur bo'lgan o'z-o'zini tashkil etish va o'zini o'zi boshqarish usullarini o'rgatish;

- tarbiyachilarni ichki dunyo

- bolalar tajribalari dunyosiga yo'naltirish, ularsiz ishonchli aloqalar va chuqur aloqalarni o'rnatish mumkin emas;

- tarbiyachi tomonidan shaxsning "men" ning erkin namoyon bo'lish huquqini amaliy tasdiqlashda bolaning ichki dunyosi avtonomiyasini tan olish;

- ustozlar o'sib borayotgan odamning dolzarb savollariga to'g'ridan-to'g'ri javob berishdan, u uchun va hatto u bilan har qanday muammoni hal qilishdan bosh tortish;

- bolalarni ular uchun voqea bo'lishi mumkin bo'lgan, shaxsiy ahamiyat kasb etadigan va ijtimoiy tanlovni rag'batlantiradigan turli vaziyatlarga qo'shilish.

Shunday qilib, erkinlik insoniyat mavjudligining eng muhim axloqiy qadriyatlarini rolini o'ynaydi va erkin insonni tarbiyalash bu qadriyatning pedagogik faoliyatda namoyon bo'lishini aks ettiradi va ijtimoiy tarbiyaning maqsadli vazifasi sifatida qaralishi mumkin.

Adabiyotlar

1. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay'at yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan.
2. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 20-martda "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus
4. F. Qodirova, Sh. Toshpo'latova, M. A'zamova Maktabgacha pedagogika T.: Ilm-ziyo. 2019-yil
5. Abdullaeva Q. Yangi pedagogik texnologiyalar. Boshlang'ich ta'lim. «O'qituvchi», 1998, 4-son, 16-21- betlar.

**G'ARB VA SHARQ FOLKLORIDA ALLALAR VA ULARNING MAZMUN
JIHATDAN QIYOSIY TAHLILI**

*Abdullayeva Soxibaxon,
Namangan Davlat Universiteti Jahon tillari fakulteti
Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi
abdullayevas191@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek hamda Yevropa xalqlari allalari namunalari mazmuni qiyosiy tahlil qilinadi. O'zbek allalarida mazmun asosan onaning his tuyg'ulari o'sha vaqtdagi holatlari yoki orzu umidlari ifodalanadi. Yevropa xalqlari allalarida esa alladan farzandlarni tinchlantirish vositasi sifatida foydalaniladi.

Kalit so'zlar: alla, parokanda, sharq xalqlari allalari, Yevropa xalqlari allalari

Abstract. This article compares the content of Uzbek and European lullabies. In Uzbek lullabies, the content is mainly the feelings of the mother, her situation at that time, or her hopes of dreams. Meanwhile, among European nations, it is mainly, used as a means of calming children.

Key words: lullaby, rhythm, eastern lullabies, European lullabies.

Аннотация. В данной статье сравнивается содержание узбекских и европейских колыбельных песен. В узбекских колыбельных содержание в основном составляют переживания матери, ее положение в то время или ее надежды мечты. Между тем, у европейских народов он, в основном, используется как средство успокоения детей.

Ключевые слова: колыбельная, ритм, восточные колыбельные, европейские колыбельные.

Qadim zamonlardanoq hayot tajribasini yetuk olimlardek tahlil qila olgan xalqimiz bolalar folklori asarlarini jahon pedagogikasi talablari asosida yaratishga erishdi. Bu talablarning eng muhimi mazkur namunalar tilidagi soddalik, mazmundagi yorqinlik bilan belgilangan. Shuningdek, bu asarlar, albatta, tarbiyaviy ahamiyat kasb etgani holda, bolalarda xalqiga, vataniga, qadriyatlarga, ajdodlariga xurmat ruhini shakllantirishi kerak edi. Bola hayot haqidagi dastlabki tajribalarga ega bo'lganidan uy hayvonlarining tabiati va xususiyatlari, vahshiy hayvonlardagi asosiy belgilar bilan ertaklar vositasida tanishib oladi. Ayni paytda, go'zallik qadriga yetish, his-tuyg'ulami ifodalay olish yo'llarini o'rganadi. Bola go'dakligidan onasining allasini eshitadi. Sevimli shoirimiz Cho'lpon ona allasidagi sehrli dunyo ifodasini shunday ta'rif etadi: "Bir bola uxlamasa, alla aytadilar. Bola tez uxlab ketar. Chunki ul andin bir lazzat his qilur". [7. 248-254-s] Bola ruhiga qilinadigan ta'sir, avvalo, ona mehri, ona qalbidagi muhabbat bilan yo'g'rilgan bo'ladi. Keksalarimiz alladagi bola ruhiga iymon, vatanga muhabbat, xalqiga xurmat, o'zi tug'ilgan oilaga izzat singdirish fazilatini ko'p qayd qilganlar. "Alla" lug'aviy jihatdan "charxpalak bo'lmoq", "yiqilmoq" ma'nosini ham beradi. Ayni paytda bu so'zning "Alloh"dan olingani ham olimlar tomonidan qayd etilgan. Xalq qo'shiqlarining bu turi deyarli hamma xalq og'zaki ijodida bor. Uni ruslar "kolibelnaya", gruzinlar "nanina" deb atashadi. Hatto Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'oti-t-turk" asarida "beshik" so'zi bor. Beshik bo'lganidan so'ng

mantiqan bolani ovutish qo'shig'ining bo'lishini tabiiy hol deb qabul qilish lozim. Alla qo'shiqlari mazmunan bir necha ko'rinishda bo'lishi mumkin:

1. Onaning farzand ko'rganiga shukr qilishi.
2. Farzandga baxt tilashi, uning kelajagini Yaratgandan so'rashi. [7.248-254s]
3. Yosh onaning his-tuyg'ularini ifodalashi, ba'zan turmushdan hasrat qilishi.

Ammo allaning mazmuni qanday ma'noni ifodalashidan qat'iy nazar onaning farzandiga bo'lgan muhabbati ustuvorlik qiladi. Asrlar davomida millatimizning ijodkor vakillari tomonidan yaratilgan xalq qadriyatlaridan biri bo'lgan alla momodan onaga o'tayotgan ma'naviy merosdir. Akademik G'afur G'ulom Hazrat Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni beshinchi bobidagi:

Beshik davrida chiniyu xitoyi,
Bo'lib yuz no'sh lab dastonsaroyi.
Ko'zining nozi eldin eltib uyqu,
Anga uyqu keturmakka navogo' baytlarida:

"Beshik atrofiga chinliklar va xitoyliklar yig'ilib, yuz ohang bilan alla aytar edilar. Bolaning ko'zidagi noz boshqalaming ko'zidan uyqusini qochirar va ular Farhodning uyqusini keltirish uchun alla aytar edilar", deb izoh beradi.[2.78-s] Farhodning ulg'ayganida buyuk Navoiy havas qilarli darajada barkamol inson bo'lib yetishishida ana shu allalar ta'sirini kim inkor etadi. Axir dunyo tanigan olimlarimiz, g'azal-u dostonlar bitgan adiblarimiz go'dakligida alla eshitib ulg'aygan-ku. Tibbiyot ilmining buyuk allomasi Abu Ali ibn Sino inson sog'ligida tovush va ohangning, allaning juda muhim ahamiyat kasb etishini qayta-qayta ta'kidlagan edi. Allani ona juda berilib aytadi. Ba'zan allani eshitgan odam onaning o'zi allaga aylanib ketdi, shekilli, deb o'ylaydi. Ammo shu paytda ona bolasining allani tushunmasligini hayoliga ham keltirmaydi. Qolaversa, buning ahamiyati ham yo'q, chunki muayyan lahzada ona xayollar olamida sayr qilayotgan bo'ladi. Bola uchun esa beshikning bir maromda tebranishi va alla kuyi ahamiyatlidir.

O'zbek bolalar folklori taniqli olim G'ani Jahongirov va professor Oxunjon Safarov tomonidan alla o'rganilgan. Xususan, O.Safarov ona aytadigan allalar mazmun va kompozitsiya jihatdan turlarga bo'linishini ko'rsatadi: parokanda, voqeaband, maishiy, tarixiy allalar mavjud bo'lib, ular bir-biridan farq qiladi [7. 248-254-s]. Har biri mustaqil mazmun bildiruvchi to'rtlik allalar parokanda hisoblanadi:

Men seni alla qilay, alla,
Ko'tarib katta qilay, alla.
Alla jonning rohati, alla,
Uyqu ko'zning rohati, alla.
O'rik yog'och beshiging, alla,
O'rgilib ketsin onang.
Tut yog'ochdan beshiging, alla,
Termulib o'tsin onang, alla.

Parokanda - tartibsiz, tarqatilgan ma'nosini ifodalaydi. Binobarin, parokanda allalarning har birini alohida aytish mumkin. Voqeaband allalarda misralardagi

mazmun bir-biriga bog‘lanadi, ya’ni voqeasi bandlangan, bog‘langan bo‘ladi. Ularni oldinma-keyin aytish mumkin emas:

Past-pastgina tepadan,
Toydim tushdim-o, alla.
Qo‘limga qaychi olib-o,
Senga - qo‘g‘irchog‘im-o,
Chopon bichdim-o, alla.
Yenglari tor kelmasin, deb
Qo‘lingga qarab-o, alla.
Chopon bichgan qo‘limni-yo,
Mening toylog‘im-o, alla,
Oyi bordir-o, alla,
Jonim bolam-o, alla.

Ma’lum bo‘ladiki, voqealik allalarning mazmunan birligi ularni aralash yoki almashtirib ijro etishga yo‘l qo‘ymaydi. Maishiy allalarda link yo‘nalish yetakchi bo‘ladi. Agar avvalgi tur allalarda ona maqsadi, asosan, alla aytishga qaratilgan bo‘lsa, maishiy turda ona endi alla aytishdan ham ko‘proq o‘zining ichki g‘amini, dard-hasratni aytmoqchi bo‘ladi. Endi, alla faqat vosita vazifasini o‘taydi. Bosh maqsad esa, his-tuyg‘uni ifodalashga qaratilgan bo‘ladi:

Shaftoli shoxiga zar, alla,
G‘aynoli bargiga zar, alla.
Men dadangga intizor, alla,
Ko‘z tikarman beqaror, alla.

Bu allani ko‘proq eri urushga ketgan, uzoq va xavfli safarlarda qatnashayotgan va oila erkaksiz qiynalayotgan paytlarda aytishgan. Ular link asarlar sifatida aytuvchi ichki kechinmalarini ifoda etgan. Tarixiy allalar nisbatan kam aytilgan. Ularda muayyan davr, voqea- hodisa aks etgan:

Afg‘oniston tog‘ligi-yo, alla,
Yaltillaydi balig‘i-yo, alla.
Kundan-kunga ortadi-yo, alla,
Amirlikning solig‘i-yo, alla.

Shunday qilib, bolalar folkloriga nisbat beriladigan allalar onaning qalb qo‘shig‘i hisoblangan. Bola allaning so‘zini tushunmagan, kuyidan rohat olgan. Ona bo‘lsa, bir tomondan, quvonchini, ikkinchidan, alami va dardini aytib ko‘nglini bo‘shatgan. Natijada, har ikki taraf: ona ham, bola ham yutuqda qolgan.

G‘arb folklorida ma’lum bo‘lgan eng qadimiy alla uels tilida bo‘lib, u 6-asr ingliz shoiri Aneiringa tegishli bo‘lgan “Aneirin kitobi” she’riy to‘plamida saqlanib qolgan. Qo‘lyozma 13-asrning oxiriga to‘g‘ri keladi, lekin 9-asrning asl nusxasidan ko‘chirilgan bo‘lishi mumkin, o‘zi esa og‘zaki an’analar orqali uzatilgan she’rlarni yozib olgan bo‘lishi mumkin.

Iso alayhissalomning tug‘ilishi bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab o‘rta asr ingliz misralari alla shaklini olgan, jumladan, “Alla, mening yoqtirganim, mening jasur o‘g‘lim, mening shirinim ” allasi zamonaviy allaning qadimiy versiyalaridan bo‘lishi mumkin. Biroq, bugungi kunda qo‘llanilgan allalarning aksariyati XVII asrdan boshlab, ingliz tilidagi eng mashxur bo‘lgan ba’zi allalar esa AQShdan

kelib chiqqan. Ingliz tilidagi mashhur allalar qatoriga “ Bye, baby Bunting ”, “ Scottish Lullaby ”, “ Suo Gân ” (Welsh Lullaby) va “ Hush, Little Baby ” kiradi.

Shotlandiya folklorida ko'plab allalar mavjud bo'lib, ular Shotlandiya gael shevasida, shotland va ingliz tillarida berilgan. Ularga bolaga bo'lgan mehrdan tashqari his-tuyg'ularni ham ifodalaydi. Bir qator an'anaviy allalarda ijtimoiy mazmuni ifodalangan. Va bu Shotlandiyaning zamonaviy folklorida hali ham mavjud, xususan, Jim Maklinning “Uyquda tabassum” (shuningdek, "Hush, Hush, Time to Be Sleeping" nomi bilan ham tanilgan), Mett MakGinningning “Konchining ninisi” (shuningdek, "Koori" nomi bilan ham tanilgan. Doon") va Karine Polvartning “Baleerie Baloo” allalarida ko'rish mumkin. Kristina Styuartning “Kist o Dreams” loyihasi Shimoliy Sharqdagi Dorik shotlandlaridan tortib, Shetlandning Shimoliy orol lahjalarigacha, Shotlandiya Gael va ingliz tilidagi misollargacha bo'lgan 30 dan ortiq Shotlandiya allalaridan iborat manbani taqdim etadi.

Alla qo'shiqlar odatda “alla-yo chaqalog'im, daraxt tepasida” yoki “tinchlan, chaqalog'im” yoki “Uxla, bolam,” yoki “Hush, chaqalog'im, indama” kabi misralardan iborat bo'ladi. Ingliz tilidagi “lullaby” atamasi onalar va enagalarning chaqaloqlarni tinchlantirish uchun chiqaradigan lu lu yoki la la tovushlaridan kelib chiqqan va sokin ovoz yoki yaxshi tun atamasi ma'nosini beradi. Shu davrgacha saqlanib qolgan eng qadimiy alla rimlik enagalarning Persiy maktabida yozilgan allalari bo'lishi mumkin: “Lalla, Lalla, Lalla, / aut dormi, aut lacte” (alla, alla, alla-yo uyquga ketgin bolam). Qadimgi xalq she'rlari sifatida allalar ma'nosiz to'rtliklardan tortib yarim balladalargacha bo'ladi. Ular bolalarcha qofiyalar bilan chambarchas bog'liq. Rodrigo Karo butun dunyoda uchraydigan bu tinchlantiruvchi ohanglarni "barcha qo'shiqlarning xurmatli onalari" deb atagan. [3.2-3-s] Federiko Garsiya Lorca “Ispaniya o'zining eng qayg'uli ohanglari va eng g'amgin matnlaridan o'z farzandlarining yquga yotqizish uchun foydalanadi” deb ta'kidladi va shunday xulosaga keldi: “Yevropa alla qo'shig'ini faqat bolani uxlatishga harakat qilish uchun aytadi, ispanlar kabi uning sezgirligini jarohatlash uchun emas”(“Allalar haqida”, 1928) [3.2-3-s] . Lorca bizga beshik qo'shiqlarini bolalarini uxlatmoqchi bo'lgan ayollar o'ylab topishganini eslatadi [3.2-3-s]. Ayollar o'zlarining charchoqlarini izhor qilib, bolalarini tinchitadilar. Shunday qilib, allalar ikki xil maqsadni ko'zlaydi. U. Bejarda aytiladigan eng qizg'in allani topib, shunday deydi: “Agar biz uni toshloq yerga tashlasak, bu oltin tanga kabi jiringlaydi”. Ushbu alla shunday boshlanadi:

Uxla, bolakay,uxla,

Chunki men seni kuzatib turaman.

Oллоhim bu yolg'on dunyoda omadingni bersin.

Iosif Brodskiyning go'dak qiziga bag'ishlangan she'ri “Alla” (“Men seni cho'lda tug'dim”) [4.36-s] U.H.Audenning eng go'zal erta lirikalaridan biri “Lullaby” (“Uxlayotgan boshingni qo'y, sevgilim”) [10. 46-s] bilan o'xshashdir. Reetika Vazirani (1962–2003) hayratlanarli va ta'sirli uch misrali “Alla” (2002) [8. 89-s] she'rini yozgan bo'lib, unda:

Uxlashing uchun senga qo'shiq aytmayman.

Men lablarimni qulog'ingizga bosgan bo'lardim va yuragim daxshati sizni hayajonga soladi, deb umid qilaman (I would not sing you to sleep. I would press my lips to your ear and hope the terror in my heart stirs you), -deb yozadi. [3.2-3-s]

G'arb allalariga haqida gapirsak, unda asosan, onaning ichki his tuyg'ularidan ko'ra bolaning uxlashiga undash yaqqol tashlanadi. Shu bilan bir qatorda bizda 'alla' har bir allada yetakchi o'rinda yursa, ya'ni alla qo'shig'ining asosiy qismini tashkil qilsa, ingliz allalarida deyarli bu so'z uchramaydi. Aksincha, alla biror voqea yoki ertakni ritmga solib bolaga aytib berilayotganday tuyuladi.

Lavender's Blue (traditional English)

Lavender's blue, dilly dilly,
Lavender's green
When you are king, dilly, dilly,
I shall be queen.
Lavender's green dilly, dilly
Lavender's blue
You must love me, dilly, dilly
'cause I love you.
Who told you so, dilly dilly,
Who told you so?
'Twas my own heart, dilly dilly,
That told me so [5. 40-s]

Ushbu allada onaning farzandiga bo'lgan muhabbati, uning kelajagiga bo'lgan ulkan ishonchi aytilsa, quyidagi allada esa ona bolani ovutib uxlatish uchun unga ertakni ritmga solib aytishini ko'rish mumkin:

Hush Little Baby (Mockingbird song) (traditional American lullaby)

Hush, little baby, don't say a word.
Papa's gonna buy you a mockingbird
And if that mockingbird won't sing,
Papa's gonna buy you a diamond ring
And if that diamond ring turns brass,
Papa's gonna buy you a looking glass
And if that looking glass gets broke,
Papa's gonna buy you a billy goat
And if that billy goat won't pull,
Papa's gonna buy you a cart and bull
And if that cart and bull fall down,
You'll still be the sweetest little baby in town. [5.40-s]

Sleep, My Babe (traditional Welsh lullaby)

Sleep, my babe, no ill betide thee
All through the night.
Guardian angels watch beside thee
All through the night.

O'er thy cradle stars are beaming
 Silver bright the moon is gleaming;
 You shall tread the land of dreaming
 All through the night.
 While the earth in calm reposes,
 All through the night.
 You shall sleep as sleep the roses
 All through the night.
 Hushed from sorrow and repining,
 Rest until the sun is shining,
 In my loving arms reclining
 All through the night. [5.40-s]

Yuqoridagi Uels xalqi allasi esa mazmun jihatdan o'zbek allalariga o'xshashligini ko'rish mumkin. Unda bolani tunda orom olib uxlashi uchun butun borliq allalashini tushunishimiz mumkin.

Ba'zi allalar xalq og'zaki ijodi bo'lib vaqtlar davomida og'izdan og'izga o'tib kuylanib kelingan bo'linsa, ba'zi allalarning muallifi esa haligacha saqlanib qolgan. Holbuki, o'zbek allalarida hanuzgacha allalar muallifi saqlanib qolinmagan.

Brahms' Lullaby –traditional lullaby by Brahms

Lullaby and good night, with roses bedight
 With lilies o'er spread is baby's wee bed
 Lay thee down now and rest, may thy slumber be blessed
 Lay thee down now and rest, may thy slumber be blessed
 Lullaby and good night, thy mother's delight
 Bright angels beside my darling abide
 They will guard thee at rest, may thy slumber be blessed
 They will guard thee at rest, may thy slumber be blessed [5.40-s]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ingliz allalari o'zbek allariga nisbatan mazmun jihatidan torroqdir. O'zbek allalari davrlar o'zgarishi bilan mazmunan o'zgarib borgan, onalar o'z allari orqali o'z davrlarida mavjud muammolar-u xasratlarini kuyga solib farzandlariga kuylab berganlar.

G'arb xalqlari allarida esa ko'proq farzandning orom olishiga undovchi so'zlar yoki ertak, hikoyachalarni kuyga solinganini yuqoridagi misollarda ko'rdik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Ali ibn Sino. Javome' ilm ul-musiqiy.
2. Alisher Navoiy "Farhod va Shirin. - T.: 1956.
3. Folk Traditions of Lullabies: Functional Analysis. Sohima Anzak, Aneela Sultana, Samia Zulfiqar. Global Sociological Review (GSR) Vol. IV, No. I (2019)
4. Iosif Brodskiy. Collected poems. 2000
5. Lullaby and Goodnight 33 Lullabies for Babies -Amy Robbins-Wilson
6. O. Safarov. O'zbek bolalar poetik folklori. Toshkent-1985.

**MAKTABLARDA MATEMATIKA FANINING O'QITISHNING ASOSIY
VAZIFALARI**

Ro'zimatova Dilrabo Olimjon qizi

*Farg'ona viloyati, Rishton tumani 38-umumiy o'rta ta'lim maktabi matematika
fani o'qituvchisi*

Annotasiya. Maqolada umumta'lim maktablarida matematika fanini o'qitishning asosiy vazifasi va uning dolzarb masalalari, matematika fanlari nazariyasi va unga bog'liq masalalar batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: didaktik, tahlil, sintez, induksiya, deduksiya, analogiya, taqqoslash, metodika.

Аннотация. В статье подробно описаны основные задачи обучения математике в общеобразовательной школе и ее актуальные вопросы, теория математики и смежные вопросы.

Ключевые слова: дидактика, анализ, синтез, индукция, дедукция, аналогия, сравнение, методология.

Abstract. The article describes in detail the main task of teaching mathematics in secondary schools and its current issues, the theory of mathematics and related issues.

Key words: didactic, analysis, synthesis, induction, deduction, analogy, comparison, methodology.

Bolalarni oddiy hisob-kitoblarga o'rgatish haqidagi birinchi ma'lumotlar Qadimgi Sharq mamlakatlari tarixiga oid manbalarda uchraydi. Qadimgi Yunonistonning madaniyati matematik maktab ta'limining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi, bu yerda matematika miloddan avvalgi V asrda paydo bo'lgan. Dastlab, savdo, dengizchilik va hunarmandchilikning rivojlanishi bilan bog'liq holda boshlang'ich maktabda sanoq va amaliy geometriya o'rganilgan.

Matematika darslarida aqliy yuklamaning ortishi bizni o'quvchilarning o'rganilayotgan materialga qiziqishini, butun dars davomida faolligini qanday saqlab qolish haqida o'ylashga majbur qiladi. Matematikaga qiziqishning paydo bo'lishi ko'p jihatdan uni o'qitish metodikasiga, o'quv ishining qanchalik mohirona qurilishiga bog'liq. Shu munosabat bilan maktab o'quvchilarining fikr-mulohazalarini faollashtiradigan, ularni mustaqil bilim olishga undaydigan yangi samarali o'qitish usullari va metodik usullari rivojlanmoqda. O'qituvchi har bir o'quvchining faol, ishtiyoq bilan ishlashi haqida o'ylashi va bundan qiziquvchanlik, kognitiv qiziqishning paydo bo'lishi va rivojlanishi uchun boshlang'ich nuqta sifatida foydalanishi kerak. O'smirlik davrida ma'lum bir fanga doimiy qiziqish va moyillik shakllanadi, aynan shu davrda matematikaning jozibador tomonlarini ochishga intilish kerak. Matematika fani o'qituvchisi faoliyatining asosi o'quvchilar tomonidan oddiy matematik bilimlarni to'plash va yuqori darajadagi masalalarni yechish qobiliyatini rivojlantirish emas, balki har bir matematik muammoni o'rganishda o'qituvchining talabalar bilan hamkorligidadir. O'qituvchi o'qitishda talabalarni bilishning ilmiy usullari: tahlil, sintez, induksiya, deduksiya, analogiya, taqqoslash, umumlashtirish, o'quvchilarning ijodiy, tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirish, ixtisoslashtirish va boshqalar bilan tayyorlanishi kerak. v

O'quvchilarning mustaqil aqliy faoliyatini har tomonlama rivojlantirish muhim: bu bilimning yuqori darajasini va ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirishni ta'minlaydi.

Ta'lim sifatini oshirishga hissa qo'shadigan o'qitishning asosiy shakllari va usullari quyidagilardir: rolli o'yinlar, ishbilarmon o'yinlar, takroriy seminarlar - darslarni umumlashtirish, konferensiyalar, bahs-munozaralar, dialoglar, muammoli ta'lim, mustaqil ish, referatlar himoyasi, individual ish, ijodiy insholar, hisobotlar, xabarlar; test, dasturlashtirilgan nazorat, ilmiy-tadqiqot ishlari va h.k. Yuqoridagi barcha o'qitish texnologiyalari ta'lim sifati muammosini hal qilishga yordam beradi.

Barcha o'qitish usullari o'zining kuchli va zaif tomonlariga ega, shuning uchun maqsadlar, sharoit, mavjud vaqtga qarab, ularni optimal tarzda birlashtirish kerak. Aniqrog'i "O'quv jarayoni faol (o'quvchi o'z ta'lim subyekti sifatida ishtirok etadi) yoki passiv (bu yerda o'quvchi faqat qandaydir ta'sir etuvchi obyekt rolini o'ynaydi) bo'lishi mumkin. Ta'lim sifatiga erishish uchun kognitiv faoliyatning barcha bosqichlarini izchil bosib o'tish kerak. O'quv jarayonida turli shakl va usullardan foydalanish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Sinfda o'quv materialini idrok etishning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ishonch va tenglikning psixologik muhiti samarali o'quv hamda kognitiv faoliyatga yordam beradi. Matematikaning afzalligi shundaki, u inson ongini o'z-o'zini bilish uchun juda samarali vositadir va inson har doim ham ma'lum bir faoliyat sohasida yangi narsalarni yaratish imkoniyatiga ega bo'lmasa-da, ijodiy o'zini namoyon qilishga tayyor bo'lishi mumkin emas. Matematika unga yordam beradi, ijodiy salohiyatni uyg'otadi. Bu matematika fanining asosiy maqsadlaridan biridir. Maktabda matematikani o'qitish metodikasini umuman matematika fanini va turli yoshdagi o'quvchilarning o'quv jarayonlarining qonuniyatlarini ifodalash mumkin. Fanni o'qitish samaradorligi va sifatini oshirish maqsadida matematika fanini o'qitish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Matematika fanini o'qitish o'sib kelayotgan yosh avlodni o'qitishning jamiyat tomonidan qo'yiladigan maqsadlarini birinchi o'ringa qo'yadigan sohadir.

Maktabda matematikani o'qitish vazifalariga quyidagilar kiradi:

- matematikada eng aniq ifodalangan tafakkur elementlarini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish;

- o'quvchini matematikaga qiziqtirish va uning matematik qobiliyatini rivojlantirish;

O'quvchilarda kognitiv qiziqishni shakllantirish uchun o'qituvchi muntazam ravishda darslarda bunga hissa qo'shadigan vazifalardan foydalanishi, ularni maxsus mashqlar yordamida muammolarni hal qilishga o'rgatishi kerak. Topshiriqlar, matematik jumboqlar uchun vazifalar-hazillar va topshiriqlardan foydalanish o'rinli bo'ladi. Demak, maktab o'quvchilariga matematikani o'rgatishning butun jarayonining asosiy vazifasi bilimlarni o'zlashtirish, ya'ni o'quv materialini tushunish va uni o'zlashtirish, shuningdek, bu bilimlarni turli vazifalarni bajarishda qo'llay olishdir. Maktabda matematikani o'qitishdan oldin o'qitishning umumiy maqsadlaridan tashqari matematika fanining xususiyatlari bilan belgilanadigan aniq maqsadlar ham mavjud. Ulardan biri matematik

tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishdir. Bu maktab o'quvchilarining matematik qobiliyatlarini aniqlash va yanada samarali rivojlantirishga yordam beradi, ularni ijodiy faoliyatga tayyorlaydi.

Adabiyotlar

1. Епишева О.Б. Общая методика преподавания математики в средней школе / Тобольск, Изд-во ТГПИ им. Д.И. Менделеева, 1997
2. Колягин Ю.М., Луканкин Г.Л., Мокрушин Е.Л. и другие. Методика преподавания математики в средней школе. Частные методики / М., Просвещение, 1977.
3. Черкасов Р.С., Столяр А.А. Методика преподавания математики в средней школе / Москва, Изд-во "Просвещение", 1985
4. Масадыхова, З., & Хатамкулова, Ш. (2018). Игровая технология при обучении немецкому языку. In *Молодежь и наука: реальность и будущее* (pp. 534-535).
5. Shohistakhon, H. (2022). INTERLINGUAL AND INTRALINGUAL INTERFERENCE. *Open Access Repository*, 8(11), 235-239.
6. Mirhojiddinova, J. D., Shavkatova, A. M., & Alijonova, M. D. (2022). Lingupoetic Features Of Unconventional Combinations And Agricultural Terms In Literary Texts. *Journal of Positive School Psychology*, 6(11), 1599-1604.
7. Mirzakhamdamova Dildora Zafarova. (2022). THE ROLE OF INDUSTRY IN PROVIDING EMPLOYMENT FOR THE LAYER OF THE POPULATION IN NEED OF SOCIAL PROTECTION (IN THE EXAMPLE OF FERGANA PROVINCE). E Conference Zone, 30–33. Retrieved from <https://www.econferencezone.org/index.php/ecz/article/view/1843>
8. Усманова. Д.(2023). ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В СИСТЕМЕ ДОПОЛНИТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Conferencea*, 30–33. Retrieved from <https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/1880>
9. Усмонова, Д. Т. (2022, January). ОСНОВНЫЕ УЧЕНИЯ ХИМИЧЕСКОЙ НАУКИ. In *Multidiscipline Proceedings of Digital Fashion Conference* (Vol. 2, No. 1).
10. Усмонова, Д. Т., & Миркомиллов, Ш. М. (2021). ОСНОВНЫЕ ВИДЫ ВОЗДЕЙСТВИЯ ЧЕЛОВЕКА НА ОКРУЖАЮЩУЮ СРЕДУ. ТОШКЕНТ-2021, 18.
11. Усманова, Д. Т., & Алимова, Ф. А. ОЦЕНКА МОНОМЕРНЫХ ФРАГМЕНТОВ НИТРАТОВ ЦЕЛЛЮЛОЗЫ МЕТОДОМ ЯМР 13–СПЕКТРОСКОПИИ. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych.*, 191.
12. Oripova, K. (2020). The importance of tongue twisters.
13. Oripova, K. (2022). The prevalent problems are encountered by most students in learning English speaking.
14. Ubaydullayeva Durdonaxmonjon qizi. (2022). THE THEORY OF COMPOSITE SENTENCES AND COMPLEX SENTENCES IN MODERN LINGUISTICS. *Conferencea*, 171–173. Retrieved from <https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/1853>

CHANQOVUZ MUSIQA ASBOBI VA UNING TURLARI*Niyazbaeva Aynura Jamgirbaevna**Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti 3-kurs studenti***Ustozi: Gulmaryam Kamalova Maksetdullaevna**

Annotatsiya. Qadimda Evropa va O'rta Osiyoda musiqiy asboblarning paydo bo'lishi va hozirgi kunda yoshlarning musiqaga b'olgan qiziqishining ortishi bo'lib hisoblanadi. Yurtimizda qadim zamonlardan kelayotgan jahon va milliy musiqqa asboblarni o'rganib chiqish va ularni kelajak avlodga yetkazib berishdan iborat.

Kalit so'zlar: san'at, madaniyat, tarix, musiqqa asboblari turlari.

Abstract. The emergence of musical instruments in Europe and Central Asia in ancient times and the increasing interest in music among young people today. It is to study our world and national musical instruments, which have been in our country since ancient times, and to pass them on to the next generation.

Key words: art, culture, history, types of musical instruments.

Абстракт. Появление музыкальных инструментов в Европе и Средней Азии в древности и возрастающий интерес к музыке среди молодежи сегодня. В том, чтобы изучить наш мир и национальные музыкальные инструменты, которые были в нашей стране с древних времен, и передать их следующему поколению.

Ключевые слова: искусство, культура, история, виды музыкальных инструментов.

Chanqovuz – temirdan yasalgan puflab chalinadigan musiqiy asbob. Bu asbob Oltoy to'g'laridan boshlab Estoniya, Moldaviyaga qadar k'op xalqlarda mavjud. Chanqovuzni k'opincha temirchi ustalar yasagan. Miloddan avvalgi III asirlarda qadimgi nusqasi Mo'g'ulistonda Xiongnu xalqi o'rnida topilgan. Koloniya davrida XVI -XVII asirlarda Lotin va Shimoliy Amerikaning savdo markaziga kirib kelgan va tovar aylanmasida faol ishlatilgan. Chanqovuz ijrochisi asbobni lablari bilan qisib va chap q'oli bilan ushlab tishlariga yaqinlashtiradi. Til ong q'olning barmo'gi bilan tebratadi va tebranish paytida u tovush chiqaradi. Asbobta o'yin taronalari ijro etiladi. U yakka ijrochi va ansambl asbobi b'olib hisoblanadi.

Chanqovuz k'op xalqlarda mavjudligi bizga ma'lum, shu jumladan bu asbob har xil xalqlarda o'ziga xos nomga ega. Masalan: Rus xalqlarida "vargan", Yakutiyada "xomus", Ukraina, Moldova va Rim xalqlarida "drumba", Hind xalqida "morchang", Turkman xalqida "gopuz" Boshqurt va Tatar xalqida "kubiz", Estoniyada "parmuppil", Slavyanlarda "vargan" nomi bilan ataladi. Chanqovuz eng qadimgi va keng tarqalgan musiqqa asboblarning biri hisoblanadi. Amerikalik musiqashunos Frederik Kreyning fikriga k'ora, chanqovuz 5000 yil avval paydo b'olgan. Hozirgi vaqtda bu asbobning 162 dan ziyot turi mavjud. Chanqovuzlar tashqi k'orinishlari bilan farq qiladi. Shu jumladan ular odatda 2 katta guruhga b'olinadi. Ulardan biri mukkuri turidagi qatlamli asboblarni o'z ichiga oladi. Yana bitta guruhi aylana yoki kamonli chanqovuzlardan iborat. Har bir xalqning o'ziga xos asbobni yasash usullari b'olgan va ular tegishli shakl va

materialdan foydalangan. Ikkita umumiy bir xil chanqovuz asbobini topish mumkin emas. Lekin, tovush paydo etish prinsipi barcha turlar uchun umumiy bôlib qolgan. Bundan dental va labial arfalarga bôlinish paydo bôlgan. Til barmoqlar yordamida tebranish harakatiga keltiriladi. Yoğoch, suyak, hattoki qamish chanqovuzni yasash uchun material bôlishi mumkin. Shunga kôra, asboblarning tovush tamonidan sezilarli darajada farq qiladi.

Metall eng qulay material bôlib, u kôpchilik hunarmandlar tamonidan afzal kôrilgan. Metallning sifati tovushlar uyğunligining tãsirli va rang-barangligini kôrsatadi. Evropa professional musiqasida evrey arfasi XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida ishlatilgan. Avstriyalik kompozitor Iogann Albrechtsberger 1765-yilda chanqovuz va torli kamonli asboblarning uchun 7 konsert yozgan. Kompozitor tamonidan yozilgan konsertlar yuqori muvaffaqiyatga erishgan va hozirgi kungacha qadar salanib kelinmoqda.

Rus xalqida “vargan”. Qadimgi slavyan qabilalari orasida varganning birinchi topilgan qoldiqlari IX-X asrlarga toğri keladi. Buyuk Novgorodda olib borilgan arxeologik tadqiqotlarga kôra, XI-XV asrlarda varganning 11 turining qoldiqlari qadimda rus xalqlari yashagan hududlardan topilgan. Anton Kamenskiy tamonidan taklif etilgan jadval ma'lumotlariga kôra, topilgan qazilmalar o'sha davrdagi shahar markazi bôlib, unda kôplab millatlar istiqomat qilishgan, savdo-sotiq yaxshi rivojlangan, tovar va texnologiyalar almashuvi, ôzaro madaniy boyitish yôlga qôyilgan.



“Xomus” Yakutiya. Yaqutlar va dolganlar asosan xomusdan foydalanadi. Dolganlar uni vargan deb ataydi. Yakutiya uchun lichinka yoki suyakdan yasalgan qatlamli xomus ham bor. “Jahon xalqlari Xomus muzeyi” Yakutiya uchun joylashgan. Muzeyda xomusning paydo bo'lish tarixi, dunyoning turli davlatlaridagi evrey arfalari haqida hikoya etiladi. Xomus muzeyi 1990-yil 30-noyabrda tashkillashtirilgan. Muzey yaratuvchisi Ivan Egorovich Alekseev - filologiya fanlari doktori, M. K. Ammosova - Rossiya Tãbiy fanlar akademiyasi akademigi, Yakutiya Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xizmatkori sifatida nom qozongan.



Xomus kolleksiyasi-muzey fondining asosi bo'lib xizmat qilgan. Muzeida amerikalik professor Frederik Kreyn, Yakutiya Respublikasi xalq ustasi Gotovtsev Innokentiy Nikitich, Respublika hunarmandlari Bruntsev, Beskrovniylar óz faoliyatini yuritgan.

“Drymba” (Ukraina, Moldova, Rim). Drymba - Ukraina, Moldaviya va Ruminiya xalqlarida mashhur jaғ arfasi bólib hisoblanadi. Achinarlisi, jaғ arfasining aniq qaysi davrda paydo bólganligi haqidagi ma'lumotlar bizga qadar yetib kelmagan. G'arbiy Ukrainada drymba ayol kishi tamonidan chalinadigan yagona asbob bólib hisoblangan.

Vetnamda “Dan moi”. Dan moi (Vetnamcha, “dan” — asbob, “moi” — lablar) — Vetnam xalqlari musiqasida qóllaniladigan qatlamli arfa. Dan moi sózma-sóz " labdagi torli asbob"- deb tarjima qilingan, sababi bu tishlarga emas, balki lablarga birlashtirilib chalinadigan evrey arfalaridan biri bolib hisoblanadi. Frantciya milliy tadqiqot markazi professori Tran Quang Xai tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga kóra, dunyoda evrey arfalarining 50 ga yaqin turi bor bólib, ulardan 10 ni Vetnamda qóllanilgan. Dan moi 25 davlatlardan topilgan. Bu asboblardan eng mashhur turi standart plastinka “den mina” bólib hisoblanadi. Uning uzunligi 10 sm va óg'irligi taxminan 2, 5 gramm. Dan moi ijrochilarga tarona effektlarin yaratish uchun keng imkoniyatlarni taklif etadi.

Qirg'iz xalqida “temir komuz”. Temir komuz — qirg'izlarning eng qadimgi asboblarning biri, evrey arfasining bir turi. Uzunligi 5-7 santimetr bólgan taqa formasida, kengligi 5-2 santimetr bo'lgan tilining uzunligi 5-7 millimetrga chózilgan metall konstruktsiya bólib hisoblanadi. Temir, mis, bronza, kumush yoki oltin yasalgan. Taqaning órtasiga órnatilgan pólat plastinka til bólib xizmat ko'rsatgan. Ijrochi óg'izning formasin ózgartirib, tovushlar uygunligini nafas orqali chiqaradi. Qadim zamonda qirg'iz xalqida asbob faqat erkaklar tamonidan chalingan, hozirgi kunda bólsa bu asbob xotin-qizlar tamonidan chalinib kelmoqda.

Ózbek xalqida “chanqovuz” asbobi. Chanqovuz asbobi qadimiy asboblarning biri bo'lib hisoblanadi. U ijrochining belgili balandlikdagi barqaror bitta ovoz va o'sha ovoz obertonlaridan og'iz artikulyatsiyasi yordamida maxsus ovozlari chiqariladi. Ovozning baland yoki pastligi og'iz bo'shlig'ining katta yoki kichik ochilishiga aloqador bo'lib hisoblanadi. Qadim zamonlarda o'zbek xalqida dastlab chanqovuzlar suyakdan, keyin bo'lsa metaldan yasalgan bo'lib, asosan

xotin-qizlar tamonidan chalingan. Hozir Ozbekstonda asosan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand va Buxoro viloyatlarida metaldan yasalgan chanqovuzlar keng tarqalgan.



Qoraqalpoq xalqida chanqovuz asobi. Chimboy tamonda istiqomat qiladigan qoraqalpoqlarda Ariwxan ismli hunarli qiz b'olgan ekan. U naqsh to'qir ekan. Bir kuni kech b'olganda naqsh to'qib, charchap, bir nimalarni hayol surib o'tirganida, picho'gi yerga tushib ketibdi. K'op yillardan buyon foydalangan p'olat picho'gining dasta(sop)si tushib qolgan. Pastka tushayotgan vaqtda ipka tegib ketib "ding"etib, yoqimli ovoz eshitiladi.



Qiz darrov picho'gini olib, qiziqib qaraydi. Qarasa pichoqning dasta tarafi ingichka va qiyiqdek yupqa ekan. Barmo'gi bilan biroz qayishtirib, o'z holiga yuborib qolsa, undan jaranglab ovoz chiqqan. Charchab o'tirgan qiz yoqimli ovoz chiqqaniga hayratlanib, har xil uslubda chalib ovora b'olib o'tiradi. Oxirida uning ostiga kalit q'oyib, labiga olib boradi, gorizontol holatta tutib, ikki tishining orasin pichoqning qirrasiga ochib, pichoqning ingichka dastasin o'gzining ichki tomoniga qarata chertib qarasa, p'olat uchining ovozi avvalgidan yaxshiroq va ochiqroq b'ola boshlabdi. Hattoki bir tarona paydo b'olgandek b'oladi. U p'olatdagi bunday xususiyatni sezib, Chimboyning q'oli gul temirchilaridan hisoblangan Shamurat ismli ustaga olib boradi. Ariwxan borib, Shamurat ustaga b'olgan voqeani birma-bir bayon etadi.

Zehinli va q'oli gul usta masalani tushunib, qizning aytganlarini amalga oshirishga harakat qiladi. Natijada, Shamurat usta bir asbobni yasagan. Uning nomini chanqovuz deb atagan. Qizning shanqovuzining tili picho'gining dasta tarafi

pichoq bólib qolgan. Sababi,u naxsh tóqib ótirganda pichoq bilan ip kesgan. Zerikkanida dam olib, pichoqning dasta tarafidagi shanqovuzni chaladigan bólgan."Bir qiz shunday qovuz yasatipti" degan xabarni shu zamondagi tóy-hashamlarda, yangi kózga tushgan qońgirotli Turımbet qizi Ziybagúl ismli xush-ovoz qiz eshitib kelib,Arıwxannig chertib ótirganiga qarab hayron bólipti. Ziybagúl Shamurat ustaga borib: - "naqsh tóquvchi qizning qovuziga óxshagan qovuz yasab ber, haqqingni beraman, lekin qovuz pichoqsiz bólsin,-deb yonida ótirib olibdi. Shamurat usta:-hozir bandman. Ertaga kel,-desa ham, Ziybagúlning ózi chanqovuzga shunday ishqiboz bólgani uchun ustaning yonidan ketmagan.

Uzun bóyli, gózal qiz ustaga yolvorib sóraydi. Shamurat usta:-Ha mayli, bir ishing tushib kelipsan, yasab beraman, lekin kórikni ózing yopasan,-dedi. -Qiz bolaning qiladigan ishi emas edi-ku,u qanday bólar ekan?-debdi Ziybagúl. Usta Shamuratning ózi ham bu ishga Ziybagúlni loyiq kórmay ótirgan edi. -Senga bu ishni qildirmas edim, kórik yopadigan shogirdimni bir joyga yuborgan edim,-deydi.Ishim tezroq bitsin,-dep Ziybagúl bunga rozi bólibdi. Nima qilsin axir, shanqovuzga ishqı ketgan. Axiyri chanqovuzni ózi aytganday qilib yasatib oldi. Chanqovuzning nomini chiqargan, uni asbob sifatida musiqiy asboblar qatoriga qóshgan, ósha qóli gúl Arıwxan bilan Qońgirotli qiz Ziybagúl ekan. Demak, chanqovuz kópchilik xalqlarda óz nomiga ega. Chanqovuzlarning ijro etish usulida bir-biridan farqi yuqori darajada va bu asbobni ushlash (pastanovka) ham bir xil emas. Masalan:Yakutiya xalqida asbobni ushlashi boshqa xalqlar asboblariga qaraganda boshqacha yàniy ular óng qólining texnikasi kuchliligi bilan ajraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. " Xalıq danalǵı". No`kis: Qaraqalpaqstan, 1988. Ayimbetov Q.
2. "Qaraqalpaq ádebiyatı tariyxı" Nókis."Qaraqalpaqstan" 1983. N.Japaqov, Q.Mámбетov, Q.Sultanov, A.Kárimov.
3. "Qaraqalpaqsha kórkem-óner atamalarınıń sózligi" Nókis, "Bilim",1991. Allamuratov.A, Dospanov.O, Tilewmuratov.G.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI AQLIY RIVOJLANTIRISH

Maxkambayeva Shaxrizoda Xusan qizi

JDPU, Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til yo'nalishi 541-19 guruh talabasi

Binoqulova Dilnora Sirojiddin qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til yo'nalishi 543-22 guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tizida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni aqliy rivojlantirish usullari, muammo va yechimlar haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: idrok, aql, ong, tafakkur, iodkorlik, diqqat, zakovat, mental, xususiyat, fikr, kamolot, didaktik o'yinlar.

Абстрактный. В данной статье описаны методы, проблемы и решения психического развития детей дошкольного возраста в системе дошкольного образования.

Ключевые слова: восприятие, разум, сознание, мышление, творчество, внимание, интеллект, психическое, особенность, мысль, зрелость, дидактические игры.

Abstract. This article describes the methods, problems and solutions of mental development of children of preschool age in the preschool education system.

Key words: perception, mind, consciousness, thinking, creativity, attention, intelligence, mental, feature, thought, maturity, didactic games.

Maktabgacha ta'lim muassasasi uzluksiz ta'limning birinchi qadami bo'libgina qolmay, balki faol, ijodkor va ma'naviy jihatdan boy shaxsni shakllantiruvchi ilk pog'ona hamdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori bunga dalildir.

Hayotning har bir davri rivojlanish xususiyatlari va ehtiyojlariga ko'ra, o'ziga xos bosqichlarga ega. Bolaning o'sib ulg'ayishida maktabgacha bo'lgan davrni shular sirasiga kiritish mumkin. «Bolajon» tayanch dasturida, «Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, shu bilan birga maktabga tayyorlangan holatda shakllantirish maqsadini qo'Haydi», deyilgan. Buning uchun esa aqliy qobiliyatni rivojlantirish, aqliy mehnat qilish madaniyatini o'rgatish zarur.

Aqliy tarbiyasi yetuk, o'tkir zehni, zukko va zakovatli insonlarni xalqimiz donishmand kishilar deb ataydilar. Donishmandlik, bu — donolik. Donolik insonning eng buyuk va oliyjanob fazilatidir.

Donolik shunday bir noyob ne'matdirki, u har kimga ham nasib etavermaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, xalqimizda «Aql toji oltindan, oltin har kimda ham bo'lmas», deyiladi.

Aql — keng ma'noda sezish va idrok etishdan boshlanib, tafakkur va hayotni o'z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig'indisidir.

Aqliy faoliyat diqqatning har doim ma'lum maqsadga qaratilgan bo'lishini talab etadi. Kishining aqli uning asosiy faoliyatida erishgan muvaffaqiyati xususiyati bilan bog'lanadi.

Insoniyat paydo bo'lgandan beri odamlar orasida yetishib chiqqan barcha olim-u fozillar, shoir-u yozuvchilarning barchasi mukammal ilm egallash orqali o'z davrining e'tiborli kishilari darajasiga ko'tarilganlar. Sharq allomalaridan Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Koshg'ariy, Alisher Navoiy va boshqalar mukammal ilm egallash orqali fanning turli sohalarida buyuk kashfiyotlar yaratganlar.



O'z davrining yirik ma'rifatchilaridan hisoblangan Abdulla Avloniy ham yoshlarni ilmi bo'lishga chaqirgan. U aql va ilmni ulug'lab: «Aql insonning piri komili, murshidi yagonasidir. Ruh ishlovchi, aql boshlovchidir», deb yozgan edi. U o'z fikrini aniqroq va ravshanroq anglatish uchun shunday deb yozgan: «Hayvonlar o'zlariga bo'laklar tarafdin qiladurg'on zulm va jabrlarni shox, tish, tirnoqlari ila qaytarurlar. Lekin inson aql-idroki soyasida o'ziga keladurg'on zarar va zulmlardan saqlanur. Yer yuzidagi hayvonlarni asir qilib, bo'ynidan bog'lab iplari uchini qo'llariga bergan insonlarning aqlidir».

Abu Ali ibn Sino aqlning rivojlanish bosqichlarini ishlab chiqqan. Mushohada bilan idrok etishning birinchi bosqichi aqliy kategoriyalami tushuntirishdir. Ikkinchi bosqichga ikki xil fikmi idrok etish, uchinchi bosqichga o'zlashtirilgan bilim, fikrlarni idrok etish bilan erishiladi. Shunda u haqiqiy aql deyiladi.

Olim aqlni uch bosqichga bo'lar ekan, birinchi bosqichda yodlay oladigan, lekin hali harflarni ham, yozishni ham bilmaydigan bolalarni nazarda tutgan. Ikkinchi bosqichda tayoqchalarni chiza boshlagan, qalamdan foydalanishni

o'rganayotgan bolalarning aqli, uchinchi bosqichda aqliy shakllarni va ularga muvofiq hissiy obrazlarni egallagan inson tasvirlanadi.

Ibn Sino aql deganda insonning tug'ma iste'dodini, bilish jarayonida shakllanadigan fikrlash qobiliyatini tushunadi. Aqlni ikki kategoriyaga bo'ladi:

1. Nazariy aql — borliqdagi umumiy narsalami idrok etish.
2. Amaliy aql — buyumlarni tanlashda turtki sifatida ko'rinadigan qobiliyatlar.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim berish g'oyasi birinchi bo'lib chex pedagogi Yan Amos Kamenskiy tomonidan ilgari surilgan. U ona rahbarligida 6 yoshgacha bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish mumkinligini ko'rsatib berdi. Shu davrda bola yoshini e'tiborga olgan holda kishi o'rganishi lozim bo'lgan hamma narsaga o'rganishi lozim, deydi. Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarga, ya'ni biz ta'lim-tarbiya beradigan bolalarga har tomonlama bilim, ko'nikma va malakalarni singdirishimiz mumkin ekan. U 19 bo'limdan iborat maktabgacha ta'lim dasturini tuzdi.

Y.A. Kamenskiy «Onalar maktabi» kitobida kichik bolalarning ta'lim tarbiyasiga, o'qish metodikasiga katta e'tibor bergan. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalash, bu bolani faol fikrlash faoliyatini rivojlantirishga kattalaming ma'lum maqsad bilan ta'sir etishidir. U bolalarga tevarak-atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni sistemalashtirishni, bolalarda bilishga qiziqish uyg'otishni, aqliy malaka ko'nikmalarini tarkib toptirishni, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Bolalarni 6—7 yoshdan boshlab maktabda o'qishga o'tishi munosabati bilan ularni maktab ta'limiga tayyorlash uchun aqliy rivojlanish yetarli darajada bo'lishini ta'minlash tarbiyachilarning javobgarligini yanada oshiradi.

Aqliy kamolot, bu — yoshning o'sib, tajribaning boyib borishi oqibatida tarbiyaviy ishlar ta'sirida bolaning aqliy faoliyatida ro'y beradigan miqdor va sifat o'zgarishlarining majmuasidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim tez sur'atlar bilan boyib boradi, nutq shakllanadi, bilish jarayonlari takomillashadi. Xullas, bola eng oddiy aqliy faoliyat usullarini egallab boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishini ta'minlash ularning kelajakdagi butun faoliyati uchun katta ahamiyatga ega. Bola ijtimoiy muhit ta'sirida aqliy tomondan rivojlanib boradi. Atrofdagi kishilar bilan muomala qilish jarayonida u tilni va u bilan tarkib topgan tushunchalar sistemasini o'zlashtiradi. Natijada maktabgacha tarbiya yoshidagi bola tilni shunchalik egallab oladiki, undan muomala vositasi sifatida erkin foydalanadigan bo'lib qoladi.

Aqliy rivojlanish fikrning kengligida, voqealarning har xil bog'lanishlarida, munosabatlarda, ko'ra bilish, umumiylashtirish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi dastlab muomalada bo'lish, narsalar bilan bajariladigan faoliyat natijasida, keyin esa o'qish, mehnat, samarali faoliyatlar jarayonida (rasm chizish, loydan shakllar yasash) amalga oshirib boriladi.

Hozirgi zamon pedagogika fanida bilimlar sistemasini o'zlashtirib olish, ularni jang'arish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish hamda yangi bilimlar hosil qilish

uchun zarur bo'lgan bilish faoliyati usullarini egallab olish aqliy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar va aqliy tarbiya berishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ✓ Bolalarda tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlar sistemasini ilmiy dunyoqarashini shakllantirish.
- ✓ Bilishga doir ruhiy jarayonni rivojlantirish.
- ✓ Bilishga qiziqish va aqliy qobiliyati, aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish.
- ✓ Aqliy malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish.
- ✓ Bilishga doir ruhiy jarayon — sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, nutqni rivojlantirish aqliy tarbiyaning muhim vazifasidir.
- ✓ Tevarak-atrofni bilish sezish va idrok etishdan boshlanadi.

Ularning rivojlanganlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, borliqni bilib olish imkoniyati shunchalik ko'p bo'ladi. Shuning uchun uni bog'cha yoshidan boshlab rivojlantirib borish zarur. Bilishga qiziqish va aqliy qobiliyatni, aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish. Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini, ularning sinchkovligini rivojlantirish va shular asosida bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat.

Aqliy tarbiyaning vazifasi uning mazmuni, metodi va tashkil etilishiga qarab belgilanadi. Pedagogika fani aqliy tarbiya berish vazifalarini samarali hal etishda bolaning imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish, bola organizmining umumiy charchashiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan ortiqcha yuk bo'lmasligi yo'llarini topish uchun maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi qonunlari va imkoniyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi.

Keyingi yillarda olib borilgan psixologik-pedagogik tadqiqotlarning natijalari maktabgacha tarbiya yoshi davrida bolalarning aqliy rivojlanishida juda katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Bulami hisobga olgan holda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga beriladigan bilim, malaka va ko'nikmalarni yanada chuqurlashtirish, hajmini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Maktabgacha tarbiya yoshining oxiriga kelib bolalar tevarakatrof to'g'risida kattagina hajmdagi eng oddiy bilim va tushunchalarga ega bo'lib qoladilar, asosiy fikrlash jarayonini egallab oladilar, narsa va buyumlardagi, voqealardagi muhim va muhim bo'lmagan tomonlarni ajrata oladigan bo'ladi qoladilar. Ularda o'quv faoliyatining dastlabki ko'rsatkichlari shakllanadi.

Maktabgacha tarbiya yoshining dastlabki bosqichlarida bolalarda tasavur ta'limi bo'ladi. Hayotiy tajribaning ortib borishi va tafakkurning rivojlanishi bilan ijodiy xayol tarkib topadi. Kichik maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun ko'rgazmali-harakatli, ko'rgazmali-obrazli tafakkur xosdir. Buning asosida so'z, mantiqiy tafakkur, tushunchali tafakkur rivojlantiriladi. Tarbiyachi bolalarda tafakkur faoliyatini tarkib toptirishi, bu hodisalarni, voqealarni chuqur anglab olish, ularning muhim bo'lgan va muhim bo'lmagan tomonlarini ajratishga o'rgatishi lozim.

Qiziquvchanlik bolaga xos xususiyatdir. U bolaning tevarakatrofdagi voqea-hodisalarga, narsa va buyumlarga qiziqish bilan qarashida, hamma narsani ushlab,

his qilib, diqqat bilan kuzatishida namoyon bo'ladi. Tarbiyachi kuzatishlar tashkil etib, bolalarda paydo bo'lgan savollarga o'z vaqtida javob berishga harakat qiladi, ularni mustaqil javob qidirishga yo'llab, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda qiziquvchanlikning susayishiga yo'l qo'ymaydi.

Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini, ularning sinchkovligini rivojlantirish va shular asosida bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat. Bolalar bog'chasi oldida bolalarning aqliy qobiliyatini rivojlantirish vazifasi turibdi. Qobiliyatlar tegishli faoliyat jarayonida namoyon bo'ladi va rivojlanadi. Inson ziyraklik, fahm-farosatlilik, tanqidiy ko'z bilan qarash, sermulohazalik kabi sifatlari bilan ajralib turishi mumkin. Aqliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, ya'ni eng oddiy faoliyat usullari, predmetlarni tekshirish, ulardagi muhim va muhim bo'lmagan belgilarni ajratib ko'rsatish, boshqa predmetlar bilan taqqoslash va hokazolarni tarkib toptirish maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalaridandir.

Bu ko'nikma va malakalar bilish faoliyatining tarkibiy qismlari bo'lib, bolaga bilimlarni muvaffaqiyatli egallab olishga yordam beradi. Masalan, o'simliklar va hayvonlar bilan tanishtirish bo'yicha sistemali mashg'ulotlar olib borilgandan keyin bolalar ayrim o'simliklar yoki hayvonlar to'g'risida ma'lum bir tasawurga ega bo'ladilar.

So'ngra bolalardagi aqliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish maqsadida tarbiyachi bolalar bilan quyidagi mashg'ulotlarni o'tkazishni rejalashtirishi mumkin: «Paxta o'simligini momaqaymoq o'simligi bilan taqqoslash», «Qafasdagi ikki xil qushni bir-biriga taqqoslash» didaktik o'yini va sh.k. Eng muhimi shundaki, bolalarga bilim beribgina qolmasdan, ularni olgan bilimlaridan aqliy va amaliy vazifalarni hal etishda foydalanishga o'rgatish zarur.

Ilk va bog'cha yoshi davrida bolalarda tevarak-atrofga bo'lgan qiziqish juda tez o'sadi. Qiziqish bolaning aqliy rivojlanishini harakatga keltiruvchi qudratli kuchdir. Kattalar bolaning qiziquvchanligini, bilishga bo'lgan har qanday xohishini sezishlari va rag'batlantirib borishlari kerak.

Ta'lim maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning bilish qobiliyatlarini muntazam-rejali ravishda rivojlantirib borish, bolalar bog'chasi tarbiya dasturida belgilangan eng oddiy bilimlar sistemasi bilan qurollantirish, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berishda ta'lim yetakchi rol o'ynaydi. Chunki, ta'lim jarayonida aqliy tarbiyaga doir hamma masalalar hal etiladi. Ta'lim bolalarga izchillik bilan bilim berishni, bu bilimlarni aniqlash va sistemalashtirishni, bilish jarayonlarini, tafakkur faolligini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ta'lim kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik va aqlning sinchkovlik, ziyraklik, tanqidiylik kabi sifatlarini rivojlantirishga yordam beradi. U jismoniy, estetik va mehnat tarbiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ham zarurdir. Bog'chada bolalarga ma'daniy gigiyenik ko'nikmalar, asosiy harakatlar o'rgatiladi, ular madaniy- axloqiy qoidalarni o'zlashtirib oladilar.

Bolalarda o'quv faoliyatlari asoslari ta'lim jarayonida hosil qilinadi, ularning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratiladi. Ta'limni ikki yo'l bilan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

- ✓ Birinchi yo‘li — bolalarning bilim, malaka, ko‘nikmalarni kattalar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishi orqali egallab borishidir.
- ✓ Ikkinchi yo‘li — maxsus tayyorgarligi bor kishilarning maxsus o‘quv muassasalarida bolalarni kerakli bilim, malaka, ko‘nikmalardan rejali ravishda xabardor qilib borishidir.



Bunday yo‘l bilan ta‘lim berishdan maqsad yosh avlodni zamonaviy ishlab chiqarishda, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida faol qatnashtirish uchun zarur bo‘lgan fan yutuqlari bilan tanishtirishdir.

O‘yin metodi bolalarning ixtiyoriy diqqatlarini oshiradi, bola irodasini, ijodiy fikrini rivojlantiradi. Bola ijodiy o‘yinda aqliy jihatdan tarbiyalanadi va rivojlanadi. Kichkintoylar o‘ynaydigan sujetli o‘yinlarning asosiy mazmuni — buyumlar bilan bajariladigan xilma-xil harakatlarni tasvirlashdir. Bunday o‘yinlar jarayonida bolalar buyumlardan foydalanish, ular bilan amallar bajarishning ijtimoiy mustahkamlangan usullarini o‘zlashtirib oladilar.

Bunda harakatlarni umumlashtirish va bolaning ongida ularni aniq bir buyumdan ajratish jarayoni ro‘y beradi. Bolaning rivojlanishiga qarab, ularning ijodiy o‘yinlari tobora rejali xususiyat kasb etadi: bolalar o‘yinning mazmuni haqida, o‘yinchoqlardan foydalanish va h.k.lar to‘g‘risida kelishib oladilar.

Shu yo‘l bilan o‘yin davomida bolaning rivojlanishi uchun muhim bo‘lgan tafakkurning rejalashtiruvchi vazifasi tarkib topadi. Bolaning aqliy tarbiyasida ijodiy o‘yinlar bilan bir qatorda didaktik o‘yinlar ham katta o‘rin egallaydi. Bunday o‘yinlar tayyor mazmunga va aniq qoidalarga ega. Juda ko‘p xalq o‘yinlari avloddan avlodga o‘tib kelmoqda. Pedagoglar tomonidan ham ko‘pgina o‘yinlar ishlab chiqilgan. Didaktik o‘yinlar deb nomlanishining o‘zi ham bu o‘yinlarning

maqsadi bolalarni aqliy rivojlantirishdan iboratligini bildiradi. Binobarin, ular aqliy tarbiya vositasi, deb qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., « O 'zbekiston», 1992.
2. I.A. Karimov. Istiqlol va ma'naviyat. T., « O 'zbekiston», 1995.
3. I.A. Karimov. Yuksak malakali mutaxassislar — taraqqiyot omili. T., « O 'zbekiston», 1995.
4. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi». O'., «Sharq», 1997.
5. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. O'., «O'zbekiston», 1997.
6. U. Tolipov, M. Usmonboyeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T., «Fan», 2005.
7. Sh. Shodmonova. Maktabgacha pedagogika. T., «Fan va texnologiyalar», 2005.
8. Pedagogika fanidan izohli lug'at. (Tuzuvchilar: J. Hasanboyev, X. To'raqulov, O. Hasanboyeva, N. Usmonov). T., «Fan va texnologiyalar», 2009.
9. «Barkamol avlod yili» davlat dasturi. T., « O 'zbekiston», 2010.
10. Oilada barkamol avlod tarbiyasi. (O. Hasanboyeva tahriri ostida). T., «Fan va texnologiyalar», 2010.
11. O. Hasanboyeva. Barkamol avlod ma'naviyati. T., «O'zbekiston», 2010.
12. A. Holiqov. Pedagogik mahorat. T., «Iqtisod — Moliya», 2010.
13. [hnp://www.detskiysad.ru/ped](http://www.detskiysad.ru/ped).
14. [hnp://www.detskiysad.ru/ped/dp.064](http://www.detskiysad.ru/ped/dp.064). himl.

**FEATURES OF THE TRANSMISSION OF ENGLISH DISCURSIVE
MARKERS INTO RUSSIAN***Odilova Sitora Umid qizi**Uzbekistan State University of World Languages**Master degree of the Department of Comparative Linguistics*

Annotation. The article discusses different cases of the translation of words. Being special discourse markers, words as vocatives reflect cultural codes and characteristics of the national communicative style. The connection between speech etiquette and the «coded» language of social interaction is shown. It gives the detailed review of translatability' parameters concerning the Russian-language lexical chains. These chains are viewed as nationally, culturally and ideologically significant elements reflecting the codes of a definite time.

Key words: text; discourse; discourse markers; transformation; relation; translation.

Аннотация. В статье рассматриваются разные случаи перевода слов. Являясь особыми дискурсивными маркерами, слова как падежи отражают культурные коды и особенности национального коммуникативного стиля. Показана связь речевого этикета с «закодированным» языком социального взаимодействия. Дается подробный обзор параметров переводимости русскоязычных лексических цепочек. Эти цепочки рассматриваются как национально, культурно и идеологически значимые элементы, отражающие коды определенного времени.

Ключевые слова: текст; речь; речевые знаки; трансформация; отношение; перевод.

Annotatsiya. Maqolada so'zlarni tarjima qilishning turli holatlari ko'rib chiqiladi. So'zlar maxsus diskursiv belgilar bo'lib, vokativ sifatida milliy kommunikativ uslubning madaniy kodlari va xususiyatlarini aks ettiradi. Nutq o'zining ijtimoiy o'zaro ta'sirining "kodlangan" tili bilan aloqasi ko'rsatilgan. Rus tilidagi leksik zanjirlarning tarjima qilish parametrlarini batafsil ko'rib chiqish. Bu zanjirlar ma'lum bir davr kodlarini aks ettiruvchi milliy, madaniy va mafkuraviy ahamiyatga ega elementlar sifatida qaraladi.

Kalit so'zlar: matn; nutq; nutq belgilari; transformatsiya; munosabat; tarjima.

Since the early days of independence, Uzbekistan has been gradually conducting the policy of reforming the sphere of education as a key link of the ongoing course of reforms and renewal of society, as the necessary and mandatory condition for democratic transformations in society, consistent development of economy, and the country's integration into the world community.

Today, in the Republic of Uzbekistan great attention is given to the radical reorganization of the educational system that will give an opportunity to raise it to the level of modern standards.

After the Presidential Decree "On measures to further improve of foreign language learning system" (PD-18/75, 2012) a lot of projects have been done as an implementation of this important document. [1] We can mention that from 2013/2014 academic year teaching of foreign languages, mainly English, started

from the first grade of the primary school in the form of games and informal conversation lessons.

On the occasion of the 30 th anniversary of the adoption of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, the president of Uzbekistan noted that the population of our country follow our sacred traditions and rich cultural rites. They dedicate their all strength and possible chances to the upcoming generation, especially, girls to help them to possess modern and updated knowledge, to be brought up with the best and excellent providing of healthy and wealthy life.

For the welfare of new generation's bright future, all the actions will be continuing on the basis of our new law 'On state politics on the youth' soon in the future. [2] [27]

The President of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev signed a resolution №29/09 "On measures on further developing system of higher education" on 20 April 2017. The resolution was adopted in order to improve system of higher education and review system of cadres.[3]

The resolution said that the working group studied the system of higher education and revealed several problems. It is said that several higher education institutions do not meet modern requirements on scientific-pedagogic potential, educational-methodical and information support of education system, etcetera.

The higher education system should introduce advanced international experience to education process, improve skills of teachers and scholars via establishing close relations with leading foreign educational and scientific institutions.

The Presidential Decree № 53/13 "On measures to radically improve the system of general secondary, secondary specialized and vocational education" on January 25 2018 has been the next step "to establish coordination of the activities of professional colleges on the fundamental improvement of the quality of the training of specialists, in demand by the branches and spheres of the economy, taking into account the real needs for personnel and proposals of employers". [4] [28] This future establishment can work in favor of new high-qualified cadres and their future followers.

Translation studies, which was formed as a scientific discipline in the middle of the XX century, due to the emergence of new objects of translation, is constantly expanding the scope of its interests. Localization and adaptation of multi-semiotic video verbal texts, which include animated films, have also become an object of study for both theorists and translation practitioners.

This study belongs to a series of scientific papers that address the problems of intercultural adaptation of the medial text, considered by the example of localization and translation adaptation to English (its American and British (European) variants) of the Russian animated series "Smeshariki". The paper considers the concepts necessary for this study: the linguistic picture of the world, the cultural picture of the world, the elements of which are implemented in this animated series, the problems of localization and adaptation of intertext (verbal, iconic and auditory) as components of the language picture, the problems of translating the titles of the series of an animated series, as well as lexico-semantic,

grammatical, structural problems are analyzed, stylistic and gender features of the characters' speech in the original texts and the problems of their translations into British and American versions of English.

Аннотация. Сатира и юмор в настоящее время являются неотъемлемой частью политической жизни общества, своего рода проявлением демократизации. Сатира и юмор относятся к использованию различных языковых средств, направленных на создание юмористических, комических эффектов. Эти особенности отмечены в данной статье.

Ключевые слова: сатира, юмор, политический дискурс, флирт, политика.

Annotatsiya. Satira va yumor hozirda siyosiy hayotning, jamiyatning ajralmas qismi, demokratlashtirishning o'ziga xos ko'rinishidir. Satira va hazil deganda kulgili, kulgili effektlar yaratishga qaratilgan turli lingvistik vositalardan foydalanish tushuniladi. Ushbu xususiyatlar ushbu maqolada ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Satira, yumor, siyosiy nutq, piching, siyosat

Modern political discourse is complex and diverse, subject to constant change. On the one hand, it affects consciousness and mood of society imposes certain points of view and forms a picture of the world. On the other hand, the increasing prevalence gets a tendency for politicians to "flirt" with the audience, their language it becomes unnecessarily reduced.

As we have noted earlier, many political speeches and debates are increasingly losing their formality and taking on the appearance of a show, often full of jokes. Many politicians deliberately "amuse" and shock the audience.

Even K. Hudson emphasized that the peculiarity of the language of politics is not so much in what is said, but in how it is said [2, p. 133]. At connection with this, we believe that, although the concepts of comic and political seem, at first glance, to be of different orders, the comic plays in political discourse an important role.

Due to the transparency of the boundaries of political discourse, often there is a genre interpenetration between the types of discourse. A feature of the comic in the political discourse of the late XX century is that it is realized largely indirectly in mass media discourse. This, in particular, also applies to such prototype's genres of political discourse as political speech, parliamentary debates, political interviews.

Particular interest to our study will be satire and humor with point of view of political emphasis as a component of political discourse. Political humor is a means of communication both within the government itself, and power with the people, as well as within the people about power [1, p. 147]. The presence of discursive humorous practices in political speech much deeper and more

significant than it might seem, and at their core a wide range of rational and irrational factors. humor in politics exists in two settings, on behalf of the politician and on behalf of the people about power.

Political humor that comes from people involved in the struggle for power, is meaningful and can be used to improving communication links with partners, opponents and people. And in another case, it becomes a spontaneous, unconscious phenomenon. Such a phenomenon can be observed if the politician has an unconscious desire to get around the current problem, in the absence of mutual understanding, change of connotations, etc. [4]

A deliberate joke or humorous statement may to act as a means of overcoming communication difficulties, to occupy neutral position, smooth out contradictions [3, p. 24].

Satire and humor in a political setting can arise from the following needs - as we noted earlier, a way out of a conflict situation, but also in cases where it is necessary to display a tough principled position in defending interests.

Conscious humor plays an important role in political discourse when creating the image of a politician. It is clear to everyone that cheerful, smiling, a politician is a charming and endearing person who able to create a mood of openness and willingness to compromise. As an example, suffice it to recall the President of the United States, Barack Obama. However, in such a case, it is very important to observe the measure, because the people do not want to see a frivolous, frivolous person in power.

Satire and humor as mean of influencing the ratings of politicians can also be conscious and unconscious. To unconscious humor in we will attribute to politics: excessive lexical or semantic congestion, in which funny connotations may arise; or on the contrary, insufficient vocabulary, as well as humor in political rhetoric, or in other words political "blunders", "pearls".

An example of this is the so-called "Bushism", belonging to George Bush Jr. himself. The most characteristic features of "Bushisms" are - tautology, occasionalism, grammatical and lexical inconsistencies, reservations, cynicism, etc., in detail, we will try to consider this phenomenon in a practical chapter. Similar to American "Bushism", in domestic practice they distinguish - "Putinisms", "Chernomyrdinkas".

To create satire and humor in political discourse can be used such linguistic means of expressing satire and humor as – linguistic game or pun, zeugma, irony, chiasm and occasionalism, etc. Most typical types of humor in politics are anecdote, sarcasm and irony, jokes, as well as speech errors that create a comic effect.

So, satire and humor are integral parts of the political process and social life of society, a modern and peculiar manifestation of democratization.

Despite the frequency of use of satire and humor in political communications, the topic of humor seems to be insufficiently studied: to date, no methodology has been developed for the use of satire and humor, which would allow predictable impact on the public consciousness. However, the influence of satire and humor on behavior cannot be denied public.

The list of used literature

1. Chudinov A.P. Political linguistics: textbook. allowance / A.P. Chudinov. - M.: Flinta : Nauka, 2006. - 254 p.
2. Hudson K. The language of modern politics / K. Hudson – L.: Macmillan, 1987. – P. 165
3. Lyubimova, T. D. Comic, its types and knowledge / T. D. Lyubimov. - M.: Nauka, 1990. - 32 p.
4. Siegmann J. W. The structure of modern political discourse: speech genres and speech strategies / J. V. Siegmann. - M.: 2003. - 239 p.

HARBIY XIZMATCHILARDA LIDERLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK O'ZIGA XOSLIGI MUAMMOSINING TADQIQ ETILISHI

Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha) magistratura mutaxassisligi
II bosqich talabasi*

Annotatsiya. Ayni paytda Qurolli Kuchlar tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, kontrakt tizimiga o'tish, qurol-yarog' va texnikadan jangovar foydalanish shaxsiy tarkib samaradorligini oshirishga alohida talablar qo'yimoqda, shuning uchun armiya innovatsion fikrlashga qodir, tashkilotchilik va qo'mondonlik qobiliyatiga ega bo'lgan yetakchilarga juda muhtoj. Bo'lajak ofitserlarda mutaxassislariga xos bo'lgan, ularning tinchlik va urush davridagi xizmat faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda liderlik fazilatlarini shakllantirishni talab qiladi. Maqolada buguni globallashtirish davrida harbiy xizmatchilarda liderlik sifatleri shakllanishining psixologik o'ziga xosligi muammosini tadqiq etishga doir turli olimlarning qarashlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: liderlik, harbiy bilim yurtlari, fenomen, faoliyat, ijtimoiy munosabatlar, shaxs, harbiy psixologiya, boshqaruv psixologiyasi.

Аннотация. В настоящее время проводимые в системе Вооруженных Сил реформы, в частности, переход на контрактную систему, боевое применение вооружения и техники, предъявляют особые требования к повышению эффективности личного состава, поэтому армия остро нуждается в лидерах, способных к новаторскому мышлению, организации и командованию. Он требует формирования у будущих офицеров лидерских качеств, свойственных специалистам, исходя из специфики их служебной деятельности в мирное и военное время. В статье анализируются взгляды различных ученых на исследование проблемы психологического своеобразия формирования лидерских качеств у военнослужащих сегодня в эпоху глобализации.

Ключевые слова: лидерство, военно-учебные заведения, феномен, деятельность, общественные отношения, личность, военная психология, психология управления.

Abstract. Currently, the reforms being carried out in the Armed Forces system, in particular, the transition to the contract system, the combat use of weapons and equipment, place special demands on improving the effectiveness of personnel, so the army is in great need of leaders who are able to think innovatively, have organizational and command skills. It requires the formation of leadership qualities in future officers, which are characteristic of specialists, based on the specific characteristics of their service activities in peacetime and wartime. The article analyzes the views of various scientists on researching the problem of the psychological uniqueness of the formation of leadership qualities in military personnel today in the era of globalization.

Key words: leadership, military schools, phenomenon, activity, social relations, personality, military psychology, management psychology.

Harbiy universitetning har bir bitiruvchisi harbiy jamoaning rasmiy liderlik roliga potentsial tayyor. Kursantlar jamoasidagi liderlik hodisasini qonuniy ravishda, bir tomondan, ijtimoiy muhitning xususiyatlari bilan, ikkinchi tomondan, individual xususiyatlar bilan shartlangan ijtimoiy-psixologik hodisa deb hisoblash mumkin.

Liderlik muammosi inson hayoti va faoliyatining ko‘plab sohalari uchun asosiy muammodir: biznes, siyosat, sport, harbiy xizmat va boshqalar. Bu muammo inson munosabatlari tarixida ildiz otgan. Butun insoniyat tarixida, shu jumladan oldingi davrda, liderlarning ajralib turadigan munosabatlar ierarxiyasi mavjud edi. Qadimgi davlatlarda liderlikning oliy bo‘g‘ini fir‘avnlr, imperatorlar, podshohlar, sarkardalar, harbiy qo‘mondonlar, gubernatorlar va boshqalar bo‘lib, davlatni yo ilg‘or taraqqiyot va gullab-yashnash sari, yoki parchalanib, to‘liq tanazzulga olib boradi.

Liderlik fenomenini ayniqsa faol o‘rganish XX asrning boshlarida boshlangan, bu menejment sohasidagi tadqiqotlar bilan bog‘liq edi. Liderlik va liderlik sifatlarining shakllanish mexanizmlari tadqiqot obyektiga aylandi. 1930—1950-yillarda liderlik fenomenini tizimli asosda o‘rganish bo‘yicha qator keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borildi.

Olimlarning turli nuqtayi nazarlarini o‘rganish bizni psixologiyada “liderlik” tushunchasini ta’riflashga yagona yondashuv yo‘qligiga ishoniradi. Turli ta’riflarga ko‘ra, liderlik - bu ta’sir qilish va nazorat qilish usuli. Psixologiyada liderlik tushunchasi guruhdagi shaxslararo o‘zaro ta’sir tizimida hukmronlik va bo‘ysunish, ta’sir va ergashishni o‘z ichiga olgan shaxslararo ta’sir jarayoni sifatida qaraladi. Liderlik ta’limi harbiy xizmatchilarning kasbiy tayyorgarligining ajralmas qismi, harbiy qo‘mondonlik va boshqaruv samaradorligining kafolati hisoblanadi.

Harbiy psixologiya va pedagogikada ofitserlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, ularda kasbiy muhim fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha boy an’analar mavjud. M.I. Dyachenko, Ya.V. Podolyak, L.E. Merzlyak, A.V. Barabanshchikova, A.D. Glotchkina, V.P. Davidova, V.P. Kashirina, S.I. Sedina, A.M. Stolyarenko, L.I. Umanskiy, E.P. Utlika, N..F. Fedenko, Yu.F. Xudoleevning ilmiy izlanishlarida kursantlar o‘rtasida harbiy jamoa boshlig‘i fazilatlarini shakllantirish jarayonining asosini tashkil qilishi ko‘p bora ta’kidlangan.

Liderlik muammosini o‘rganar ekanmiz, biz “liderlik” hodisasining mohiyati va mazmunining aniq ta’rifi yo‘q degan xulosaga keldik. Ushbu hodisa turli tadqiqotchilar tomonidan sinchkovlik bilan o‘rganildi, buning natijasida ko‘plab ishlar, tushunchalar nazariyalari paydo bo‘ldi, ularda ushbu kontseptsianing ko‘p qirraliligini, murakkabligini tushuntirishga, uning mohiyatini ochishga harakat qilindi. Ammo, har xil yondashuvlar, nuqtayi nazarlarga qaramay, ko‘pchilik tadqiqotchilar liderlik - bu shaxslararo ta’sir ko‘rsatish jarayoni, bunda liderlik tashabbuskor tomon ekanligiga ishonishadi.

Lider guruhni boshqarishi, ilhomlantirishi, rag‘batlantirishi kerak, ammo izdoshlar ham unga ta’sir qilishi mumkin. Shunday ekan, lider nafaqat liderlikka

tayyor bo'lgan, balki yetakchiga ergashishga tayyor bo'lgan izdoshlarga ham asoslanadi. Liderlik barcha uslublar, usullar va ta'sir turlaridan foydalanishni o'rganishi kerak, agar u o'z funksiyalarini iloji boricha uzoq va samarali bajarishni xohlasa, har bir holatda ma'lum bir vaziyat uchun eng mosini tanlaydi.

Liderning shaxsiy fazilatlarini tahlil qilib, kelajakdagi ofitserlarning liderlik sifatlarining muhim xususiyatlarini aniqlash mumkin: yuqori intellekt, maqsadga muvofiqlik, fikrlash qobiliyati, stressga chidamlilik, hissiy muvozanat, o'zini boshqarish qobiliyati, bo'ysunuvchilarga ta'sir o'tkazish qobiliyati, muloqot, ko'nikmalar va muammolarni ijodiy hal qilish qobiliyati va boshqalar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, liderlik – inson xarakterining kuchliligi va aqlining moslashuvchanligini o'zida mujassamlashtirgan, odamlarga liderlik qilish imkonini beruvchi iste'dod turidir.

Hozirgi vaqtda amalga oshirilayotgan islohot manfaatlaridan kelib chiqib, keng ko'lamli tashkiliy-shtat o'zgarishlari amalga oshirildi. Shu bilan birga, kuch tuzilmalarini ishga qabul qilishning yangi usuli ushbu toifadagi harbiy xizmatchilarni tayyorlash va tarbiyalashga yangicha yondashuvlarni talab qildi. Ushbu innovatsion yondashuvlardan biri harbiy xizmatchilarni boshlang'ich harbiy qismlarga liderlik qilish, xususan, o'z qo'l ostidagilarni faoliyat jarayonida hamkorlik qilishga undashga, odamlarni to'plashga va ularni samarali harakatlarga yo'naltirishga qodir bo'lgan harbiy jamoa boshlig'i funksiyalarini bajarishga o'rgatishdir. Liderlik qobiliyati va psixologik tayyorgarlik harbiy xizmatchilarga o'z qo'l ostidagilar bilan munosabatlarni muvaffaqiyatli o'rnatishga, o'zining qo'mondonlik, tashkiliy va tarbiyaviy qobiliyatlarini to'liq amalga oshirishga imkon beradi.

Harbiy xizmatchilarda liderlik va liderlik sifatlarini shakllantirish muammosini ko'rib chiqishga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar tahlili ko'proq o'rganilganligini ko'rsatadi. 200 yildan ortiq fanning turli sohalari: sotsiologiya, falsafa, tarix, psixologiya, pedagogika va boshqa kabi sohalarda o'rganilgan. Ushbu hodisani ko'plab tadqiqotchilar orasida N.K.Mixaylovskiy, E.A.Arkin, D.B.Elkonin, B.D.Parigin, L.I.Umanskiy, T.Bendas, V.G.Diligenskiy, I.G.Dubov, R.L.Krichevskiy va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

T.V.Bendas talqiniga ko'ra “liderlik” tushunchasi qadimgi tarixga ega bo'lib, uning kelib chiqishi insoniyatning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Muallifning fikricha, kamida ikki kishi uchrashadigan joyda, bir kishining boshqasiga ustunlik qilish muammosi paydo bo'ladi. Binobarin, liderlik insonga xos bo'lgan ijtimoiy-psixologik, umumiy tarixiy hodisadir.

Krichevskiy R.L - “Lider - guruh qadriyatlarining eng to'liq to'plamiga ega bo'lgan, eng katta tasir kuchini o'zida jamlagan va o'zaro munosabatlar jarayonida ilgari suriladigan guruh a'zosi”.

Podlasiy I.P. – “Lider – ma'lum bir shaxsiy tajribaga ega yorqin shaxs bo'lib, u yoki bu sabablarga ko'ra jamoa a'zolarining ko'zida jozibali bo'lib ko'rinishi mumkin”.

Parigin B.D. - “Lider - bu ma'lum, o'ziga xos va qoida tariqasida, odamlarning birgalikdagi, jamoaviy faoliyatini eng tez va muvaffaqiyatli tashkil

etishni ta'minlash uchun guruhning umumiy maqsadga erishish yo'lida yetarlicha muhim vaziyatda norasmiy liderlik rolga o'z-o'zidan ko'tarilgan guruh a'zosi".

Platonov K.K. – "Lider - norasmiy munosabatlar tizimida guruhga yetakchi ta'sir ko'rsatadigan shaxs".

Stolyarenko A.M. – "Lider xarizmatik belgilarga ega bo'lgan eng faol shaxs bo'lib, u faol ravishda o'z tarafdorlarini, hamfikrlarni qidiradi va tanlaydi, boshqalar uchun psixologik jalb qilish markaziga aylanadi".

Umanskiy L.I. – "Lider - guruh a'zosi bo'lib, uni lider maqomiga ko'tarish uchun uni guruhning barcha boshqa a'zolari butun guruh manfaatlariga ta'sir qiluvchi va butun guruhning yo'nalishini belgilaydigan eng mas'uliyatli qarorlarni qabul qilish huquqini tan oladilar".

1. Mahalliy fanlarda "lider" tushunchasi qandaydir aniq va muhim maqsadga erishish manfaatlarini yo'lida odamlarni birlashtirish, jamlashga qodir bo'lgan iqtidorli, xarizmatik shaxs sifatida tushuniladi.

2. Har qanday guruh, jamoa o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish, muhim muammoni hal etish uchun yo'l-yo'riqqa muhtoj, shuning uchun o'z muhitidan obro'li yetakchini ilgari suradi. Lidersiz hech bir guruh mavjud bo'lolmaydi.

3. Lider guruh a'zosi bo'lganligi sababli, bu guruhda g'ayrioddiy, iste'dodli, yorqin shaxs sifatida ajralib turadi, u quyidagi xususiyatlarga ega: eng yuqori maqom; shubhasiz vakolat; yetakchi ta'sir; guruh faoliyatini tashkil etish va qarorlar qabul qilishda eksklyuziv rol; guruh munosabatlarini boshqarish kabilar.

Liderlik mohiyatini tushunish borasida olimlarning qarashlari ham noaniq. Shunday qilib, L.D.Stolyarenko va V.E.Stolyarenkolar "liderlik"ni "ham shaxsga, ham guruhga ta'sir o'tkazish, tashkilot maqsadlariga erishish uchun barchaning sa'y-harakatlarini yo'naltirish qobiliyati" deb talqin qiladilar.

L.I.Umanskiy liderlikni "individning guruhga yetakchi ta'sirining ijtimoiy-psixologik hodisasi" deb tushunadi [1]. B. D. Parigin liderlikni "jamiyatda hukm surayotgan ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadigan, optimal vaqt va optimal samara bilan guruh maqsadlariga erishishga hissa qo'shadigan kichik ijtimoiy guruhni tashkil etish va boshqarish jarayonlaridan biri" deb tushuntiradi[2].

A. L. Svetsitskiy liderlikni "odamlarning jamoaning boshqa a'zolariga samarali ta'siri, ikkinchisini ma'lum bir tarzda harakat qilishga undaydi deb tushunadi. Liderlar odamlarning harakatlarini sof shaxsiy ta'sir asosida boshqaradi" [3]. S.A.Alifanov liderlik "ijtimoiy psixologiyada eng ko'p o'rganilgan va eng kam tushunilgan konstruksiya" deb hisoblaydi [4].

Yuqoridagi mualliflarning pozitsiyasini hisobga olish liderlikni tabiiy ijtimoiy xususiyatdir, deb ta'kidlashga imkon beradi.

Liderlik – guruhdagi psixologik jarayon, bu guruhning boshqa a'zolarining xatti-harakatlariga liderlikning shaxsiy obro'sining ustun ta'siriga asoslangan va guruh maqsadiga erishishga qaratilgan. Shu bilan birga, liderlik har doim darajaga, ta'sir kuchiga bog'liq bo'lib, bu liderlikning shaxsiy fazilatlarini va u ta'sir qilmoqchi bo'lgan kishilarning fazilatlarini nisbati va ushbu guruh qaysi vaziyatga bog'liqligiga asoslanadi.

Shuning uchun rivojlangan liderlik sifatlarining mavjudligi guruhga samarali liderlik qilish, guruh a'zolarini vazifa va maqsadlarni amalga oshirishga safarbar qilishning ajralmas shartidir.

Bu xulosa F.Fidlerning [5] fikriga to'g'ri keladi, u liderlikni guruh ishini boshqarish va muvofiqlashtirish bilan bog'liq holda rahbar bajaradigan harakatlar deb ataydi. Jumladan, mas'uliyatni taqsimlash, rag'batlantirish, tanqid qilish va yordam berish kabi harakatlar.

I.P.Volkov, B.D.Parigin liderlik bir qator funksiyalarni - strategik, ma'muriy, ekspert-maslahat, kommunikativ-tartibga solish, tashqi muhitda vakillik, psixoterapevtik, ta'lim, intizomiy bajaradigan rahbarni o'z ichiga oladi, deb ta'kidlagan [6]. S.D.Reznikning ta'kidlashicha, faqat bir qator jozibali psixologik fazilatlariga ega bo'lgan odamgina lider bo'lishi mumkinligi aytib, ularga o'ziga ishonch, o'tkir va moslashuvchan aql, o'z biznesini mukammal bilish sifatidagi kompetensiya, kuchli iroda, inson psixologiyasining o'ziga xos xususiyatlarini tushunish qobiliyati, tashkilotchilik qobiliyatlarini kiritadi [7].

L.D.Stolyarenko va V.E.Stolyarenko lider vaziyatni xolisona tahlil qila olishi, unga xatti-harakati, harakat dasturini shakllantirish va asosli qarorlar qabul qilish imkonini berishi kerak, deb hisoblaydi [8]. Bu kuch va vositalarni safarbar qilishni o'z vaqtida boshlash imkonini beradi. Guruhning to'liq yoki ko'pchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanishini ta'minlagan holda, rahbar qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish jarayonini tashkil qilishi mumkin, uni amalga oshirish rejasi quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- 1) ijrochilarni tanlash va joylashtirish;
- 2) qarorlar qabul qilish;
- 3) qarorlarni ijro etish joyiga nisbatan aniqlashtirish va moslashtirish;
- 4) bajarish uchun tashqi va ichki sharoitlarni yaratish;
- 5) ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirish;
- 6) natijalarni umumlashtirish va tahlil qilish.

S.D.Reznik "Yangi boshqaruv falsafasiga javob beradigan samarali rahbar o'z obro'-e'tibori rasmiy maqomiga emas, balki bevosita qo'l ostidagilarning hurmatiga bog'liqligini anglab yetgan shaxs hisoblanadi" – deb yozadi [9]. F.Fidler fikricha, liderning samaradorligi uning biror vazifaga yoki jamoadagi munosabatlarga yo'naltirilganligiga, shuningdek, guruh faoliyatini nazorat qilish darajasiga va unga ta'sirini amalga oshirishga bog'liq. Muallifning fikricha, liderlikning samaradorligi guruhni boshqaradigan sharoitlarga, kognitiv manbadan (bilim, tajriba, xarakter, munosabatlar va boshqalar) foydalanish qobiliyatiga ham bog'liq [10].

Binobarin, harbiy sohada faoliyat olib boruvchi harbiy xizmatchilar, albatta, liderlik sifatlariga ega bo'lishi, liderlik faoliyatiga tayyor bo'lishi, ayniqsa, qo'mondonlik lavozimlarida ham tinchlik, ham urush davrida bo'lishi kerak. Bundan tashqari, yaxshi shakllangan liderlik sifatlariga ega bo'lgan harbiy xizmatchi o'zining vazifasini muvaffaqiyatli ravishda bajaradi

Funksional vazifalarni bajarishda unga jiddiy ish yuklanishi mumkin, u hamkasblari uchun haqiqiy namuna bo'ladi, yosh askarlarga samarali ta'sir ko'rsatishga qodir va qo'l ostidagilarga vakolatli ta'sir ko'rsatadi. Jangchi-liderni

mas'uliyatli jangovar vazifa ishonib topshirilishi mumkin va qiyin vaziyatda u marhum qo'mondonni almashtirib, buyruqni o'z zimmasiga oladi.

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, harbiy xizmatchilarning amaliy faoliyati uchun liderlik fenomenining ahamiyatining asosiy qoidalarini asosli ravishda aniqlash mumkin:

“Liderlik” va “rahbarlik” tushunchalarining amalga oshirilgan tahlili, ushbu hodisaning mohiyati, harbiy xizmatchilarning harbiy kasbiy faoliyatiga nisbatan ko‘rib chiqilayotgan tushunchalarga aniq ta’riflar berishga imkon beradi:

- lider– guruh, harbiy jamoa a’zosi bo‘lib, unga boshqa barcha a’zolar ishonadi va unga butun guruh (jamo) manfaatlariga daxldor bo‘lgan eng muhim va mas’uliyatli qarorlarni qabul qilishning mutlaq huquqini e’tirof etadi. Unga federal qonunlar, nizomlar va qo‘mondonlik buyruqlari talablariga javob beradigan harbiy kasbiy faoliyatini bevosita amalga oshirish kabi vazifalar ham yuklatiladi;

- liderlik – rahbarning munosib tan olingan obro‘-e’tiboriga, g‘ayrioddiy fazilatlari va qobiliyatlariga, yetakchi a’zolarining sa’y-harakatlarini jamlay olish qobiliyatiga asoslangan guruhga, harbiy xizmat vazifasini optimal va samarali bajarish bo‘yicha guruhga butun harbiy jamoaga yetakchi ta’sir ko‘rsatish darajasining ko‘lami bilan tavsiflanadi.

Mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar, harbiy psixologlarning liderlik muammosiga yondashuvlari xilma-xilligiga qaramay, ushbu ijtimoiy-psixologik hodisa bilan bog‘liq harbiy kasbiy faoliyat bilan bog‘liq bir qator amaliy muammolarni hal qilish ochiqlicha qolmoqda.

Harbiy kasbiy faoliyatda liderlik va uning turlarini o‘rganishda uning namoyon bo‘lishining quyidagi xususiyatlarini hisobga olish kerak: birinchidan, davlat yomonidan tayinlangan rahbar sifatida liderlik (bunday hollarda u “lavozim”, “vazifalar”, “kategoriyalar orqali belgilanadi”)- rahbarning izdoshlariga (bo‘ysunuvchilarga) ta’sir darajasini, ikkinchisining unga bo‘lgan munosabatining xususiyatlarini va boshqa bir qator xususiyatlarni tahlil qilishga qaratilgan, ikkinchidan, jarayon sifatida liderlik (“ta’sir qilish jarayoni”, “faoliyatni tashkil etish usuli”, “xulq-atvor”, “odamlar xulq-atvorini boshqarish” va boshqalar) - liderlikning dinamik modelini ochib beradi va liderlik subyekting erishish, mustahkamlash va tasdiqlashdagi faolligini tavsiflaydi.

Guruh yoki harbiylarning harbiy-professional faoliyatini samarali tashkil etish imkonini beradigan yetakchi mavqei jamoa a’zolarining liderga bildirgan munosabatlariga ham asoslanishini inobatga olish zarur.

Ilmiy adabiyotlar va empirik ma’lumotlarning tahlili bizga liderlik sifatlarini shakllantirishga ta’sir qiluvchi omillarga tashqi (davlat tarafidan qabul qilingan qonunlar, norma, ustavlar, nizomlar), ichki ("serjant-askar", "serjant" tarkibidagi harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar jarayonida ijobiy hissiy muhitni yaratish) kiradi, degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. "Ofitser" tizimi, bu harbiy xizmatchilarning rivojlangan aloqa va tashkilotchilik qobiliyatini, liderlik sifatlarini shakllantirish darajalarini, harbiy xizmatchilarni harbiy qismda muddatli harbiy xizmatga rag‘batlantirishni nazarda tutadi. Muddatli harbiy xizmatchilarning liderlik sifatlarini shakllantirish mezonlari: motivatsion - kasbiy faoliyatda liderlik fazilatlarining ahamiyatini anglash, kognitiv –liderlik fazilatlari

haqida bilimlarni egallash, rahbar rolini qabul qilish; o'quv va jangovar faoliyatda o'zaro munosabatlarga qiziqishning namoyon bo'lishi; operativ - jangovar tayyorgarlik faoliyatida olingan bilim, ko'nikma, malakalar bilan harakat qilishda namoyon bo'ladi.

Muddatli harbiy xizmatchilarning liderlik sifatlarini shakllantirish ularning individual xususiyatlarini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi: faollik, tashabbuskorlik, mustaqillik, qat'iyatlilik, chidamlilik, shu jumladan jismoniy, muloqot va tashkilotchilik qobiliyatlari kabilar. Liderlik sifatlarini shakllantirish natijasi bo'linmalarining muvaffaqiyatli ishlashi garovidir.

Kimyoviy qurollarni xavfsiz saqlash va yo'q qilish federal boshqarmasi bo'linmalarining harbiy xizmatga chaqirilgan harbiy xizmatchilarning tarbiyaviy ishlarda liderlik fazilatlarini rivojlantirish bo'yicha ish tajribasini tahlil qilinganda, harbiy xizmatga chaqirilgan harbiy xizmatchilarning tashabbusi qo'llab-quvvatlanayotgani ta'kidlandi. Jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarida axborot-reseptiv va reproduktiv o'qitish usullari ustunlik qiladi, bu muloqot asoslarini eshitish qobiliyatiga, liderlik fazilatlarining xususiyatlari haqida ma'lum bilimlarni egallashga yordam beradi. Yosh askarning kursi davomida sinfda kuzatuv olib borilganda, harbiy xizmatchilar o'rtasidagi subyekt-obyekt munosabatlarini qayd etdigan, bu bir guruh hamkasblar, ayniqsa xizmatning dastlabki davrida, harbiy xizmatchilar bilan o'zaro munosabatlarga bo'lgan tarbiyaviy qiziqishni sezilarli darajada kamaytiradi. Darsdan tashqari vaqtda "askar – serjant – ofitser" tizimidagi o'zaro aloqalar ham yetarli emasini ko'rsatadi.

Suhbatlar va reyting natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, harbiy xizmatchilar qat'iyatlilik, mustaqillik kabi liderlik sifatlarining ahamiyatini yetarlicha baholamaydilar, ular aloqa va tashkiliy usullar, vositalar va texnikalarni yetarli darajada bilmaydilar, bu esa jamoa, xizmat, xizmat ko'rsatish, jangovar tayyorgarlik dasturini o'zlashtirish va boshqalarni shakllantirishga salbiy ta'sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Корчемный П.А. Военная психология: методология, теория, практика. М.: Воениздат, 2010 – 340с
2. Парыгин Б. Д. Лидерство как инструмент интеграции общности / Б.Д. Парыгин // Социальная психология в трудах отечественных психологов /сост. А.Л. Свенцицкий. - СПб.: Издательство «Питер», 2000.
3. Свенцицкий А. Л. Социальная психология управления. - М.: Экономика, 1986.
4. Алифанов С. А. Основные направления анализа лидерства /С. А. Алифанов //Вопросы психологии. - 1991. - №3. - С. 90-98.
5. Fidler F. A Theory of leadership effectiveness. N.Y., 1976.
6. Волков И. П. Руководителю о человеческом факторе. - СПб.: Питер, 2007.
7. <http://ej.kubagro.ru/2015/03/pdf/84.pdf>

MULLA SHAMS SHAVQIY NAMANGONIYNING “RIYOZUL MUSLIMIN” ASARI - ADABIY MANBA SIFATIDA*Saboxon Jo'raboyeva**NamDu O'zbek filologiyasi fakulteti**O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasida o'qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada muallifning shoir va tarixchi olim Mulla Shams Shavqiy Namangoniyning tarixiy asari bo'lgan “Riyozul muslimin” asarining mazmun mohiyati, tarixiy voqealarning she'riy yo'ldagi ifodasi shoirning o'ziga xos bo'lgan uslubi haqidagi fikrlari talqin etilgan.

Kalit so'zlar: “Devoni Shavqiy “qo'lyozmasi, tarixiy asar, doston janridagi asarlar, ma'naviy komil inson.

Аннотация. В статье интерпретируются размышления автора об историческом произведении поэта и ученого –историка Муллы Шамса Шавки Намангани “Риязул- муслимин”, содержание и сущность поэтического выражения поэтом исторических событий.

Ключевые слова и выражения: Произведения поэта, исторический труд, духовно совершенный человек.

Annotation. The article describes the author's thoughts on the content of “Riyozul –muslimin”, a historical work of Mullah Shams Shavqi Namangani, a poet and historian and his unique style of poetic expression of historical events.

Key words and word expressions: “Devoni Shavqi” manuscript, historical work, works in epic genre, spiritually perfect person.

Farg'ona vodiysi, shu jumladan, Namangan viloyati qadimdan shoirlar, nosirlar, olimlar maskani, og'zaki ijod va nodir qo'lyozmalar xazinasi bo'lib kelgan. O'tmish yurtidoshlarimiz xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotining el dahosi, dili va didini ifodalovchi ajoyib namunalarni meros qilib qoldirganlar.

Ularni tadqiq etganimiz sari, yurtimizning salmoqli ma'naviy boyliklari va ularning haqiqiy egalari borligidan zavqlanish hissini tuyamiz. Xususan, Mulla Shams Shavqiy Namangoniyning ijodiy merosi

sarchashmalarini talqin etish orqali o'zbek mumtoz adabiyotimizning yangi qirralarini kashf etishga imkon tug'iladi. Jumladan, Mulla Shams Shavqiy Namangoniyning “Riyozul muslimin” asari fikrimizning yaqqol dalilidir.

Mulla Shams Shavqiy ijodini o'rganilishi XIX asrning 80- yillaridan boshlangan. Bu davrda Shavqiy taxallusi bilan bir necha shoirlar qalam tebratgan, lekin ular orasida sohibdevon shoir Mulla Shamsiddin Shavqiyning alohida o'rni bor, u o'zining go'zal masnaviylari, tarixlari, g'azallari bilan adabiyot bo'stonida o'ziga xos o'ringa ega. O'zbek, tojik, arab adabiyoti tarixida Shavqiy taxallusi bilan ijod etgan shoirlar o'ndan ortiq. Masalan, Misr shoiri Ahmad ham Shavqiy taxallusida ijod qilgan bo'lib, “Amir shuaro” (Shoirlar amiri) unvonini olgan.¹

M.Mahmudov 1965- yilda “O'zbek tili va adabiyoti” jurnalining 5-sonida “Muhammad Sharif Shavqiy, uning hayoti va ijodi” nomli maqolasini e'lon qiladi.² Maqolada Muhammad Sharif Shavqiy Kattaqo'rg'oniy (1785-1861)

¹ O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 9-jild.-T.: “O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi”. Davlat nashriyoti, -B.676.

² M.Mahmudov “O'zbek tili va adabiyoti” jurnali – Toshkent, 1965-yil, 5-son, 24- bet.

zamonasining eng ilg'or shoirlaridan biri bo'lganligi e'tirof etiladi. Uning ijodi 3000 misrani tashkil etishi, she'rlari fors –tojik tilida yozilganligi aytiladi. Bundan tashqari, adabiyotshunos olim R. Orzubekov “Shavqiy va Shavqiylar” nomli maqolasida Shavqiy To'raqo'rg'oniy va Shamsiddin Shavqiylar to'g'risida ma'lumot barobarida Shavqiy taxallusli Shavqiy Qurbon va Abdulmajid Shavqiy ijodidan so'z yuritadi.³

Lekin biz tadqiq etayotgan Mulla Shams Shavqiy aksariyat hollarda, turkiy tilda ijod etganligi, adabiy merosining ko'lami keng va boyligi, mohir tarixchi sifatida tarixiy voqealarni she'riy yo'lda aks ettirganligi bilan boshqa sohibdevon shoirlardan ajralib turadi. Dastlab, u haqidagi ma'lumotni rus olimi Namangan uyezdida xizmat qilgan, bir necha yil Nanay qishlog'ida yashagan va o'lka tarixini o'rgangan inson B. R. Nalivkin aytgan. Bundan tashqari, Shavqiy va uning ijodi haqidagi ilk ma'lumotlarni Filologiya fanlari nomzodi, dotsent A. Xalilbekov tadqiqotidan keyingi ilmiy ishlarda uchratamiz. Jumladan, 1963 - yilda professor G'.Karimov ning “Shavqiy ijodining realistik kuchi”,

(“Sharq yulduzi”,2-son), 1970- yilda F. Ahmadjonovanning “Shavqiy Namangoniy”(“ O'zbek tili va adabiyoti”, 4-son) maqolalari bosildi. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va San'at nashriyotida

1982- yilda chop etilgan “Asrlar nidosi” majmuasida Shavqiy Namangoniy haqidagi ma'lumot, uning ikki g'azali, bir mustahzodi, “Pandnoma” asarining qisqartirilgan nusxasi, “Jome'ul –havodis “ dostonidan parcha e'lon qilindi. G'. Karimov tomonidan yozilgan “O'zbek adabiyoti tarixi ”darsligida

(1975, 1987- yillardagi uchinchi kitobida shoir haqidagi fikrlar o'rin olgan) hayoti va ijodiga doir turli ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, adabiyotshunos olim, professor Odiljon Nosirov

“Shavqiy Namangoniyning yangi qo'lyozmasi” (“O'zbekiston madaniyati” gazetasi. 1965- yil.3 -noyabr soni) maqolasida Mulla Shams Shavqiy Namangoniyning qo'lyozmasi haqida fikr yuritadi. Unda Shavqiy asarlarining 228 betli devoni va turli she'rlarni o'z ichiga olgan uchta qo'lyozmasi mavjud bo'lganligini ta'kidlaydi. Bulardan ahamiyatlisi, birinchisi hisoblanadi. Bu qo'lyozmada Shavqiyning o'zigagina tegishli asarlari bo'lgan. Qo'lyozma To'raqo'rg'on qishlog'ida istiqomat qiluvchi Nuriddin aka Isroilovning shaxsiy kutubxonasidan topildi. Varaq hajmi 21, 5 x 17 sm. Qo'lyozmaning 170, 174, 200, 220-betlarida qog'oz ishlab chiqarilgan fabrikaning muhri bor. She'rlar sahifaga ikki ustun qilib chiroyli nasta'liq xati bilan ko'chirilgan.

Ushbu keltirilgan ma'lumotlardan ma'lum bo'ladiki, To'raqo'rg'on qishlog'ida istiqomat qiluvchi pensioner Nuriddin Isroilovning shaxsiy kutubxonasida saqlangan “Shavqiy Devoni”asari adabiyotshunos olim Odiljon Nosirov tomonidan aniqlangan va Sharqshunoslik institutining Hamid Sulaymonov nomidagi Sharq qo'lyozmalar institutiga topshirilib, 1872/I raqam ostida qayd etilgan.⁴

³ N.Abdulhatov, Sh.Qo'ldoshev .Mulla Shamsiddin Shavqiy .Namangan.”Usmon Nosir media”-2022,-B.44 .

⁴ N.Abdulhatov, Sh.Qo'ldoshev. Mulla Shamsiddin Shavqiy. Namangan:”Usmon Nosir media”-2022-B.

Mulla Shams Shavqiy Namangoniy ijodiy merosini o'rganish, tahlil qilish, asarlarini nashrga tayyorlash borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Shoir tug'ilib o'sgan Kalvak qishlog'ida katta muzey ochilib, unga Shavqiy ajdodlari tarixi, Kalvak qishlog'ining kelib chiqishi haqidagi ilmiy adabiyotlar, oilaviy shajara va Shavqiy asarlarining ilmiy matnlarini yaratish kabi bir qator xayrli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, N.Abdulahatov, Sh.Qo'ldoshev hammualliflikda nashr etgan "Mulla Shamsiddin Shavqiy" monografiyasi bu sohada olg'a tashlangan qadam bo'ldi. Ushbu ilmiy monografiya Mulla Shams Shavqiy Namangoniyning qalamiga mansub tarixiy va lirik asarlarning to'liq matni kiritilganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Monografiya keng ommaga mo'ljallangan bo'lib, unda shoirning shajarasi, qo'lyozmalarining matnlari va tarixiy asari, g'azal va muvashshahlari kiritilgan. Jumladan, "Riyozul muslimin" dostonining tabdil matni berilgan bo'lib, uning mazmunini tahlil qilgan inson mo'min qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerak degan savolga javob oladi, satrlardagi mazmuni anglagani sari, demak, bani bashar mana shu holda hayot kechirishi kerak ekan degan xulosaga keladi.

Dastlab, asarning sarlavhasiga e'tibor qarataylik: "Riyozul muslimin", so'zi "Musulmon kishining mashaqqati" degan ma'no ifodalab, inson barkamollik kasb etishi uchun o'zining hoy-u havaslaridan voz kechib, yo'lida uchragan to'siq va mashaqqatni chidam bilan yengib o'tishi kerak degan g'oya dostonning asosini tashkil etadi. Mulla Shamsiddin Shavqiy bu g'oya va uning amaliy shaklini dostonning kirish qismidan boshlab toki yakunigacha bo'lgan o'rinlarda ifodalashga harakat qilgan.

Doston an'anaviy hamd-u na't qismi bilan boshlanadi, u shoir hayotining so'nggi 1887- yillarida yozilgan.

Asar mazmunida Sharqiy Turkistonning G'ulja⁵ shahrida istiqomat qilgan Valiboy Yo'ldoshevning

(1839- 1916 yillarda yashagan inson) hayoti, uning tirikligida qilgan ezgu amallari, savdogarlik faoliyati va o'z dindoshlariga ko'rsatgan cheksiz saxovat-u karamlari haqida hikoya qilinadi:

Kim din uchun aylasa yaxshi ish,
Sifat birla qilmoq kerak parvarish.
Bu olamda bir shahar erdi G'ulcha nom,

Xitoy hukmida tutqon erdi nizom.
Necha firqadin bo'lg'on erdi bu shahar,
Musulmon ila kofir badkuhar.
Etib kufr eli kufrisin anda fosh,
Bu kufr ahli kufrisin anda ma'osh.⁶

Tarixga nazar tashlasak, Islom dinini va uning ahkomlarini himoyalash hamma davrda ham bir xil bo'lavermagan. Sababi, Xitoyda hukmronlik qilgan Manjur imperatorlar sulolasi, musulmon dinidagi insonlarga o'z hududlarida juda

⁵ G'ulja, Qulja, Inin- XXRning Shimoliy- g'arbiy qismidagi shahar.

⁶ Devoni Shavqiy-2. O'zFa Sharqshunoslik instituti. H.Sulaymonov fondi. № 1872. 133-b.

ko'p azob –uqubat yetkazganlar. Buddha diniga e'tiqod qilgan sulola vakillari musulmonlarga yot ko'z bilan qarab kelganlar. Xususan, o'sha yerda turli soliqlar musulmon dinidagi odamlarga boshqa miqdorda, o'sha yerdagi aholiga ozaytirilgan tartibda belgilangan. Zo'rlik, razilliklar avj olgan, odamlar ichimlik suvi, oziq-ovqat mahsulotlarini topishda, xarid qilishda ham juda qattiq qiyinchiliklarga duch kelishgan. Ammo imon –e'tiqodiga sodiq bo'lib qolgan insonlar dinsizlik, kufrdan qutilish uchun o'z oilalari bilan boshqa hududlar ko'chib keta boshlaganlar. G'ulja shahridagi bu ayanchli holatni ko'rgan Nosir a'lam avlodidan, otasi Ali Akbar va onasi Hojiya xonim bo'lgan Valiboy ismli savdogar odamlarning ahvoli tangligini ko'rgach, ularni boshqa joyga ko'chirib ketishni maqsad qiladi. Valiboy ko'p joylarga odamlarini yuborib o'z qavmi uchun joy izlaydi. Bu ishda unga ota-onasi ko'p yordam beradilar:

Bo'lib Hojiya oyim ango ano,
Qilib dini uchun oncha molin fido,
Qilib dini uchun molin nisor,
Zubaydayi soni desa joyi bor.⁷

Valiboy boshchiligida g'uljalik musulmonlarning bir qanchasi behisob aravalarga ko'ch- ko'ronlarini ortib, Yorkat mavzesiga ko'chib keladilar. Bu yerni obod maskan ekanligini ko'rib muqim bo'lib qoladilar. 45307 kishi, ya'ni G'ulja aholisi Valiboyga ishongani uchun, qolaversa, zulmdan aziyat chekkani uchun 1881- 1884- yillarda uning ortidan ergashganlar. Odamlar joylashib bo'lishgandan keyin atroflarida jarlari ko'p bo'lgani uchun bu yerni Jarkent deb atashgan. Ko'chib kelganlar dastlab o'z uylarini bitkazib olgunlarigacha vaqtincha g'orlarda qazib yashab turganlar.

Muqarrar qilib bir makonni bori,
Muxolif anga hech qilmasdan bori.
Bo'lib Yorkat nomi ul yangi shahar,
Ichidin bolib joriy bir necha hunar.

Jarkent hozirgi Qozogiston respublikasi Olma – Ota viloyati Panfilov tumani markazi hisoblandi. 1942 yilgacha Jarkent, 1942-1991 yilgacha Panfilov deb nomlandi. Valiboy Jarkentga ko'chib kelgach, mahalliy aholi oqsoli Jamoliddin Jalilovning yaqin maslatchisiga aylanib, o'zi bilan ko'chib kelgan aholiga uylar bunyod etadi. Ikki o'rtadagi o'zaro munosabatlarni yaxshilanishi uchun o'z hissani qo'shgani uchun Rossiya va Xitoy hukumati tomonidan orden va medallar bilan taqdirlangan.⁸

Valiboy 1886- yilda qurdirgan masjid hozir ham saqlanadi. Bu ajoyib masjidni Valiboy birorta mix ishlatmasdan bunyod etishga qaror qiladi. Shunday ustani qidiradi va nihoyat topadi. Shanxayda yashadigan Xun Pit ismli usta Yorkentga kelib, 10 yil vaqt sarflaydi va birorta mix ishlatmay masjidni barpo etadi. Evaziga hech qanday mablag' olmaydi.⁹ Valiboyni amalga oshirgan xayrli ishlarni kelgusi avlodga ibrat sifatida yozib qoldirishni istagan kishilar mingboshi Sulton Mahmuddan iltimos qiladilar. Sulton Mahmud ularning iltimosini

⁷ Devoni Shavqiy-2. O'zFa Sharqshunoslik instituti. H.Sulaymonov fondi.№ 1872. 133-b.

⁸ N.Abdulaxatov, Sh.Qo'ldoshev. Mulla Shamsiddin Shavqiy. Namangan:"Usmon Nosir media"-2022-B

⁹ 112 Г. К. Гинс.Очерки из поездки по Семиречью//Исторический вестник,1911,№8 ,1913,№10.

Shavqiyga yetkazadi. Doston yozib bo'lingach, Mulla Shams Shavqiy katta miqdordagi pul bilan munosib taqdirlanadi.

Shavqiy o'z dostonini yaratgan ekan, xilma-xil his-tuyg'ularni kechinmalarini, voqealikka bo'lgan munosabatini, shaxsiy munosabatini ifodalaydi. Shoir Valiboy obrazini tasvirlash orqali inson qaysi yo'ldan borsa, Haqiqiy barkamollikka erishadi degan savolga javob beradi. Komil musumon odam dastlab mukammal e'tiqod sohibi bo'lishi kerak:

Sipos ila hamd-u sano beshumor,
Banom karambaxsh Parvardigor.
Erur fard yakto vahayyu azal,
Ani zotig'a vasf erur lam yazal¹⁰.

Mazmuni : borliqni yaratgan, abadiy, so'nggi yo'q, karamli va yakka-yu yagona Oliy zotga behisob hamd-u sano bo'lsin.

Chunki Olamni mukammal qonun-qoidalar asosida yaratgan Oliy Zot, har bir hodisa, har qanday go'zallikdan, maxluqotdan xabardor, ularning hattoki o'ylaridan ham ogohdir. Komillikning birinchi sharti, demak, inson iymon-e'tiqodda sobit bo'lishi kerak:

Qilub bandag'a oncha ehsoni jud,
Adamdin ani kelturib dar vujud,
Yana ahsani surat aylab ato,
Solub ani ko'nglig'a zavq-u safo.
Mukarram qilub aql iymon ila

Muazzam etib ilm-u urfon ila.(144-bet) sarvari anbiyo,
Iymon bilan ziynatlangan inson hayotda ezgu ishlarni amalga oshirishi uchun Ibrat bo'la oladigan ustozga ergashishi kerak.

Du olam shafi' chirog'i umam,
Imomi haram sarvari anbiyo,
Nabiyu valiyga jamiga peshvo.
Falak saqfida axtar toza nur,
Parvari shu'la to vaqti yavmun -nushur¹¹(145- bet)

Ikki olam sarvari bo'lgan Rasuli Akramning tug'ilishi Yaratganning mo'jizasi bilan nurning badandan badanga o'tishi va Qur'oni Karimning - Furqonning osmondan tushirilishi, Me'roj kechasi haqidagi fikrlar dostonida hayotiy misollar, go'zal tashbehlar bilan ifodalangan:

O'shal pok tiynatli gardun janob,
Solub zulmat ayvonig'a oftob.
Sharaf barchadin tug'di quyosh,
Shu'oyi jahon mulkiga bo'ldi fosh.(146-bet)

Mazmuni: Sarvari koinotning dunyoga kelishi zulmning qora ayvoniga yorug'lik bo'lib kirib, atrofni quyosh yanglig' yoritib yubordi. Bu o'rinda dinsizlik, ilmsizlik avj olgan davr zulmatga, qorong'ilikka o'xshatilgan. Har tun

¹⁰ N.Abdulhatov, Sh.Qo'ldoshev. Mulla Shamsiddin Shavqiy. Namangan:"Usmon Nosir media"-2022-B

¹¹ Yavmun- nushur- qiyomat, oxirat.

ortidan kun bo'lganidek, Muhammad alayhissalomning dunyoga kelishi nurdek issiqlik, baxt olib keldi deya ta'riflanadi.

O'zbek adabiyotida ideal shaxs obrazini yaratish hamma davrlarda bir xil ahamiyatga ega bo'lgan. Xususan, Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida Farhod obrazi komillikka yetishgan timsol sifatida adabiyotshunos olimlar tomonidan bir necha marta e'tirof etilgan¹². Jumladan, Z.Isomiddinov "Shavqi Navo" deb nomlangan to'plamida Farhod obrazi bilan payg'ambarimiz obrazini biriga qiyoslaydi. Buni tahlillarda ko'rsatib berishga harakat qilamiz. Muhammad alayhissalom islom dini targ'ibotiga kirishgan paytlarida u zotni o'ldirishga jazm etgan kishilar ko'p bo'lgan. "Kim seni endi mening qo'limdan qutqara oladi?!" deya aziz boshlari uzra qilich ko'targan kimsalarga qarab: "Oллоh qutqaradi!" deb aytishi bilanoq qotil qo'lidan qilich yerga tushib holi yomon bo'lib, shu sababli islomni qabul qilgani bir necha bor qayd qilingan (Ulardan biri hazrat Umar edi).

Navoiy dostonida tasvirlanishicha, Farhodni behush holda asir olib, Xusrav qoshiga keltirishadi. Tabib dorisidan o'ziga kelgach, Farhod Xusravga nazar tashlaydi. Farhodni asir olgan Xusrav uni o'ldirish oldidan bir ko'rish, savol-javob qilib, "aybini" bo'yniga qo'yish niyatida edi, ammo uni ko'rishi bilanoq holati o'zgaradi, yomon fikridan qaytadi:

Shukuhidin yetib Xusravga tag'yir,
Qilib ishq o'ti ko'ngliga ta'sir.
Unutti aylamakni qatl-u bedod,
Anga boqib takallum qildi bunyod.

Ya'ni, qotil Xusrav asir holdagi Farhodga ko'zi tushishi bilanoq, uning shukuhini ko'riboq o'ldirish fikridan qaytadi.¹³ Demak, insonning har bir qilgan amallari uning tashqi qiyofasida aks etishi Farhodni komil insonligini hatto Xusrav ham anglab unga nisbatan yovuzlik qilish fikridan qaytib, uni ozod qilishni chin ko'ngildan istab, yordam bermochi bo'ladi.

"Riyozul muslimin" asarida Rasuli Akramning nafaqat qiyofalari, balki, har bir bajargan ishlari mo'minlar uchun bir ibrat bo'lishi alohida ta'kidlanadi. Jumladan, Ro'zi Mahshar kuni odamlar saf-saf bo'lib maydonga kelishlari, nomayi a'mollari o'ng va chap tomondan berilishi, yaxshi va yomon amallari uchun savol-javob muqararligi barobarida, ezgulik ulashgan muslim-insonlarga Yaratganning mukofoti borligi qayd qilinadi:

Qizib mag'zi sar aylagay anda jo'sh,
Chekar ko'kka ahli qiyomat xaro'sh.
Solur anda do'zax ahli rustaxez,
Bo'lur vahmidan zahralar rez-rez.
Kelur avjiga hashr hangomasi,
Tegib ilgiga har kimning nomasi.
O'z ahvoliga barcha hayron bolub,
Na qilmoqni bilmasdan giryon o'lub.¹⁴

¹² N.Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi. Darslik.T.: -1965, 446-b.

¹³ Z.Isomiddinov. Shavqi Navo." Tamaddun", 2021, 17-bet.

¹⁴ Devoni Shavqiy -2.O'zFa Sharqshunoslik instituti. H.Sulaymonov fondi. № 1872.130-B.

Muhammad Payg'ambarimizning boshqalardan ajralib turadigan jihatlari shunda ediki, qalbida zarracha iymon nuri bo'lgan insonning gunohlariga yarasha jazosini olgandan keyin poklanmaguncha jannatga kira olmasliklari hadislarda bir necha o'rinlarda ta'kidlanadi.

Matn mazmunidan shuni anglash kerakki, har bir inson kim bo'lishidan yoki qaysi dinga itoat etishidan qat'iy nazar har bir bosgan qadamini o'ylashi va xatolarga yo'l qo'ymasligi uchun harakat qilishi kerak. Islom dinining asosi poklik bo'lgani, qolaversa, riyozat insonni kufrdan, dangasalikdan va buzg'unchilikdan saqlashi dostonning bir necha o'rinlarida misollar bilan izohlashga harakat qilinadi:

Agar bo'lmasak kufr eliding yiroq,
Mabodo u chora dinimizdan chirog'.
Yetar bizga kufr ahlidin ko'p sitam,
Bo'lur sha'mi imonimiz nuri kam (150- bet)

Insonning hayot shami qachondir o'chadi, ammo uning qalbi imon nuri bilan munavvarlansa, u hech qachon tushkinlik qa'riga cho'kmaydi, u boshiga kelgan turli mashaqqat sinovlarni sabr, chidam va mashaqqat bilan yengib o'tadi. Zero, bu zahmat uni faqat komillikka, baxtga va huzur-halovatga yetaklaydi degan g'oya dostonning asl mazmunini tashkil etadi. Har bir go'zallikda, har bir zarrada, har bir hodisada Yaratganning tadbiri va uning jamoli tajalli etadi. Demak, Mulla Shams Shavqiy Namangoniyni "Riyozul muslimin" asari har qanday davr uchun, xususan, bugungi kun uchun ham qimmatli manba bo'lib insonlarga xizmat qilishi tabiiydir.

**MATEMATIKA O`QITISHDA YANGI PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALARNING O`RNI***Umarova Mohigul**Samarqand viloyati Nurobod tumani**Nurbuloq shaharchasi 41-maktab**Matematika fani o`qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada matematikani o`qitishda hozirgi zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari hamda matematika o`qitishda interfaol metodlar va ulardan samarali foydalanish usullari haqida so`z yuritiladi.

Kalit so`zlar: geometrik shakllar, "Fikriy hujum" metodi, "6x6x6" metodi, "Klaster" metodi, "Charxpalak" metodi.

Абстракт. В данной статье рассказывается о преимуществах использования современных информационных технологий в обучении математике, а также интерактивных методах и методах их эффективного использования в обучении математике.

Ключевые слова: геометрические фигуры, метод «Мозговой штурм», метод «6x6x6», метод «Кластер», метод «Чархпалак».

Abstract. This article talks about the advantages of using modern information technologies in teaching mathematics, as well as interactive methods and methods of their effective use in teaching mathematics.

Key words: geometric shapes, "Brainstorming" method, "6x6x6" method, "Cluster" method, "Charkhpalak" method.

Kompyuter texnikalarini ta`lim muassasalariga tatbiq etish, o`qitish jarayonini optimallashtirishga keng yo`l ochib beradi. Keyingi o`n yillikda matematika fanini o`qitishda kompyuterlardan foydalanish bir necha asosiy yo`nalishlarda olib borildi. Bularga kompyuter yordamida bilimni baholash, turli tipdagi o`rgatuvchi dasturlarni ishlab chiqish va rivojlantirish, bilishga oid matematikaviy o`yinlarni ishlab chiqish va boshqalar kiradi.[1] Matematika o`qitishda kompyuterlarni qulayligini yana bir yo`nalishi ayrim o`quv holatlarini modellashtirishdir.

Modellashtirilgan dasturlardan foydalanishning maqsadi, o`qitishning boshqa usullari qo`llanganda tasavvur qilish, ko`z oldiga keltirilishi qiyin bo`lgan materiallarni tushunarli bo`lishini ta`minlashdan iborat.

Modellashtirish yordamida o`quvchilarga ma`lumotlarni grafik rejimda kompyuter multimediasi ko`rinishida taqdim qilish mumkin. Shu boisdan ular matematikani chuqur o`rganish va o`quv jarayonida sezilarli darajada mustaqillik namoyon etishga moyil bo`ladilar. Ko`p holatlarda vujudga keladigan matematik muammoni tez va berilgan aniqlikda hal etish uchun professional matematikdan o`z kasbi bilan bir vaqtda ma`lum bir algoritmik til va dasturlashni bilishi talab qilinadi.[2] Shu maqsadda XX asrning 90-yillarida matematiklar uchun ancha qulayliklarga ega bo`lgan matematik sistemalar yaratilgan. Bu maxsus sistemalar yordamida turli sonli va analitik matematik hisoblarni, oddiy arifmetik hisoblashlardan boshlab, to xususiy hosilali differensial tenglamalarni yechishdan tashqari grafiklarni yasashni ham amalga oshirish mumkin.

Matematika fanlarini o'qitishga yangi texnik vositalar, shu jumladan, kompyuter va boshqa axborot texnologiyalarining jadal kirib kelayotgan hozirgi davrida fanlararo uzviylikni ta'minlash maqsadida informatika fani yutuqlaridan foydalanish dolzarb masalalardan biridir.[3]

Axborotlarni ifodalash va uzatishga bo'lgan ehtiyoj so'z, yozuv, tasviriy san'atda, kitob chop etish, pochta aloqasi, telegraf, telefon, radio, oynai jahon va ishlab chiqarishning boshqa jabhalarini boshqarishning barchasi kompyuter texnologiyalari yordamida osongina hal qilinmoqda. Buning siri shundaki, axborotning katta qismi, shu paytgacha asosan, qog'ozlarda, magnit tasmalarida, ya'ni EHM dan tashqarida saqlanmasdan, matn, chizmalar, sur'atlar, tovushlarning barchasini axborot shaklida EHM larda saqlash, qayta ishlash va uzatish usullarini ishlab chiqilganligidadir.

Kompyuter texnologiyasida matnlar, tasvirlar, ovozlari, shakllar va shunga o'xshash boshqa ishlarni amalga oshirish imkoniyatlari maxsus dasturlash yordamida juda yengil va tezkorlik bilan hal etilmoqda. Shuning uchun matematika, fizika, ximiya, biologiya va boshqa fanlarni o'qitishda kompyuter texnologiyasidan foydalanish ijobiy natijalarni olib kelmoqda.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishda qo'yiladigan muhim tadbirlardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda ma'lum faoliya yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda bu borada kata tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Ta'limni isloh qilinishi jarayonining ajralmas, muhim qismi hisoblangan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar ta'lim jarayoniga o'zlari bilmagan holda qiziqishi bilan kirishib ketadilar. Tajriba shuni ko'rsatadiki, zamonaviy interfaol strategiyalar bo'lga bilimlarni samarali o'zlashtiradi. Chunki bugun sinflarni to'ldirib o'tirgan o'quvchilar sho'x beg'ubor bolalik gashtini surayotgan, ba'zan xayolparast bolalardir. Ular orasida hatto 45 daqiqalik dars jarayonining nihoyasini intiqlik bilan kutib, ta'limga yuzaki qaraydigan o'quvchilar ham yo'q emas.

Matematikani o'qitishda texnologiyadan foydalanishning kengaytirilganligi o'quv jarayonini yanada moslashtirishga imkon beradi. Texnologiya o'quvchilarga matematik tushunchalarni ko'rish va ular bilan o'zaro aloqada bo'lish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Talabalar o'yinlar, simulyatsiyalar va raqamli vositalar yordamida o'rganishlari va kashfiyotlar qilishlari mumkin. O'qituvchilar va talabalar uchun eng yaxshi platformalardan biri bu veb-grafikali kalkulyator Demos. Demos sinf faoliyati sahifasida bilan o'ynab va matematik g'oyalarini test va, shuningdek, almashish va hamkorlik talabalarni jalb qilish uchun katta

boshlanish nuqtasi hisoblanadi. Texthelp-ning STEM taklifiga yangi qo'shimchalar - EquatIO mathpace , o'quvchilar va o'qituvchilar matematik tenglamalar va formulalarni Desmos grafiklari, geometrik shakllar, manipulyativalar va qo'lda chizilgan rasmlar bilan birlashtiradigan raqamli doskani yaratadi.

Matematik ta'limga texnologiyani integratsiyalashuvi uchta muhim omil bilan bog'liqligi aniqlandi; texnologiya, o'quv faoliyati va vazifalarini loyihalash; o'qituvchining roli; va ta'lim mazmuni. O'qituvchi o'rganishni tashkil qilishi kerak, masalan, texnologiyaga boy faoliyat natijalarini sintez qilish, asbobdan foydalanishning samarali usullarini ishlab chiqishda yordam berish va texnologik muhitdagi tajribalarni qog'oz va qalam bilan ishlash yoki boshqa matematik mashg'ulotlar bilan bog'lash.

Matematika o'qituvchilari matematik amaliyotni raqamli texnologiyalardan foydalangan holda o'zgartirishi uchun hammualliflar va tadqiqotchilar sifatida konstruktiv jarayonning bir qismi bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi; Shunga qaramay, loyihalashtirish jarayoni juda qiyin, bu yerda: vositalarning matematik ifoda va muloqotga dialektik ta'sirini hisobga olish kerak va loyihalash va tahlil qilishning turli markazlari mavjud. O'quvchilar texnologiyani mustaqil ravishda ijobiy ta'lim yutuqlariga olib keladigan usullardan foydalanishlari ehtimoldan yiroq emas. O'qituvchilar va o'quvchilarning o'zaro ta'sirida samarali amaliyot ishlab chiqilishi va rivojlanish o'qituvchi tomonidan boshqarilishi kerak. Bunga erishish uchun o'qituvchilarning texnologik va pedagogik mazmun bilimlarini rivojlantirishni o'z ichiga olgan malaka oshirish jarayoni zarur. Va nihoyat, raqamli texnologiyalardan foydalanish izchil ta'lim kontekstiga kiritilishi kerak.

Hozirgi kunda matematika darslarida foydalaniladigan interfaol metodlardan ba'zilarini ko'rib chiqamiz.

“Fikriy hujum” metodi. Mazkur metod o'quvchilarning darslar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiasidan ozod etish, muayyan mazvu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rganish uchun xizmat qiladi.

“6x6x6” metodi. yordamida bir vaqtning o'zida 36 nafar o'quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. Bu metod asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo'lgan 6 ta guruh o'qituvchi tomonidan o'rta tashlangan muammoni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach o'qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo'ladi. Yangidan shakllangan guruh a'zolari o'z jamoadoshlariga guruhi tomonidan muammo yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

“Klaster” metodi. Klaster (g'uncha, bog'lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u o'quvchilarga ixtiyoriy muammolar xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun

sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi.

“Klaster” metodi aniq obyektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o'quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

“Charxpalak” metodi. “Charxpalak” texnologiyasidan o'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida, dars boshi va oxirida, biror bo'lim tugatilganidan keyin, o'tilgan mavzularni o'zlashtirganlik darajasini baholashda, takrorlash, mustahkamlash, oraliq va yakuniy nazoratlarni o'tkazishda foydalanish mumkin. Mashg'ulotlarni yakka va guruh shaklida tashkil etsa bo'ladi. Qolaversa, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini qamragan holda turli mazmun va xarakterga ega mavzularni o'rganishda ham asqotadi.

Mutaxassislarning ta'kidlashlaricha, matematikani yaxshi o'zlashtirgan o'quvchining tahliliy va mantiqiy fikrlash darajasi yuqori bo'ladi. U nafaqat misol va masalalar yechishda, balki hayotdagi turli vaziyatlarda ham tezkorlik bilan qaror qabul qilish, muhokama va muzokara olib borish, ishlarni bosqichma-bosqich bajarish qobiliyatlarini o'zida shakllantiradi. Shuningdek, matematiklarga xos fikrlash uni kelajakda amalga oshirmoqchi bo'lgan ishlar, tevarak-atrofdagi sodir bo'layotgan voqea-hodisalar rivojini bashorat qilish darajasiga olib chiqadi. Matematika fani insonning intellektini, diqqatini rivojlantirishda, ko'zlangan maqsadga erishish uchun qat'iyat va irodani tarbiyalashda, algoritmik tarzda tartibintizomlilikni ta'minlashda va tafakkurini kengaytirishda katta o'rin tutadi.

Matematika olamni bilishning asosi bo'lib, tevarak-atrofdagi voqea va hodisalarning o'ziga xos qonuniyatlarini ochib berish, ishlab chiqarish, fan-texnika va texnologiyaning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun matematik madaniyat — umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Matematika fanini nazariylashtirgan holda o'qitishga yondashishdan voz kechib, o'quvchining kundalik hayotida matematik bilimlarni tatbiq eta olish salohiyatini shakllantirish va rivojlantirishga erishish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini namoyon qilish va faollashtirishga e'tiborni kuchaytirish – davr talabi.

Matematik ta'limga kompetensiyaviy yondashuv o'quvchilarda kasbiy, shaxsiy va kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat qilishga imkon beradigan amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishni hamda matematik ta'limning amaliy, tatbiqiy yo'nalishlarini kuchaytirishni nazarda tutadi.

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi yosh avlodning o'zgaruvchan dunyo mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishi, fanlarni mukammal egallashini taqozo etadi. Bu esa ta'lim tizimiga, jumladan, matematikani o'rgatishga ilg'or milliy va xalqaro tajribalar asosida standartlarni joriy etish orqali ta'minlanadi.

Matematikaning hayotimizda tutgan beqiyos o'rnini inobatga olingan holda mazkur fan birinchi sinfdanoq maktab darsliklariga kiritilgan bo'lib, yurtimizda barcha aniq fanlar qatori matematika ta'limini zamon talablari asosida

takomillashtirib borish, uni o'qitishda eng so'nggi pedagogik va innovatsion usullar, multimedia vositalari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, o'quv fanini akademik bilim berishdan ko'ra ko'proq hayot bilan bog'lash, amaliy misol va masalalarni yechish, o'quvchilarni mustaqil izlanish, o'qibo'rganishga jalb etishning ahamiyati beqiyos.

Dars jarayonida o'quvchi o'zini majburan partaga mixlab qo'yilgandek his etmasligi, aksincha, mashg'ulotlarda katta ishtiyoq, kuchli xohish bilan qatnashishiga erilishi lozim.

Matematik bilimlar nafaqat baho olish uchun savol-javoblar yoki imtihonlarda, balki uyda, ish jarayonida, sport va san'at bilan shug'ullanishda, savdo-sotiq, oldiberdi – hayotning har bir lahzasida o'quvchiga naf berishini u chuqur anglab yetishi muhim. Buning uchun esa mazkur fan o'qituvchisi o'tayotgan mavzularini bevosita hayot bilan bog'lab, biror misol yoki masala, topshiriqlarni turmushdagi oddiy vaziyatlar yordamida yechishga o'rgatishi zarur.

Pedagogik, kompyuter va axborot texnologiyalar ta'lim jarayonini tashkil etish, tayyorlash, ilmiy-metodik materiallar bilan ta'minlash, ta'lim jarayonini amalga oshirish, ta'lim natijalarining sifatini baholashdan iborat bo'lgan yaxlit tizimda o'z ifodasini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azlarov T., Monsurov X . Matematik analiz. -T.: «O'qituvchi». 1986.
2. Alixonov S. «Matematika o'qitish metodikasi». T., «O'qituvchi» 1992.
3. Alixonov S. “Matematika o'qitish metodikasi” Qayta ishlangan II nashri. T., «O'qituvchi» 1997 va boshqalar elementar matematikadan masalalar.

МУСИҚА ФАНИДА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРИМИЗНИ АКС ЭТТИРИШ

Ашурова Шарифахон Аскаровна

Андижон вилояти Жалакудук тумани

Баркамол авдод болалар мактабининг мусиқа тўғарак раҳбари

28- мактаб мусиқа фани ўқитувчиси

Аннотация. Ушбу мақолада мусиқа фанини инсониятга фойдали томонлари миллий қадриятларимиз урф одатларимиз ҳақида ёзилган. Бу мусиқий товушлар, образлар, тафаккур ва ҳиссиётлари дунёси киши руҳини кўтаради, уни борлиқ билан бирлаштиради, гоҳида тасаввурлар, ҳаёлларнинг тушунтириб бўлмас имкониятларини очади, дунёнинг чексиз кенгликларига олиб кетади, ҳақиқатга, идеалга яқинлаштиради, ҳаётимизни маъноли, мазмунли, маънавий бой ва гўзал қилади.

Калит сўзлар: мусиқа санъати, чолғу асбоби, инсон руҳияти, товушлар, образлар, таълим тарбия.

Abstract. In this article, the useful aspects of the science of music for mankind are written about our national values and traditions. This world of musical sounds, images, thoughts and feelings elevates the human spirit, unites it with existence, sometimes opens up the inexplicable possibilities of imagination and imagination, takes us to the infinite expanses of the world, brings us closer to the truth and ideal, makes our life meaningful, meaningful, spiritually rich and beautiful.

Key words: musical art, musical instrument, human spirit, sounds, images, education.

Абстракт. В этой статье написаны полезные аспекты музыкальной науки для человечества о наших национальных ценностях и традициях. Этот мир музыкальных звуков, образов, мыслей и чувств возвышает человеческий дух, соединяет его с бытием, открывает порой необъяснимые возможности воображения и воображения, уносит нас в бескрайние просторы мира, приближает к истине и идеалу, делает нашу жизнь осмысленной, осмысленной, духовно богатой и красивой.

Ключевые слова: музыкальное искусство, музыкальный инструмент, человеческий дух, звуки, образы, образование.

Курраи заминда ҳаёт мавжуд экан, мусиқа санъати инсониятга олам олам завқ улашиб келган ва шундай бўлиб қолади ҳам. Чунки мусиқа санъати халқ ижодининг бир қисмигина эмас, балки инсон руҳининг тарбияловчисидир. Мусиқа инсон дунёқарашини шакиллантиради, ўз кучига ишониш, рухий иродани тиклаш, вақтинча мувоффақиятсизликлар олдида тушкунликка берилмаслик каби ҳислатларни тарбиялайди.

Ўрта асрлардаёқ Шарқнинг буюк мутафаккирлари мусиқанинг инсон организмига ва психологиясига таъсири масалаларини ўрганишган. Жумладан, Форобийнинг “Мусиқа ҳақида катта китоби” ва бошқа асарлари, Ибн Синонинг “Китобаш-шифо”, “Китоб ан-нажот”, “Донишнома” каби асарларининг мусиқа ҳақидаги бўлимлари, Абдурахмон

Жомийнинг “Рисолаи мусиқа китоби” шулар жумласидандир. Буюк қомусий олим, мусиқа чолғуларини мохирлик билан чалган Абу Наср Фаробий ўз ижроси билан кишиларни қувонтириш ёки қайғуга солиш, овутиш ёки чуқур ўйга толдириш, хурсанд қилиш, хайратга солиш ва ҳатто ухлатиб қўйишнинг уддасидан чиқа олганлиги ҳақидаги ҳикоят ва ривоятлар бизгача етиб келган. Профессонал мусиқачи, мутахассис мусиқа психологиясидаги кўп жиҳатларни етарли даражада ўзлаштириб олиши керак. Бу мусиқий товушлар, образлар, тафаккур ва ҳиссиётлари дунёси киши руҳини кўтаради, уни борлиқ билан бирлаштиради, гоҳида тасаввурлар, хаёлларнинг тушунтириб бўлмас имкониятларини очади, дунёнинг чексиз кенгликларига олиб кетади, ҳақиқатга, идеалга яқинлаштиради, ҳаётимизни маъноли, мазмунли, маънавий бой ва гўзал қилади.

Ҳа, мусиқа рухий таъсир имкониятига эга. Ундан таълим-тарбия мақсадларида фойдаланиш, бу борада унинг салмоғини янада кенгайтириш зарурлигини ҳаётнинг ўзи тақозо этмоқда.

Мусиқа тарбияси жараёни инсон мусиқа маданиятининг умумий, шахсий асосларини шакллантиришга, мусиқа ўқитиш жараёни эса муайян мусиқий билимлар, малака ва кўникмаларни эгаллашга йўналтирилган.

Мусиқий ривожланиш жараёни ҳар бир алоҳида инсоннинг мусиқа маданияти ва мусиқий қобилиятлари ҳамда рухий-физиологик имкониятларининг умумий ўсиб бориши билан боғлиқ. Қобилиятлар – бу ташқи дунё билан ўзаро алоқалари жараёнида шаклланадиган кишининг ривожланишидаги ички шарт-шароитлардир.

Одамни бошқа тирик мавжудотлардан ажратиб турувчи қобилиятлар унинг табиатини ташкил этади, лекин одам табиатининг ўз – бу тарихий маҳсулотдир – деб ёзган эди С.Л.Рубинштейн. Одам табиати унинг меҳнат фаолияти натижасида тарихий ривожланиш жараёнида шаклланади ва ўзгариб боради. Интеллектуал қобилиятлар одам табиатини ўзгартира бориши давомида уни англаб, тушуниб бориши билан шаклланган, унинг бадиий, мусиқий ва шу каби қобилиятлари санъатнинг бошқа турли кўринишларини ривожлантириш билан бирга юзага келган.

Ижодий ривожланиш бу педагогик–психологик жараёнда шахснинг барча индивидуал хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда ташкил қилинган бўлиб, унинг мақсади болани мустақил товуш ечимларини излаш, кузатиш, кашфиётларга йўналтиришдан иборат.

Шахснинг мусиқий ривожланиши, тарбияси ва шаклланиши мусиқий педагогикасининг умумий асослари бўлими бош мавзулари ҳисобланади. Инсоннинг мусиқий ривожланиши унинг мусиқий қобилиятлари ва мусиқа маданиятининг бир бутун ташкил топиши ва шаклланиши жараёни сифатида намоён бўлади. Мусиқий ривожланиш бу шахс мусиқа маданиятининг жисмоний, ақлий ва маънавий ривожланишидаги туғма ва ўзлаштирилган, миқдор ва сифат ўзгаришларининг ҳар томонлама такомиллашуви. Инсон ўзининг мусиқий ривожланишида қатор ёш босқичлардан ўтади. Инсоннинг ёшига хос умумий хусусиятларини ўрганиш билан психологиянинг махсус соҳаси-ёш психологияси шуғулланади.

Чақалоқлик, гўдақлик ёшида, ҳаётининг биринчи йилида бу кўпроқ она айтадиган алла кўшиғи ҳамда болани ўраб туган мусиқий муҳит билан боғлиқ. Ҳаётининг иккинчи ва учинчи йилларида бола юра бошлаганда, у катталар ортидан айрим мусиқий ва кўшиқ жумлаларини такрорлай олади. Бу ёшда ритмик эшитиш қобилияти фаол ривожлана бошлайди, бу болага мусиқани алоҳида ритмик ва рақс ҳаракатлари билан ифодалашга имкон беради. Уч ёшда, бола —ўзининг мен ини англаб ета бошлаганда унинг истаклари ва мен ўзим каби талаблари ифодаланган кескин вазиятларда, ота-оналар уни мусиқага ошно қилиш имконияти ҳақида ўйлай бошлайдилар. Болани уй шароитида мусиқа мактабига жойлаштиришга тайёрлаш мусиқа ўқитувчиси билан ўтказиладиган хусусий машғулотлар ва мактабгача таълим муассасасида мусиқа машғулотларида амалга оширилади.

Бошланғич мактабнинг биринчи синфларида боланинг овози ҳали заиф, нафаси қисқа бўлади, у кўшиқ сўзларини куйлашдан кўра кўпроқ сўзлаётганга ўхшайди. Шунинг учун кичкинтойлар учун қисқа жумлани ва ёрқин ифодали мазмунли кўшиқлар танлаш лозим. Бу уларда кўшиқга нисбатдан эътибор ва қизиқиш уйғотади.

Мусиқий-педагогик жараён ўзининг қонуниятлари, шакллари, босқичлари, услублари, умумий ва махсус, яқка ва жамоа назарий ва амалий, концерт ва мустақил мусиқий машғулотларига эга. Мусиқий педагогик жараённинг қонуниятларини аниқлаш учун ушбу барча алоқаларни таҳлил қилиш талаб этилади бу алоқаларни бир бутун ҳисобга олиш уларнинг бирлигига, жамият эҳтиёжларига боғлиқлигига миллий ва жаҳон мусиқа маданиятининг тараққиётига олиб келади.

Мавжуд педагогик вазифалар сақланган ҳолда Ўзбекистонга хос миллий кадрлар, анъаналар, халқ ижоди, мусиқа меросини болаларни идрок этиш қобилияти даражасида босқичма – босқич тадбиқ этиш назарда тутилади.

Эрталабки бадан тарбия, турли шаклдаги машғулотлар, меҳнат, сайр, нафосат соатлари, ўйин кулги, байрамларга оид асарларни аниқ режалаштириб, ўз ўрнида ва меъёрида қўллаш «Миллий тафаккур» муаммосининг ечимига эришишда муҳим омил бўлади. Аввалам бор, мусиқа репертуарлари болажонларда жонажон Ватанга муҳаббат, меҳнатсеварлик, табиатини эъзозлаш, дўстлик, ҳамжиҳатлик, раҳм – шафқат каби хислатлар мусиқавий образлар орқали идрок этилишга қаратилган.

Бунда Республика миқёсидаги ижодкор тарбиячиларнинг илғор тажрибалари натижаси, янгича ишлаш методикасига асосланган мусиқий репертуарлари болаларнинг ёшига мос бўлган (билим ва малакалар даражаси, мусиқага муносабати, қизиқиши, қобилияти, соғлиғи, кайфияти, боғчадаги муҳит ва бошқалар) ҳолатларни мусиқий фаолият турларини ҳисобга олган ҳолда беш қисмга бўлинади. Ўқув материаллари чоракларга тақсимланган бўлиб, болаларнинг меҳр фаолият турларига муофиқ танланиши дастлабки билим ва кўникмаларни эгаллашда, таълим мақсадларни эгаллашда муҳим аҳамият касб этади. Машғулотнинг тузилиши ўқув материалларининг мазмунидан келиб чиқиш лозим. Бунда асарнинг тарбиявий аҳамияти,

уларнинг бадий гоявий савияси, болалар ёшига мослиги, асар мавзусининг хилма – хиллиги ҳисобга олинади.

Маълумки, муסיқий фаолият муסיқа тинглаш, кўшиқ айтиш, муסיқий ритмик ҳаракат, болалар чолғу асбобларида чалишни ўрганиш каби турларга бўлинади.

Ҳар бир фаолият тури боланинг муסיқий дидини ривожлантиришга ёрдам бериб, маълум малакани шакллантиради. Муסיқашунос олимлар болаларни муסיқий тарбиялашда муסיқа тинглаш фаолиятига алоҳида эътибор бермоқдалар.

Педагогика фанида кўшиқ айтиш фаолиятининг тарбиявий аҳамияти алоҳида таъкидланади. Миллий руҳни ўзида акс эттирилган халқ кўшиқ, лапарлари болаларни оламни бадий хис ва идрок этишларига, завқланишларига ёрдам беради. Муסיқа образларга муовиқ турли тавсифдаги ҳаракат ва рақсларни, ўйинда эса турли образларни тасвирлаш муҳим аҳамиятга эгадир. Чунки ҳаракат муסיқий қобилиятни шакллантириш ва жисмоний ривожлантиришда жуда муҳимдир. Ҳаракатда асарнинг бадий мазмуни, кайфияти акс эттирилади. Куй, ритм, тембр, регистр, темп, динамика тусларини хис этган ҳолда кўл, оёқ, гавда қоматларни муסיқага мос равишда ҳаракатлантириш муסיқий – эстетик ва жисмоний тарбия ўртасида узвий боқлиқликни таъмин этади.

Болалар чолғу асбобларидан, айниқса, ўзбек чолғу асбобларида ижро этилган ранг – баранг оҳанглар болаларни созларнинг жарангдор овози билан таништиради. Уларда ажабланиш, завқланиш, қувониш каби ижобий рухий ҳолатлар вужудга келади. Дастур мазмунида чолғу созлари билан таништириш билан бирга, билимлар ёшига мос бўлган урма чолғу созлар ва муסיқий ўйинчоқлар ёрдамида оддий ижрочилик усулларини бажара олишга ўргатиш вазифалари кўйилади.

Болаларнинг муסיқий ижодкорлигининг дастлабки куртаги намоён бўла бошлайди. Иқтидорли болалар оддий кўшиқ, ўрганган рақс, ҳаракат турини мустақил яратган ижодларига мужассамлантирадилар, турли образларни янгича талқин этадилар, давра ўйинларида таъсирчан хусусиятларини ўйлаб топадилар, ижодий ютуқларидан завқланадилар ва мамнун бўладилар. Муסיқа фаолиятидаги бундай мустақилликнинг одимлари болаларимизни ёшлиқдан оқ санъатнинг сеҳрли оламида завқланишга, гўзал оҳанглардан лаззатланишга, муסיқани меҳр билан севиб, имконият даражаларини намоёиш этишга чорлайди.

Байрам эртаклари – болаларни бадий тарбиялаш шакллари билан бири. Байрам эртақларининг мақсади болаларни нафосат оламига олиб кириш, уларда ажойиб ёрқин тасуротлар қодирлиш: болаларда керакли байрам кайфиятини туғдириш, уларга шодлик бахш этиш ва ижодкорлик завқини ҳосил этишдан иборатдир.

Ижодий ёндашув тўғри ташкил қилинган байрам ва байрам шаклидаги тадбирлар (ўйин кулгилар, концертлар, сайл, аския, кулги дамлари нафосат соатлари, турли театр томошалари, қизиқарли ўйинлар, спорт мусобақа беллашувлари) болаларни кичик ёшдан бошлаб кўнгил очар ўйин ва байрам

эртақларининг моҳиятини англаб етиш, маънавий озуқа олиш, тасаввурни бойитишга хизмат қилади.

Ҳар бир гуруҳнинг ёши ва идрок этиш даражасига мувофиқ байрам эртақлари ва уюштирилаётган ўйин кулгуларни ўтказиш мундарижаси таълим – тарбия мазмунида ўз аксини топган. Мусиқа раҳбари болаларга фақат билим берибгина қолмасдан, балки уларни янги ажойиб дунё мусиқа оламига олиб киради, санъатга қизиқтиради, уни севишга ўргатади.

Яхши ташкил қилинган мусиқий тарбия жараёни болаларни баркамол инсон қилиб ўстиришда кўмаклашади.

Бу ишда таълимнинг педагогик жамоаси иштироки ва фаоллиги ҳам муҳимдир. Болаларнинг саломатлигини муҳофаза қилиб, машғулотлар учун гигиеник талабларга жавоб бераётган даражада шарт шароитларини яратиш, эртақлар ва байрамтадбирларини ташкил этиш ва ўтказишга фаол қатнашиш боғча раҳбарияти ва тарбиячиларнинг педагогик бурчидир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Апраксина О. Методика музыкального воспитания в школе Москва , 2003.
2. Апраксина.О.А. Методика музыкального воспитания в школе. (Учебное пособие для пед. институтов по спец. 2119 «Музыки и пение») -
3. М.: Просвещение, 2003-222с.
4. Методика преподавания музыкальных дисциплин: Сб. статей. -Т.: Ўқитувчи. 2009. -95 с.
5. Музыкальная психология: Учебное пособие. / автор сост. Кадиоров Р.Г., - Т.: Музыка, 2005. -80 с.
6. Музыкальное воспитание в школе. Вып.19.: Сб. статей. / Состав. О.Апраксина. М.: Музыка, 2007. -110 с.
7. Соипова Д. Мусиқа ўқитиш назарияси ва методикаси Ўқув методик қўлланма 2009 УзДК
8. Шарипова Г.Мусиқа ўқитиш методикаси. Маърузалар матни. 2000 й.
9. Зимина А.Н.Основы музыкального воспитания и развития. М. 2000 й.Интернет манбалари:

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA INNOVATSION
MENEJMENT**

Saidova Maftuna Rustamovna
Buxoro viloyati G'ijduvon tumani
55-sonli DMTT tarbiyachi

Annotatsiya. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida maktabgacha ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, ularni sifat jihatidan takomillashtirish, ta'limning mintaqaviy xususiyatlarini e'tiborga olish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini rivojlantirish borasida keng ko'lamdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan, malakali, yosh, tashabbuskor, yuksak kasbiy tayyorgarlikka ega hamda zamonaviy fikrlovchi kadrlarni boshqaruv jarayoni masalalariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, uning ijrosini ta'minlash uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan pedagoglarni boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha tuzilgan dasturlarni yanada takomillashtirish, o'quv materiallarni mazmunan va metodik tomondan tubdan yaxshilashni taqozo etadi..

Kalit so'zlar: direktor, bola, kompetensiya, tarbiyachi, pedagog, texnologiya, mahorat, innovatsiya, menejment.

Annotation. In the developed countries of the world, extensive work is being done to prepare competitive personnel in the preschool education system, to improve their quality, to take into account the regional characteristics of education, and to develop organizational and economic mechanisms. Particular attention is paid to the issues of the management process of qualified, young, enterprising, highly trained and modern-thinking personnel operating in the preschool education system. it requires radical improvement of materials in terms of content and methodology

Keywords: director, child, competence, educator, pedagogue, technology, skill, innovation, management.

Аннотации. В развитых странах мира ведется большая работа по подготовке конкурентоспособных кадров в системе дошкольного образования, повышению их качества, учету региональных особенностей образования, развитию организационно-экономических механизмов. Особое внимание уделено вопросам управления процессом управления квалифицированными, молодыми, предприимчивыми, высококвалифицированными и современно мыслящими кадрами, работающими в системе дошкольного образования, что требует кардинального совершенствования материалов с точки зрения содержания и методологии.

Ключевые слова: директор, ребенок, компетенция, воспитатель, педагог, технологии, мастерство, инновации, управление

Zamonaviy ta'lim tizimi maktabgacha ta'lim tashkiloti direktoriga tobora ko'proq talablarni qo'yimoqda, lekin boshqaruvdek muhim sohada direktorning mahorati eng kuchli talab hisoblanadi. Ta'lim darajasini oshirish asosan ta'lim tashkiloti direktorining ta'lim sifatini rivojlantirishdan manfaatdorligi, vaziyatning

o'ziga xos xususiyatlarini his etishi va kerakli vaqtda boshqaruv faoliyatiga o'zgartirish kiritishi bilan bog'liq.

Ta'lim tashkilotining yuqori samaradorlik ko'rsatkichlariga yo'naltirilganligi boshqaruvning tegishli darajasiga qo'yiluvchi bir qator talablarni ifodalaydi. Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishda yangi yondashuvlarga asoslanib, zamonaviy direktor layoqatli mutaxassis fazilatlariga ega bo'lishi bilan birga, yuqori professional muloqot madaniyati va axloqiy-etik me'yorlarga ega bo'lishi kerak.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida turli xil maktabgacha ta'lim tashkilotlari mavjud, takomillashtirilgan pedagogik texnologiyalar va usullar yuzaga kelib, amalda qo'llanilmoqda, innovatsion faoliyat ommalashmoqda. Asosan maktabgacha ta'limning yo'nalish va talablari o'zgartirilmoqda. Aynan shuning uchun ta'lim muammolarini zamonaviy darajada hal eta oluvchi yangi avlod direktori zarur.

Yangi turdagi direktor jamoa bilan ishlashda tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirishi, ularning qobiliyatlari, shuningdek ehtiyojlari va kasbiy talablarini hisobga olishi kerak. Direktor uchun xodimlarning tashabbusini ma'qullash, ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga hissa qo'shish, shuningdek, har bir xodimini harakatga unday olishi muhimdir. Bugungi kunda zamonaviy pedagogik ta'sir ko'rsatish uslublariga ega, bundan tashqari boshqaruv mahoratini biluvchi mutaxassis zarur.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining zamonaviy direktori ish jarayonida bajaruvchi juda ko'p vazifalar ro'yxati mavjud. Boshqaruv vazifalari ro'yxati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Pedagog kadrlar tarkibining sifatini boshqarish. Bu vazifa pedagog kadrlar soni va ularning tarkibini belgilash sifatida tushuniladi, shu bilan birga mazkur vazifa malaka oshirish tizimi, jamoaviy ishni tashkil qilish va mehnatga haq to'lash tizimini o'z ichiga oladi.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim va tarbiya sifatini boshqarish.

3. Ta'lim texnologiyasi sifatini boshqarish. Zamonaviy ta'lim tizimida turli xil ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirish muhim o'rin tutadi.

4. Moddiy-texnik boshqaruv sifatini boshqarish, jihozlardan foydalanish va o'quv xonalarini taqsimlashni o'z ichiga oladi.

5. Ta'lim infratuzilmasi sifatini boshqarish.

6. Axborot-uslubiy ta'minotni boshqarish qidiruv jarayonlarini tartibga solish va muhim ma'lumotlarni tahlil qilish, bilim olish uchun eng samarali uslubiy sxemalardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

7. Ta'lim dasturi sifatini boshqarish, o'quv rejasi, tadbirlarni tashkil etish va malaka talablarini qamrab oladi.

8. Huquqshunoslik vazifasi direktor o'z ishida qonunlarni bilishi va qo'llay olishi, butun jamoaning huquq va burchlarga rioya etishini tashkil qilishni anglatadi.

9. Psixolog-vositachining vazifasi shundan iboratki, direktor nafaqat jamoada, balki ota-onalar va bolalar o'rtasida ham o'zaro tushunish va ishonch muhitini

yaratishi kerak. Jamoadagi nizolarni bartaraf etish qobiliyati maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining juda muhim vazifasidir.

10. Tashkiliy vazifa ma'lum bir tuzilmani, ichki tartibni yaratishni o'z ichiga oladi. Tashkiliy qobiliyatlar quyidagi fazilatlardan iborat: kasbiy kompetensiya, jamoatchilik, jamoada ishlash tuyg'usi, talabchanlik, faollik va maqsadga muvofiqlik.

11. Nazorat va faoliyatni muvofiqlashtirish, zaruratga ko'ra, nazorat paytida kamchiliklar aniqlangan taqdirda, ishda o'zgarishlar kiritilishini o'z ichiga oladi. Mazkur vazifa direktor talabchan, faol va tezkor bo'lishi kerakligini nazarda tutadi. Bu tashkiliy ko'nikmalarni namoyish etish direktorga jamoa faoliyatidagi kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash va ularning oldini olish yondashuvlarini tahlil qilishga yordam beradi.

Shuningdek, nazorat – maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatida tashqi va ichki ko'rsatkichlarni o'zgartirish jarayoni to'g'risida ma'lumot olish va keyinchalik rejalashtirilgan harakatlarni amalga oshirish uchun salbiy oqibatlarni bartaraf etish jarayoni. Boshqaruv vazifa sifatida boshqa vazifalarsiz mavjud bo'la olmaydi va boshqa vazifalar bilan birgalikda mavjuddir. Qayd etilgan vazifalar maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining zimmasida qanday mas'uliyat mavjudligini ko'rsatadi.

Boshqaruv madaniyati samarali boshqaruv faoliyati shartiga aylanadi, shuningdek boshqaruvchiga xos xususiyat sifatida namoyon bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori boshqaruv madaniyatining mohiyati ta'lim jarayonini boshqarish tamoyillari, tashkiliy shakllari va texnologik usullarini bilishdan iborat. Boshqaruv madaniyati boshqaruv faoliyati jarayonida namoyon bo'ladi, ong, xulq-atvor uslubi va aloqa, shuningdek, bevosita boshqaruvchining kasbiy faoliyati bilan bog'liq.

Boshqaruvchi o'z kasbiy vakolatlari, shuningdek, shaxsiy fazilatlaridan qay birini jamoa qabul qilgani va qay biri jamoada javob topa olmasligini tushunishi va kuzatishi kerak. Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktoriga xos fazilatlarni rasmiy ravishda psixologik, intellektual, ijtimoiy va professional sifatida belgilash mumkin. Qayd etilgan sifatlarning to'liq ro'yxati oddiyroq tarkibiy qismlardan iborat. Direktorlarga xos fazilatlarni uch guruh: professional, shaxsiy va ishbilarmonlikka ajratish mumkin. Shuningdek, direktor uchun pedagog kadrga bolani tushunishga o'rgatish muhimdir.

Haqiqiy pedagog kadrning shakllanishi pedagog kadrning bolani tushuna olish qobiliyatidan boshlanadi. Agar pedagog kadr bolaning ma'naviy dunyosini tushunishga harakat qilmasa, u holda kelajakda u endi ta'lim va sotsializatsiya jarayoniga ta'sir ko'rsta olmaydi. Boshqaruv faoliyati jarayonida boshqaruvchida, albatta, turli xil muammolar uchraydi va u mazkur muammolarni samarali hal qilish darajasi orqali uning vakolat darajasini aniqlash mumkin. Boshqaruv vakolati rivojlanishi nafaqat o'z-o'zini rivojlantirish va boshqaruvchi faoliyatida tajriba orttirish, balki boshqaruvchining malakasini oshirish, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining kasbiy qayta tayyorgarligiga bog'liq.

Butun ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun pedagog kadrlar jamoalarini boshqarishning zamonaviy usullari,

ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni yaxshi biluvchi, innovatsiyalar bozorida samarali ishlashga qodir mutaxassislar kerak. Innovatsiya har bir tashkilot uchun murakkab va og'riqli jarayondir. Ammo innovatsiyalarsiz tashkilotlar, tashkilotlar va firmalar o'rtasidagi raqobat xarakteriga ega zamonaviy jamiyatda ishlash va rivojlanish mumkin emas.

Zamonaviy innovatsion jarayonlar juda murakkab va muqarrardir. Ular boshqaruvning istalgan sohasida rejalashtirishni takomillashtirish, boshqaruv organlarining tuzilishi va funksiyalari, kadrlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish muhimdir.

Innovatsiya – bu *yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot (tovar, ish, xizmatlar) ko'rinishdagi innovatsion faoliyatning yakuniy natijasidir.*

Innovatsion jarayon - innovatsion o'zgarishlarni tayyorlash va amalga oshirishdan iborat bo'ladi va yagona bir butunni tashkil qiluvchi o'zaro bog'langan pallalardan tashkil topgan. Bu jarayonning natijasida amalga oshirilgan o'zgarishlar natijasida innovatsiya paydo bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tizimi innovatsiyasi deb - MT tashkilotida ta'lim tarbiya va boshqarishning yangi usullarining yaratilishi, maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatiga tadbiiq etilishi, tizimni yuritishda marketing yoki tashkiliy usullarning joriy qilinishi, yangi ish o'rinlarini tashkil etishni yoki tashqi aloqalarni o'rnatilishini o'zida mujassamlashtirgan faoliyatning yakuniy natijasi tushuniladi.

Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvida oxirgi uch yilda bir qancha innovatsiyalarni kuzatishimiz mumkin.

Masalan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5198-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" PQ-3305-son, 2017-yil 9-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3261-son, 2018-yil 5-apreldagi "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3651-sonli va 2018-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3955-sonli qarorlarini keltirishimiz mumkin. Bundan tashqari bunday qarorlarni bir qanchasini misol sifatida keltirishimiz mumkin.

Innovatsion faoliyat - deganda, iqtisodiy faoliyat sohasidagi jarayonlarni radikal tarzda o'zgartirishga yordam berishi mumkin bo'lgan biron bir yangilikni yaratish tushuniladi.

Maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion faoliyat - bu tashkilot moddiy-texnika bazasini va ta'lim-tarbiyani yangilashga va rivojlantirishga imkon beruvchi yangi g'oyalar va ishlanmalarni yaratish, o'zlashtirish va tatbiq etishga qaratilgan jarayonlar majmuasi tushuniladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni tashkil etuvchi jarayonlar quyidagilar:

- g'oya va ishlanmalar yaratilishi;
- qo'shimcha pul mablag'larni yaratilishi;

- innovatsion mahsulot (yangi ta'lim tarbiya va xizmat turlari namunalari, dasturiy ta'minot va boshqalar)ni yaratilishidir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining innovatsion faoliyati natijasida yuzaga kelgan g'oya va ma'lumotlarni tayyor turdagi ta'lim-tarbiya va xizmatlar holatiga keltirish mobaynida g'oyani rivojlantirish, uni moliyalashtirish, sinov guruhlarini tashkil etgan holda ularda yaratilayotgan ta'lim-tarbiya va xizmatlarni tadbiq etish hamda yakuniy bosqichda tayyor yangi ta'lim-tarbiya va xizmatlarga ega bo'lish jarayonini tashkil etish, uni qo'llab-quvvatlanishida, moliyalashtirishni tashkil etish uchun albatta boshqaruvning roli nihoyatda kattadir.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda biz innovatsiyalarni yaratishda innovatsion menejmentning zarurligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki maktabgacha ta'lim tashkilotlari boshqaruvida innovatsion menejment usullaridan keng foydalanish orqali tashkilotda ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshishiga, hamda tashkilotning faoliyat davomiyligini ta'minlanishida ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotini samarali va oqilona boshqarish uchun ta'lim menejeri – mudir, direktor, direktor boshqaruv asoslarini puxta egallashi, direktorning ijobiy konstruktiv yondashuvi va yetakchilik vazifalari asosida zamonaviy samarali strategiya va maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish usullari hamda jamoa bilan ishlash texnologiyalarini tushunishi kerak.

Adabiyotlar

1. 2019-yil 16-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" O'zRQ-595-son qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 391-sonli qarori.
3. Fatxuddinov R.A. "Инновационный менеджмент: классификация, структуры и отличительные черты инновационных организаций; Экономические зоны, законы организации, научные подходы и принципы и др.": Учебник для вузов. Изд.5-э, испр., доп. «Питер», 2007.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 20-martda "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus
5. F. Qodirova, Sh. Toshpo'latova, M. A'zamova Maktabgacha pedagogika T.: Ilm-ziyo. 2019-yil
6. Abdullaeva Q. Yangi pedagogik texnologiyalar. Boshlang'ich ta'lim. «O'qituvchi», 1998, 4-son, 16-21- betlar.

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MA'NAViy-AXLOQIY
TARBIYALASHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASIDAGI
INTEGRATSION YONDASHUVDAN FOYDALANISH***Saminova Shoiraxon**Qo`qon Universiteti "Maktabgacha ta'lim" 2-kurs talabasi
Farg'ona viloyati Quva tumani 17-DMTT tashkiloti tarbiyachisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash holatini o'rganish muhim vazifa sanaladi. Shu boisdan ushbu maqolada biz maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xorijiy mamlakatlar tajribasidagi integratsion yondashuvdan foydalanishning ahamiyati haqida so'z yuritdik.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-emotsional, kommunikativ, xabardorlik, matematik, jismonan, ijodiy barkamollikka erishish, intellektual.

Аннотация. В данной статье важной задачей считается изучение состояния духовно-нравственного воспитания дошкольников на основе комплексного подхода в организации дошкольного образования. Поэтому в данной статье мы говорили о важности использования комплексного подхода, основанного на опыте зарубежных стран, в духовно-нравственном воспитании дошкольников.

Ключевые слова: социально-эмоциональный, коммуникативный, осознанность, математический, физический, достижение творческого совершенства, интеллектуальный.

Abstract. In this article, it is considered an important task to study the state of spiritual and moral education of preschool children based on an integrated approach in the preschool education organization. Therefore, in this article, we talked about the importance of using an integrated approach based on the experience of foreign countries in the spiritual and moral education of preschool children.

Key words: social-emotional, communicative, awareness, mathematical, physical, achieving creative perfection, intellectual.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim - tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori[1] bilan tasdiqlangan «Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan dastur»ning asosiy maqsadli vazifalari va yo'nalishlari qatorida ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish belgilangan.

Qarorga ko'ra, maktabgacha ta'lim tizimini tanqidiy o'rganish va yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo'yicha komissiya tashkil etilgan hamda uning asosiy vazifalari qatorida quyidagilar belgilangan:

✚ maktabgacha yoshdagi bolalarni uyg'un rivojlantirish sohasidagi ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda, sifatli maktabgacha ta'limni tashkil etishda davlat talablarini qayta ko'rib chiqish;

✚ mavjud amaliyot va ilg'or xorijiy tajribani o'rgangan holda, nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini litsenziyalashning soddalashtirilgan tartibini joriy etish, ularning tashkiliy-huquqiy shakllarini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, uning hududiy bo'linmalarining asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari qatorida ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish berish belgilandi.

Barcha mamlakatlarda pedagoglar faoliyati uchun maksimal qulay sharoitlarning yaratilgani, pedagogning ijodiy erkinligi, katta hajmdagi hisobotlarning yo'qligi, davlat bog'chalari pedagoglari ijtimoiy statusining yuqoriligi, bolalar o'zlarini namoyon qilishlari uchun yaratilgan ijodiy muhit, jumladan xonalarning hatto kichik detallarigacha qulay dizayni va jihozlangani, ular uchun boy adabiyotlar va rivojlantiruvchi o'yinlarning mavjudligi, erta bolalikdan jamiyatda o'zini tutish va shaxsiy gigiena ko'nikmalarini tarbiya qilish maktabgacha ta'lim tizimi muvaffaqiyatining asosini tashkil etadi.

Quyida biz ba'zi bog'chalarning faoliyatiga nazar tashlaymiz.

Koreya bog'chalarda asosan musiqa, rasm, hisoblash mashg'ulotlari integratsion shaklda tashkil etiladi. Koreys bog'chalarida bolalarda mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik kabi ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga katta e'tibor berilishi, ta'lim-tarbiya jarayonini uzviylikda olib borilishi, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimida Koreya tajribasidan foydalanish imkoniyatlarini kengligini ko'rsatadi.

Xitoy bog'chalarida bolalar tarbiyasi integratsion ko'rinishga egaya'ni, jismoniy rivojlanish bilan uyg'unlikda olib boriladi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni jismonan, aqlan, estetik rivojlanishlarida ko'mak beradi, bu bilan bolani eng kichik yoshidan barkamol shaxs bo'lib rivojlanishini ta'minlaydi. Bolalar bog'chasida tarbiyaning asosiy vositasi o'yin hisoblanadi, u yerda bolalarning rivojlanishi uchun butun sharoitlar yaratilgan, o'z qobiliyatlarini namoyon qilish imkoniyatlari ta'minlangan. Bolalar bog'chasida qat'iy tartib va intizom o'rnatiladi, bolalar erkaliklari ta'qiqlanadi. Tarbiyachilar bolaning shaxsiy hususiyatini yaxshi biladilar, lekin bu hususiyatlari tug'ma deb hisoblamaydilar. Bolalar bog'chasida o'zaro urushlar, erkaliklar, kattalar talabiga bo'ysunmaslikka yo'l qo'yilmaydi, yomon intizom ilk ko'rinishidayoq bartaraf etiladi, agar bola o'zini yomon tutsa, tarbiyachi uning yoniga kelib, bu holatini sezganini bildiradi, lekin gapirmaydi. Bola o'z aybini tushungachgina tarbiyachi uning nomini aytib chaqiradi. Urush, xonadan haydab chiqarish, umuman jazolash man etiladi. Intizomni yaxshi ushlab turishning samarali yo'li bu - taqqoslash va rag'batdir, deb

hisoblashadi. Bolalarni yoshligidan boshlab o'z xulq-atvorlarini tahlil etishga o'rgatib boriladi. Bolalar diqqat bilan eshitadilar va to'g'ri hayotiy misollarni eslab qoladilar. Har bir tartibsizlikka tanbeh beriladi, aks holda bola bu tarbiyasizlikni to'g'ri hisoblab, o'ziga singdirib olishi mumkin deb hisoblanadi. Xitoy bolalaridagi qat'iylik va mehnatsevarlik an'anaviy fazilatlarga aylangan.

Yaponiyada maktabgacha ta'lim tizimi ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Yaponlar farzandlari bilan 5 yoshgacha shoh bilan gaplashgandek muomala qilishadi, 5 yoshdan 15 yoshgacha qul bilan gaplashgandek, 15 yoshdan keyin esa tengdoshi bilan gaplashgandek muomala qilishadi. 15 yoshli o'smir - o'zining majburiyatlarini yaxshi biladigan, va qoidalarga bo'ysinadigan yoshdagi katta odam deb hisoblanadi. Yaponlar bolaning erta voyaga yetishi tarafdoridirlar. Turli yoshlarda tarbiyaning turli muammolariga urg'u beradi. Masalan, 1 yoshda - o'ziga ishonch hissini uyg'otish. 2 yoshda - amaliy san'at qul mehnatini ko'rsatish. 3 yoshda - burch hissini tarbiyalash. 4 yoshda - yaxshilik va yovuzlikni farqlashga o'rgatish. 5 yoshda - liderlik hislatlarini tarbiyalash, mustaqillikka, reja tuzish va ulami bajarishga o'rgatish.

Malayziya maktabgacha ta'lim tizimida 5 xil: ijtimoiy muloqatchanlik, intellektual salohiyat, jismoniy yetuklik, ruhiy tarbiya, mehnat ko'nikmalarini shakllantirish kabi yo'nalishlarda bolalarnirivojlantirib borilishi ham maktabgacha yoshdagi bolalar ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga integratsion yondashishni belgilaydi.

Fransiyada maktabgacha talim tashkilotlarida mashg'ulotlar tonggi soat 8:30 dan kechki 16:20 ga qadar olib boriladi. Chorshanba kunidan tashqari barcha kunlar mashg'ulot kunlari hisoblanadi. Chorshanba kunlari bolalar raqs, dyuzdo, futbol va shu kabi boshqa mashg'ulotlar bilan band bo'ladilar. Tashkilotlarda tabiatga doir mashg'ulotlar va rasm chizish ko'nikmalari shakllantiriladi. Shuningdek, chiroyli yozuvga alohida etibor qaratiladi. "Escargot" deb ataluvchi metod bog'chalarda keng qo'llaniladi va ushbu metod bolalarda tabiatga bo'lgan muhabbatni va hayvonlarga bo'lgan mehrni oshirishga xizmat qiladi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda integratsion yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash holatini o'rganish maqsadida quyida bir nechta horij mamlakatlari tajribasi tahlil etilgan. Biz barcha mamlakatlarning maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tizimiga nazar tashladik. Axamiyatlisi Germaniya maktabgacha ta'lim tizimi bo'ldi. Keling, Germaniya maktabgacha ta'lim tizimini batafsil o'rganib chiqamiz. Germaniyada maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rang-barang shakllari va turlari hayratlantiradi.

Shuningdek, Germaniyada Valdorf bolalar bog'chalari va Montessori tizimida ishlaydigan bolalar bog'chalari ham mavjud. Agar o'rta statistik nemis bolalar bog'chasini olsak, uning faoliyati loyihalar tamoyili asosida tashkil etilganligi namoyon bo'ladi. Masalan, «Kasb» loyihasi davrida bolalar tarbiyachi bilan ekskursiyalarga boradilar, turli narsalar yasaydilar, teatrlashtirilgan sahnalar qo'yadilar, pechene pishiradilar, loydan narsalar yasaydilar va hokazo. Germaniya maktabgacha tashkilotlarida bolalarning ijodkorligi, ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga yondashishda integratsiya usulidan keng foydalaniladi.

Xulosa. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tarbiyalashdagi bunday ijobiy qarashlar bilan bir vaqtda, xulosa tariqasida aytish joizki xorijiy mamlakatlarning maktabgacha ta'lim tizimlarini o'rganish, ularning ilg'or tajribasini tahlil etish va respublikamiz sharoitiga moslashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish mamlakatimiz maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirib zamonaviylashtirishga imkon yaratadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. - T.:2018 y.
2. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi.- T.:2018 y.
3. Г.И.ХАСАНОВА "Таълим жараёнида дастурлаштирилган ўқитиш технологиясидан фойдаланишнинг афзалликлари" Жиззах: 2020. 420 бет. 223-225б

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISI VA UNING INNOVATSION
FAOLIYATI**

Ходжамуратова Раъно Джумаевна

Термиз шаҳар 5-умумий ўрта таълим мактаби ўқитувчиси

Annotatsiya. Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llari, boshlang'ich sinflarda foydalanish mumkin bo'lgan innovatsion texnologiyalarning didaktik tamoyillari, dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish va boshlang'ich sinflarda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati haqida ma'lumot berish.

Kalit so'zlar: intarfaol metodlar ,innovatsiya, pedagogik texnologiya, didaktik tamoyillar.

Hozirgi zamon boshlang'ich sinf o'qituvchisining asosiy fazilatlaridan biri — o'z kasbiga sadoqatligi, g'oyaviy e'tiqodligi, o'z kasbini sevishi uni boshqa kasb egalariidan ajratib turadi. Chunki maktabda ta'lim-tarbiya ishining yuqori saviyada olib borilishi faqat o'qituvchiga, uning kasbiy tayyorgarligiga bog'liq. O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablardan biri shuki, u o'zi o'qitayotgan predmetlarni chuqur bilishi, uning metodikasini o'zlashtirib olgan bo'lishi zarur. Predmetni va uning nazariyasini chuqur bilishi, uni qiziqarli qilib o'quvchilarga yetkaza olishi bolalarning shu predmetga bo'lgan qiziqishini orttiradi, o'qituvchining obro'yini oshiradi. O'quvchilar o'qituvchining o'z bilimlarini bolalarga yetkaza olish imkoniyatlarini qadrlabgina qolmay, balki uning fidoyiligini ham taqdirlashadi. O'qituvchining yuksak madaniyati, uning teran bilim doirasi (ayniqsa, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng xalqimizning o'z tarixi, madaniyati, urf-odatini o'rganishga, bilishga bo'lgan qiziqishi ortib borayotgan davrda) ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyatli kechishiga yordam beradi.

Hozirgi zamon o'qituvchisi va ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchisi milliy qadriyatlarimizni bilibgina qolmay, keng ota-onalar jamoatchiligi ichida, sinfda uning otashin targ'ibotchisi ham bo'lishi kerak. O'qituvchi kasbiga xos bo'lgan muhim talablardan biri— bolalarni sevish, ularning hayoti bilan qiziqish, har bir shaxsni hurmat qilishdan iboratdir. Bolani sevgan, butun kuch va bilimni bolalarning kelajagi, ularni Vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar qila oladigan insongina haqiqiy o'qituvchi bo'la oladi. Bolaga befarq, uning kelajagi bilan qiziqmaydigan, o'qituvchilik kasbiga loqayd inson haqiqiy o'qituvchi bo'la olmaydi.

«Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi» da boshlang'ich sinf o'qituvchisining qiyofasi quyidagicha ta'riflanadi: «...eng muhimi, bolalarda o'qish, o'rganishga chinakam havas, ishtiyoq uyg'otuvchi, e'tiqod hosil qiluvchi ustoz sifatida alohida o'rin tutadi». Bu konsepsiyada boshlang'ich sinf o'qituvchisiga qo'yiladigan quyidagi talablar ham keltiriladi:

— O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat ekaniga ishonadigan milliy iftixor tuyg'usiga ega bo'lishi;

— bolalarni xalq pedagogikasi durdonalari hamda milliy qadriyatlarimiz asosida tarbiya qila olishi;

— nutqi ravon, xalq tili boyligi, ifoda usuli va tasvir vositalarini, adabiy til uslub va me'yorini to'la egallagan bo'lishi zarur.

O'qituvchilik kasbiga xos bo'lgan bunday fazilatlarni undagi pedagogik odob shakllantiradi. Pedagogik odob o'qituvchining yuksak kasbiy fazilatidir. U o'qituvchining sabotli bo'lish, o'z hissiyotini idora qila olishi, bolalarga pedagogik ta'sir o'tkazish vosita va me'yorlarini belgilashi va aniqlashiga yordam beradigan fazilat hisoblanadi. Yuksak pedagogik odobga ega bo'lgan o'qituvchigina sinfda mo'tadil psixologik iqlim o'rnatiladi, bolalar qalbiga tez yo'l topa oladi. O'z xizmati xususiyatiga ko'ra o'qituvchi tashkilotchilik fazilatiga ham ega bo'lmog'i lozim. Buning uchun o'qituvchi tashabbuskorlik va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lib, har doim tetik, g'ayratli, o'z kuchi va imkoniyatiga ishongan bo'lmog'i zarur. Tashabbuskor va g'ayratli o'qituvchi bolalarni o'z orqasidan ergashtira oladi, o'quvchilar unga ergashadi. O'qituvchilik kasbi juda katta ruhiy va jismoniy kuch talab etadi, shuning uchun o'qituvchining salomatligiga ham ma'lum talablar qo'yiladi. O'qituvchining ovoz paychalari rivojlangan, ko'rish qobiliyati yaxshi bo'lishi, uzoq vaqt tikka tura olishi, ko'p yurishi, epchil harakat qila olishi (ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilari) kerak. Chunki kichik maktab o'quvchilari tinib-tinchimaydigan, o'ta qiziquvchan, serharakat bo'ladilar. Bu sharoitda o'qituvchi ham shu xususiyatlarga ega bo'lmog'i lozim. O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan umumiy talablar bilan bir qatorda, boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbining o'ziga xosligi ham ayrim muayyan talablarni keltirib chiqaradi. Chunonchi, boshlang'ich sinf o'qituvchisi anatomiya, fiziologiya, maktab gigiyenasi fanlaridan xabardor bo'lmog'i, o'quvchilar faoliyatini shu fanlar tavsiyasi asosida tashkil etishi lozim (sinflari gigiyenik talabga javob berishi, o'quvchilar kun tartibi, ularning aqliy va jismoniy rivojlanishini kuzatish va to'g'ri yo'naltirish); o'qituvchi o'z nutqini idora qilishi; adabiy nutq me'yorlariga rioya qilishi, ovozinig baland-pastligiga ahamiyat berishi (ortiqcha baland ovoz bilan gapirish ham, sekin gapirish ham bolalarni charchatib qo'yadi); nutqning jonli, ifodali bo'lishiga 32 e'tibor berishi; bolalarni charchatib qo'ymaslik maqsadida darsda ish turlarini tez-tez o'zgartira olishi, o'ta-onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni targ'ib qilishi, ular bilan yaqindan aloqa o'rnatilishi (bu faoliyat turi boshlang'ich sinf o'quvchilarining xulq-atvorini, mayllarini, jismoniy holatini o'rganishga yordam beradi) va ularga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishga yordamlashishi kerak. Nihoyat, u o'z ustida tinmay ishlamo'g'i lozim.¹⁵ Ayniqsa, qadriyatlarimizni o'rganishga, o'zligimizni tanishimizga, qadimiy madaniyatimizni bilishga ehtiyoj katta bo'lmoqda, zero, bu narsalarni bilmay turib mustaqilligimizni mustahkamlab, buyuk davlat qurib bo'lmaydi. Shunday ekan, boshlang'ich sinfdan boshlab bolalar sharqona tarbiya ta'siriga olinmog'i, milliy qadriyatni bilmog'i lozim. Bu o'qituvchidan shu sohada chuqur bilimga ega bo'lishni talab etadi.

O'yinlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, oliy o'quv yurtigacha va oliy o'quv yurtining boshlang'ich davrida quyidagi o'yinlardan foydalanish to'g'ri bo'ladi. Bular representativ professional faoliyatga bog'liq holatlar:

¹⁵ G'offorova .”BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR” “Tafakkur nashriyoti”- 2011.

— variativ usul — mazkur faoliyat uchun variant tanlash, muomalalik, o'qituvchining ish faoliyatini o'rganishga mo'ljallangan hamda asosiy masalalarni yechishga qaratilgan vazifalar kiradi.

— moslashuv usuli — muayyan bir masalani yechish usulini qo'llashdan iborat bo'lib, bu usul ishning yakunida aniq bir pedagogik faoliyatga moslashish kerak bo'ladi;

— evristik usul — masalaga mustaqil va yangicha yondashish.

Masalan, dars jarayonini metodik tahlil qilish; alternativ reja tuzish; ma'lumotni qabul qilish, tushunish, tashqi olamga ishonchni rivojlantirish; o'z-o'ziga hurmatni oshirish; o'ziga berilgan bahodan kelib chiqib ish sharoitini yaxshilash. Har bir yangilikning yechimini topish.

Shunday holatlarda insonning o'ziga o'zi ishonishi yaxshi natija beradi va tortinchoqlik yo'qoladi. O'qituvchi kirib kelayotgan yangilikni qabul qiluvchi va o'z hayotiga tatbiq qiluvchilardan biridir. O'qituvchi o'z faoliyatini o'zgartirishda novator bo'lishi lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun psixologiya tizimining o'z mexanizmi, ya'ni identifikatsiyasi bor.

Identifikatsiya — bu inson kechinmasining o'ziga xosligidir. Shunday ekan, har bir o'qituvchi yangilikni olib kiruvchi, rivojlantiruvchi novator bo'lib hisoblanadi. U yangilikni qabul qilib olar ekan, uning natijasini yaxshi tomonga buradi va uni hayotga tatbiq qiladi. Uni qabul qilish usullari quyidagicha tavsiflanadi:

1. Masalan, bizda bir yangi fikr bor. Bu fikrdagi yangilik, eskisi bilan qanday o'xshashligi solishtiriladi.

2. Buni biz bajara olmaymiz. Nega? Chunki biz bunda salbiy javobga loyiq ijobiy bazaga ega emasligimizga tayanamiz.

3. Bu yangilik hech qanday o'zgarishga olib kelmaydi. Bunda guruhga bo'lib o'qitishning ta'siri o'zgarishga olib kelmaslik fikri bor.

4. Bu yangilik qo'shimcha ish yuritishni talab etadi. Ish tajribasidagi kamchiliklar ishlab chiqiladi.

5. Bu yangilikning eskisidan unchalik farqi yo'qdir.

6. Yana qo'shimcha ma'lumotlar kiritilish usullari bo'lsa, kiritiladi. Tajribada boshqa maktablarning bu yangilikka kiritgan o'zgartirishi bilan tanishib chiqish. Bu yangilikning ish sharoitiga tatbiq qilish metodikasi ishlab chiqiladi.

1. Yangilik haqidagi hujjatni ishlab chiqish.

2. Kerakli tomonini alohida yoritish.

3. Eksperiment sifatida qo'llash.

4. Salbiy metod muhokamasi.

5. Ikkala natijani solishtirish. Insonning yangilik oldidagi qo'rquv fikrining salbiy ta'siri bo'ladi.

Bu pedagog o'zi tanlagan uslubini tatbiq qilishda ta'sir qiladigan to'siqlar hisoblanadi. Bunday izlanishlar shuni ko'rsatadiki, fikriy o'yin modellashtirilishda o'quv faoliyati ijodiy o'quv faoliyatiga o'tadi. O'yin modellashtirilishi bolaning fikrlash doirasini kengaytiradi va kelgusi faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

“Qaror qilamiz — baho bering” o'yini.

O'yinda parallel guruhlar qatnashadi. Birinchi guruhda o'qituvchi muammoli holatni yuzaga keltiradi, o'quvchilar o'z yechim variantlarini taklif etadilar. O'akliflar magnitofonga yozib olinadi. Yozish jarayonida o'qituvchi takliflarni o'rganib chiqadi. Munozara orqali masala o'z yechimini topadi. Ikkinchi guruhda ham shunday holat vujudga keltiriladi. O'quvchilar bu masalani yechishga urinadilar. O'qituvchi ularga: "Ilgariroq birinchi guruhda ham ushbu muammoni yechishga uringandilar. Ular qanchalik to'g'ri qaror qabul qilganliklarini tahlil qilib ko'rsangiz, chunki bugun sizlar ham shu muammoni hal qilmoqdasiz", deydi. Ular magnit tasmasiga yozilgan fikrlarni tahlil qilib ko'radilar. Qaror o'z tasdig'ini topadi. Bundan maqsad o'quvchilarning faolligi va fikrlash doirasini bilib olish. Didaktik o'yinlar chog'ida o'quv jarayoni quyidagicha tuziladi. Ya'ni muammoli vaziyat yaratish, o'yinning yo'nalishini belgilash, qo'yilgan ballarni jamlash va o'quvchilarning o'zini baholash. Bo'lg'usi o'qituvchilarning rivojlanishida imitatsion modellashtirish o'yinlari ham katta rol o'ynaydi. Bunday o'yinlarda muammoli pedagogik vaziyatlar vujudga keltiriladi. O'yinlarni teatrlashtirish, unda pedagoglar ham rol olib ishtirok etishlari mumkin. Bu o'yinlar aniq bilimlarni o'zlashtirishda yordam beradi.¹⁶

Eksperimental ish jarayonining birinchi bosqichida mashqli o'yinlardan foydalanilgan edi. Chunki ular diqqatni oshirishga, xotira va fantaziyani kuchaytirishga yordam beradi. Ushbu bosqichda barcha o'yinlar jamoa bo'lib o'ynalgan edi, chunki auditoriya oldida bo'lganda bolada qo'rquv paydo bo'lishi mumkin. Sekin-sekin biz individual vazifalar bajarishga o'tdik.

Ikkinchi bosqichda biroz murakkablashtirilgan vazifalarga o'tiladi. Bunday vazifalar yordamida o'ziga, o'qituvchiga o'z kasbiga bo'lgan munosabati aniqlanadi. Masalan: "Kim haq?", "Qanday yordam berish mumkin?", "O'qituvchilar xonasidagi suhbat" kabi mavzulardagi etudlar yordamida bo'lajak o'qituvchilarning fikr va mulohazalari bilinadi. Bunday munozaralar mavjud vaziyatda "muammoni ko'ra olish"ni o'rgatadi. Va uning bir necha yechimlarini topadi. Teatrlashtirilgan o'yinlar his-hayajonga boy bo'ladi va ayni choqda ular qo'shimcha tahlilga ham muhtojdir. Shunga ko'ra muammoni yechish uchun bo'lajak o'qituvchilarga quyidagicha masalalar topshiriladi: "O'qituvchingizni himoya qiling". Bunda o'qituvchilarning xarakterlari, ularning ish metodi tahlil qilinadi. "Ikki xil xarakter qiyoslanadi", "Agar sen³/₄ bo'lganingda ³/₄" va hokazo. Bu o'yinlarda o'zaro munosabat tushunchasiga ham alohida o'rin beriladi. Bu bosqichda odamning "yuzidan uqish", ya'ni uning mimikasiga qarab his-tuyg'ularini tushunish hisobga olinadi. Bu o'yinning nomi "Sehrlangan bola". Shunday tajribalarning tahlili shuni ko'rsatdiki: o'yin faoliyati davomida bo'lajak o'qituvchilarda har xil muammolarni mustaqil yechish xususiyati aniqlangan. Bu bosqichni sensitiv deb atash mumkin. Aynan shu bosqichda o'qituvchi to'liq shakllanib, atrofdagilarga e'tiborli, ochiq ko'ngil bo'ladi va pedagogik masalalarga professional darajada yondasha boshlaydi. Bunday bilim olish bosqichlari

¹⁶ Tosheva Nurzoda Toshtemirovna..Education process directed to the person as the basis of increasing knowing activity of pupils. // The advanced science open access journal. United states, 2013. No6. Стр. 83-85.

jarayonida u mukammal shaxs, bilim darajasi yuqori talaba bo‘lib yetishadi. Buning uchun shaxsni shakllantirish texnologiyasini qo‘llash lozim.¹⁷

“Erudit” o‘yini. Bir necha mavzularni yakunlagandan so‘ng ushbu mavzular yuzasidan muammoli vaziyat yaratuvchi bittadan savollar tuzib, kartochkaga yozib, hay‘at a‘zolariga tarqatiladi. Hay‘at a‘zolari 2—3 kishidan iborat bo‘ladi. Hay‘at a‘zolari bilan birga (10—12 ta savolnomadan) eng qiziqarli savollar aniqlab chiqiladi. O‘yin boshlanishidan oldin kartochkalar stol ustiga terib chiqiladi. Har bir guruhdan bittadan qatnashchi chiqib, o‘zining guruhi uchun 4 ta savol tanlab oladi. Shundan so‘ng ularga tayyorlanish uchun vaqt beriladi. Muammoni yechish uchun har bir guruh hamjihatlikda ishlaydi. Agar savol murakkabroq bo‘lsa, boshqa kartochka olish imkoniyati ham beriladi. Biroq yakuniy baholashda hisobga olinadi. O‘yin oxirida hay‘at a‘zolari berilgan javoblar va mustaqil tayyorlangan savollar yuzasidan baholarni e‘lon qiladilar.

“Hamrohlik” o‘yini. Guruhlar 3—4 ta muammoli “laboratoriya”larga bo‘linadi. Muammo yuzasidan beriladigan ilmiy yangilikning bir qismi og‘zaki ravishda aytiladi. Muammo yuzasidan barcha qo‘shimcha ma‘lumotlarni o‘quvchilar o‘qituvchiga savollar berib aniqlab oladilar. Javoblar “laboratoriya” a‘zolari o‘rtasida muhokama qilinadi. Olingan ma‘lumot muhokamasidan so‘ng qatnashchilar muammoning yechimini aniqlaydilar. Keyin har bir “laboratoriya”dan bir kishi muammo yechimi yuzasidan o‘zining variantini aytadi. Shundan so‘ng har bir guruh o‘zining yechimini isbotlab beradi. Xohlovchilar bo‘lsa, bu muammo yuzasidan qo‘shimcha qilib, o‘z fikrlarini bildiradilar. Guruhlarning fikrlari muhokama qilinib, baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Тошева Н.Т. Бошланғич синф ўқувчиларида билиш фаолиятини шакллантиришнинг ўзига хос хусусиятлари Муғаллим ҳам узлуксиз билимлендириў.– Нукус, 2020. –No2. –Б. 126-132. https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/1544/941.
2. Tosheva Nurzoda Toshtemirovna..Education process directed to the person as the basis of increasing knowing activity of pupils. // The advanced science open access journal. United states, 2013. No6. Стр. 83-85.
3. Abdumajitova S. A. STEAM TEACHING TECHNOLOGY IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS AS A FACTOR OF EARLY DEVELOPMENT //Экономика и социум. – 2021. – №. 1-1. – С. 10-13.
4. Abdukasimovna, A. S. (2022). STEAM-THE IMPORTANCE OF EDUCATING PRESCHOOL CHILDREN BASED ON EDUCATIONAL TECHNOLOGY. Results of National Scientific Research International Journal, 1(7), 75-80

¹⁷ Тошева Н.Т. Бошланғич синф ўқувчиларида билиш фаолиятини шакллантиришнинг ўзига хос хусусиятлари Муғаллим ҳам узлуксиз билимлендириў.– Нукус, 2020. –No2. –Б. 126-132. https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/1544/941.

**IMPLEMENTATION OF KAHOOT AND WORDWALL TO IMPROVE
VOCABULARY ASPECT IN INTERMEDIATE LEVEL IN FLT**

*Supervisor: O'ljayeva Shaxzoda Turdaliyevna,
Student: Ibrahimova Shahloxon Berdiyrovna
lizaibrahimova@mail.ru*

Annotation. This study aims to improve the vocabulary knowledge of intermediate language learners by using Kahoot and Wordwall online teaching tools in practice. We have created tests and vocabulary quizzes to investigate if the Kahoot and Wordwall can enhance our students' vocabulary skills. To check this research project, we have taught vocabulary with the help of exercises given official english book for three lesson. After the process we took pre-test to check what they got from the lessons. Then, we created two online teaching tool quizzes to practice their vocabularies for a week. After this teaching process, students passed a post test to figure out whether the progress was successful or not. Finally, we gained all the data we needed and announced the the result of our research in the result and discussion part.

Keywords: Kahoot, Wordwall, quizzes, online teaching tool, post-test, pre-test.

Аннотация. Это исследование направлено на улучшение словарного запаса учащихся, изучающих языки на среднем уровне, с помощью онлайн-инструментов обучения Kahoot и Wordwall на практике. Мы создали тесты и викторины по словарному запасу, чтобы выяснить, могут ли Kahoot и Wordwall улучшить словарный запас наших учащихся. Чтобы проверить этот исследовательский проект, мы преподавали словарный запас с помощью упражнений, данных официальной книгой по английскому языку в течение трех уроков. После процесса мы прошли предварительный тест, чтобы проверить, что они получили от уроков. Затем мы создали две онлайн-викторины с инструментами для обучения, чтобы в течение недели практиковать словарный запас. После этого учебного процесса студенты прошли пост-тест, чтобы выяснить, был ли прогресс успешным или нет. Наконец, мы получили все необходимые данные и объявили результат нашего исследования в части результатов и обсуждения.

Ключевые слова: Kahoot, Wordwall, викторины, инструмент онлайн-обучения, пост-тест, предварительный тест.

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot Kahoot va Wordwall onlayn o'qitish vositalarini amaliyotda qo'llash orqali intermediate til o'rganuvchilarning so'z boyligini oshirishga qaratilgan. Kahoot va Wordwall o'quvchilarimizning so'z boyligini oshirishi mumkinligini tekshirish uchun testlar va quizlar yaratildi. Ushbu tadqiqot loyihasini tekshirish uchun rasmiy ingliz tili kitobida berilgan mashqlar yordamida uch ta dars davomida shug'ullanildi. Jarayondan avval, talabalarining darslardan olgan bilimlarini tekshirish uchun oldindan test o'tkazildi. So'ngra, bir hafta davomida ularning so'z boyligini mashq qilish uchun ikki ta onlayn o'qitish vositasi quizlari yaratildi. Ushbu o'qitish jarayonidan so'ng talabalar muvaffaqiyatga erishgan yoki yo'qligini aniqlash uchun post testdan o'tishdi. Nihoyat, barcha zarur

ma'lumotlarni yig'ildi va taqdimot natijasi maqolaning natija va muhokama qismida e'lon qilindi.

Kalit so'zlar: Kahoot, Wordwall, quizlar, online o'qitish vositalari, post-test, pre-test.

Introduction. One of the upmost and significant elements in learning and teaching foreign language is learning vocabulary. In order to master all four major skills of language, having broad and rich vocabulary enables them to understand and comprehend the target language. It is compulsory to recognize and master vocabulary of the language if someone is learning the language. For this reason, it is vital to make up and fill their vocabulary. The quality of spoken and written form of learners with broad vocabulary is higher than the others with less vocabulary mastery. As mentioned by Thornbury "without grammar very little can be conveyed, without vocabulary nothing can be conveyed". It is a very meaningful phrase, and shows to us how important vocabulary is to language acquisition. If the learners are masters in grammar, yet he or she may not be able to be a good language user if they do not master the vocabulary. Therefore, vocabulary is compulsory to be taught to enhance English language competency. In vocabulary teaching and learning process, integration of technology become familiar nowadays. Since the advent of technology from the beginning of the 21st century, technology and language learning have become terms frequently encountering next to each other, therefore resulting in web-based tools being used in English language classrooms. The concept of including web-based tools in these classrooms is named as 'CALL', namely the process which language learners use a computer to improve their language. Another related concept is DGBLL, Digital Game Based Language Learning, which is a term that came out after CALL. Although it resembles CALL, it has been brought forth with the addition of the concept of the game being greatly emphasized. Cornillie defined DGBLL as the design and use of various types of digital games for language learning and second or foreign language teaching purposes. Many research studies have been conducted related to DGBLL in recent years. These studies have been conducted on two distinct subfields of DGBLL, which are COTS (commercial off-the-shelf) adventure-entertainment games, and educational games. Looking back into the literature of DBGLL, it's been revealed that the majority of the studies on this field have been made on adventure-entertainment games. Examples of COTS games can be World of Warcraft and Food Force. Since the majority of research is on COTS games, more research studies are needed to be conducted on educational games. Even though there are many research studies that have explored the use of some frequently used web tools such as Kahoot, there is a lack of research on specific web tools, like Wordwall.net. Hence, the present study aims to measure the effectiveness of a single educational game website Wordwall on the vocabulary knowledge of 11th grade English preparatory class students. Wordwall is an edutainment website in which there are multiple game choices, all played interactively or individually, such as information matching, picture matching, quiz, wheel of fortune, puzzles, etc. designed for vocabulary practice. On this website, teachers either create their own games out of ready-made templates and add up

content (words and images) in the games or they make use of games created by other teachers. Wordwall was previously designed as computer software, but since 2016 the website of the software was designed and ever since the website has been used more frequently than the software.

Therefore, in the following sections, previous empirical research on edutainment games and their uses for the purposes of teaching English and especially practicing vocabulary will be mentioned. This research work proposed a review of current empirical studies on explicit instructional strategy with technology integration and without technology integration in vocabulary teaching and learning to seek the effectiveness of explicit instructional strategy itself and also the effectiveness of technology integration in the strategy. Then, details about the procedure and findings of the study will be revealed.

Literature Review. Hornby (1995) clarified, there were three important elements in vocabulary learning which are words that make up a language, words that learners are familiar with or used in communication, reading or writing and also words that learners recognize its meaning. Further, added that vocabulary mastery includes “grammatical behavior, the word derivation, collections of the words, connotation or association of the word and word frequency”.

On the other hand, Shamsiyeva (2018) defined two categories of vocabulary which are oral and print vocabulary. Vocabulary in listening and speaking are known as oral vocabulary while the other one, print vocabulary used widely in reading and writing. She added that another two categories of knowledge are receptive and productive. The differences between two of them taken as “Receptive carries the idea that we receive language input from others through listening or reading and try to comprehend it. Productive carries the idea that we produce language forms by speaking and writing to convey messages”. Hiebert and Kamil (2005) added that learners are familiar with the words and frequently use the words in productive vocabulary while for receptive is vice versa. Yet they still are capable of understanding the words from someone`s even though they are faulty.

In addition, Sitompul (2013) highlighted that effective learning in teaching and learning vocabulary is using wordlists and flashcards. Yet using words lists is also useful, less time consuming and economical even though it is a bit monotonous whereby young learners easily lose their attention and get bored. Apart from that, games are always close to young learners. Al Neyadi (2007) mentioned in her study that games effectively boost and enhance young learners` ability to memorize. Surprisingly, games helped learners comprehend the word sand they were motivated to recognize its meaning. She added they experienced new teaching methods, and enjoyed that much compared to traditional one. Therefore, teachers and educators have to create something interesting and attractive to meet students` interest, yet meaningful and effective in vocabulary acquisition. Currently, explicit instructional strategy of vocabulary acquisition is as easy as development of varieties of gadget and application in technology that are interesting and user friendly (Wang, 2015).

Another approach used to acquire vocabulary which proven to lead to effective learning is via computer and smartphones. It also exemplifies via the

gadget, learners attained victorious bloom in these students' vocabulary competency from time to time (Wu, 20014). Variety of software programs and applications which consist of vocabulary features lie meaning in target language, synonym, antonym, spelling, pronunciation and part of speech are really useful for the learners comprehending the concept (Nakata, 2008).

Barr (2016) explored the effectiveness of KAHOOT for vocabulary teaching between different learner types; kinaesthetic/visual learners and users/non-users of the application. 32 first-year students in a Japanese university studied flashcard sets on KAHOOT for 15 minutes for 4 units in their textbooks. 4 vocabulary tests comprising of the vocabulary in these units and flashcards which were applied at the end of each session were involved. The results of the tests revealed that KAHOOT users scored more than nonusers. But, there was only a slight difference in scores between the kinaesthetic and visual learners, the former having higher results. Therefore, it could be observed that the use of KAHOOT is effective in vocabulary learning, regardless of the differences in the learner styles.

Wright (2016) also explored the use of KAHOOT to measure the easiness of preparing flashcards and its contribution to learner autonomy in an EFL context in Japan. Moreover, the time interval it took for students to prepare their own flashcards and the level of accuracy of these flashcards were explored. 106 university students in Japan studied 10 sets of ready-made flashcards during a 15-week period. In the 15th lesson, they were asked to create their own flashcard sets related to the vocabulary they had studied, during which the instructor set time to see how much it took them to create the sets. The results were that it took minimum 3 minutes, maximum 19 minutes and the average was 7 minutes between all students and the accuracy was 36.2%; the remaining 63.7% consisting of one or more mistakes. Hence, the researcher concluded that preparing KAHOOT flashcards is not so time-consuming, which will be good for the students' own learning processes, but they need to be more careful about the accuracy of their content.

Methodology. This research aims to find an answer to the following research questions:

1. To what extent Kahoot and Wordwall can improve the vocabulary proficiency of intermediate level learners?
2. Is there any difference between the results of the group's pre-test and post-test in terms of used online learning tools?

Our project is considered as quantitative research. We have used experimental research design to teach our comparison group. We aimed to clarify the effect of online teaching tools in classroom and the improvement of vocabulary proficiency of a group over time by giving a special treatment. At first, we have conducted a lesson with paper-format exercises to improve their vocabulary skills. Then we will take a pre-test to check their knowledge on the previous topic. After a week, we have taught vocabulary lesson with the help of online teaching tools- Kahoot and Wordwall, to strengthen their knowledge. Next, we have checked their progress with post-test.

We took 17- years-old students who studies at 11th grade in the 338th school of Tashkent as participants. We chose only one group whose learning progress is better than other groups. There are 20 pupils whose level is intermedia in this group.

We looked at the knowledge and potential rate among 8 classes of 11th grade of the school. Then, we chose the group whose potential is bigger than other groups. We will investigate the research work with an exact order of the tentative schedule of procedure. As the data collection tool, a vocabulary knowledge test of 30 multiple-choice questions was used as pre-test and post-test. The pre-test was applied right before the treatment and the post-test was applied one week after the treatment. The vocabulary topic taught during the treatments and presented in the tests was games and hobbies, which was present as a unit in the textbook. As for the material used for vocabulary teaching, the exercises in the textbook were used such as fill-in-the blanks, picture-words matching, and activities focusing on 4 skills.

Result and discussion. A hypothesis is a type of prediction found in many experimental studies; it is a statement about what we expect to happen in a study. In research reports, there are generally two types of hypotheses: (1) research hypotheses; and (2) null hypotheses. The null hypothesis (often written as H₀) is a neutral statement used as a basis for testing. The null hypothesis states that there is no relationship between items under investigation. The statistical task is to reject the null hypothesis and to show that there is a relationship between x and y. Given our hypothesis above that French-speaking learners of English would perform better following form-focused instruction than Japanese-speaking learners of English, the null hypothesis would be:

There will be no difference between the performance of the French group and the Japanese group on a post-test (Mackey_Gass, 2016, p 150).

From the definition above, we can say that our null hypothesis can be:

There will be no difference between the results of pre-test and the test that was taken after implementation of Kahoot and World Wall in the vocabulary aspect of intermediate learners.

There are two ways of formulating alternative hypothesis:

1. Non-directional or two-way hypothesis
2. Directional or one-way hypothesis

In that case, our non-directional hypothesis will be:

There will be a difference between the results of pre-test and the post-test after the implementation of KAHOOT and World Wall in the vocabulary aspect of intermediate learners.

As for the directional or one-way hypothesis, we will have enough evidence to predict it more clearly. In that case, our hypothesis can be:

Pupils will show better results in the post-test than pre-test after implementation of KAHOOT and World Wall in the vocabulary aspect of intermediate learners.

After clarifying our hypothesis, data analyses part should be done. After collecting necessary data from the participants in 2 steps: pre and post, we tried to

analyze it using JASP. It is known that The t-test can be used when one wants to determine if the means of two groups are significantly different from one another. There are two types of t-tests—one is used when the groups are independent and the other, known as a paired t-test, is used when the groups are not independent, as in a pre-test/post-test situation when the focus is within a group (a person’s performance before treatment compared with his or her own performance after treatment, (Mackey_Gass, 2016, 334). From the definition above, we can conclude that the appropriate means here is paired T-test, because we have got only one group with pre- and post-test results.

		Paired Samples T-Test						
		t	df	p	VS-MPR*	Mean Difference	SE Difference	Cohen's d
pre-test	- post-test	-18.29	12	< .001	8.330e +7	-9.385	0.513	-5.072

Note. Student's t-test.

* Vovk-Sellke Maximum *p* -Ratio: Based on the *p* -value, the maximum possible odds in favor of H_1 over H_0 equals $1/(-e p \log(p))$ for $p \leq .37$ (Sellke, Bayarri, & Berger, 2001).

Note. All tests, hypothesis is measurement one less than measurement two.

The alternative hypothesis can be either two-tailed, left-tailed, or right-tailed:

- **H_1 (two-tailed):** $\mu_1 \neq \mu_2$ (the two population means are not equal)
- **H_1 (left-tailed):** $\mu_1 < \mu_2$ (population 1 mean is less than population 2 mean)
- **H_1 (right-tailed):** $\mu_1 > \mu_2$ (population 1 mean is greater than population 2 mean)

mean)


For each test, the **t-value** is a way to quantify the difference between the population means and the **p-value** is the probability of obtaining a t-value with an absolute value at least as large as the one we actually observed in the sample data if the null hypothesis is actually true.

If the p-value is less than a certain value (e.g. 0.05) then we reject the null hypothesis of the test. Here in our case our null hypothesis is rejected, because p-value is 0.001 and it is less than 0.05.

		Descriptives			
		N	Mean	SD	SE
pre-test		13	7.538	1.506	0.418
post-test		13	16.923	1.320	0.366

Here the hypothesis is different, which means measurement 1 is less than measurement 2.

Descriptives Plot
pre-test - post-test



This is the results of hypothesis 1. According to the descriptive statistics, mean is 7.5 in the pre-test, 17 comparatively in the post-test.

Test of Normality (Shapiro-Wilk)

		W	p
pre-test	- post-test	0.897	0.120

Note. Significant results suggest a deviation from normality.

The Shapiro-Wilks [test for normality](#) is one of three general normality tests designed to detect all departures from normality. It is comparable in power to the other two tests.

The test rejects the hypothesis of normality when the [p-value](#) is less than or equal to 0.05. Failing the normality test allows you to state with 95% confidence the data does not fit the normal distribution. Passing the normality test only allows you to state no significant departure from normality was found. In this case our p-value is 0.210 which means our experiment passed the normality test. The Shapiro-Wilk test assesses whether a sample of data comes from a Normal distribution. The output displays the statistic, W, with its probability value under the assumption that the data are Normal. So a low probability indicates that the data are unlikely to be from a Normal distribution.

Conclusion. The technology-based learning method used in the 11th grade intermediate level pupils in the 338-school to teach vocabulary aspect. It was shown in the descriptive statistics that the overall result demonstrated our hypothesis is true.

Based on the technology-based learning method, Kahoot and Worldwall online teaching tools had been utilized to ease student’s learning process in order

to improve their vocabulary knowledge. As it was proven that this learning method could develop the learner's mastery of vocabulary skill.

The suggestion in this research were for school, it can motivate teacher to use newly developed methods in teaching process and ease facilitator's work much more rather than using paper format teaching materials, for teachers, it can increase the percentage of the students' participation and interest to learn new words and to use them in practice in the class. There were many students who are passive and procrastinate to learn new vocabulary day by day at the beginning of the research. However, they had been successfully engaged to the lesson after implementing Kahoot and Worldwall. Thus, it is suggested for the teachers to motivate students by using this conducted method in each learning and teaching steps in order to achieve learners' desired mastery level till the 100 percent.

Reference list

1. Almanar, M. A. (2019). Reviewing Students' Vocabulary Mastery By Using Kahoot At Holmesglen Partnering With University of Muhammadiyah Tangerang. *Acitya: Journal of Teaching and Education*, 78-87.
2. Asyiah, D. N. (2017). The vocabulary teaching and vocabulary learning: Perception, strategies, and influences on students' vocabulary mastery. *Jurnal Bahasa Lingua Scientia*, 293-318.
3. Çil, E. (2021). The Effect of Using Wordwall. net in Increasing Vocabulary Knowledge of 5th Grade EFL Students. *Language Education and Technology*, 21-28.
4. Derakhshan, A., Salehi, D., & Rahimzadeh, M.(2015). Computer-assisted language learning(Call): Pedagogical pros and cons. *International Journal of English Language and Literature Studies*,111-120.
5. Gürkan, S. (2018). The effects of a mobile assisted vocabulary learning application on vocabulary learning. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 288-311.
6. Laufer, B. (2003). Vocabulary acquisition in a second language: Do learners really acquire most vocabulary by reading? Some empirical evidence. *Canadian modern language review*, 567-587.
7. Maharaj, A. A. (2017). Speeding up vocabulary acquisition through action research. *International Journal of Applied Linguistics and English Literature*, 245-254.

“ЛИСОН УТ-ТАЙР” ДОСТОНИДАГИ БИР ҲИКОЯТ ҲАҚИҚАТИ*Зулайҳо Раҳмонова**ЎзР ФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори
институтининг катта илмий ходими,
филология фанлари бўйича фалсафа доктори*

Аннотация. Навоийнинг “Лисон ут-тайр” достонида нафс тарбиясининг усуллари бадиий талқин қилинган. Шоир Ҳақ йўлчисининг ҳол ва мақомларини теран англатиш мақсадида ибратли ҳикоятлардан фойдаланган. Мазкур мақолада маърифат водийси таърифидан сўнг келтирилган “Кўрлар ва фил” ҳикоятининг мазмун-моҳиятидан баҳс юритилади.

Калит сўзлар: тасаввуф, тарикат, муршид, мурид, ирфон, иршод, нафс, рух.

Аннотация. В эпосе Навои «Лисон ут-Таир» художественно осмыслены методы самосовершенствования. Поэт использовал образцовые рассказы для того, чтобы глубоко понять ситуацию и статус пути истины. В данной статье рассматривается суть повести «Слепой и слон», которая представлена после описания Долины Просветления.

Ключевые слова: суфизм, тарикат, муршид, мурид, ирфан, иршад, нафс, рух.

Annotation. The methods of self-improvement are artistically comprehended in the epic of Navoi "Lison ut-Tair". The poet used exemplary stories in order to deeply understand the situation and the status of the path of truth. This article discusses the essence of the story "The Blind Man and the Elephant", which is presented after the description of the Valley of Enlightenment.

Key words: Sufism, tarikat, murshid, murid, irfan, irshad, nafs, ruh.

“Лисон ут-тайр” мутафаккир ва мутасаввиф Алишер Навоийнинг умр сўнгида улвий назар, ориф қалб ила ёзилган достони. Мазкур асар имтиҳон дунёсида сайри жамол айлаган муаллифнинг убудиятидан, ишқу маърифатидан гоҳ мурид, гоҳ муршид сифатида ҳасби ҳол этган илҳом маҳсулидирки, замондошлари ҳам бунга иқрор этишган. Муаррих Ғиёсиддин Хондамир ҳам “Макорим ул-ахлоқ” асарида Алишер Навоийнинг аҳли дилга қанчалар ошнолиги ва ижтимоий-сиёсий фаолияти руҳоний ҳаётидан узок этолмагани ҳақидаги қарашларини икки асари билан далиллайди. “Улардан бири “Насойим ул-муҳаббат” тазкираси, яна бири эса “Фаридиддин Атторнинг “Мантик ут тайр” асарига муқобил тарзда туркий тилда шеърӣ йўл билан битилган “Лисон ут-тайр” (1499) рисолаидир. Ушбу қутлуғ асарда фано йўлидаги сайри сулук ҳамда Худованд даргоҳига яқинлик мақомига етишиш йўл-йўриқлари тўғрисида ҳикоя қилинади”. Дарҳақиқат, тасаввуфдаги ҳузури илоҳийя, завқу шавқ, ҳолу мақомларни акс эттириб, хосу хосларга маънавий йўлчилик ҳақида баҳс юритувчи “Лисон ут-тайр” висолга етиш усуллари кўрсатувчи бир дастур ул-амалдир. Бу йўлчилик – рух сафари. Бу куш тили – ишқ йўлидир.

Мазкур асар шарқ адабиётида ўзига хос жанрий хусусиятларга эга дoston ҳисобланади. Рамзий-мажозий ишорат тилида ёзилган дostonнинг таркибий тузилиши ҳам муаллифнинг мақсаду маслагини ёрқинроқ очиб беришга хизмат қилган. Шулардан бири дostonда ҳикоятларнинг келтирилишидир. Бу ҳикоятлар ўзидан олдинги бобда кўтарилган мавзуни, маънавий бир ҳолни теран англашга ва унинг ечимини топишга яқиндан ёрдам беради. Сайру сулукда жидду жаҳд айлаган соликка ҳолдошликни ҳис этишда айнан мана шу ҳикоятлар аҳамияти қийматли. Бу шарқ адабиётининг китобхонни таъсир доирасига киритувчи, қалбини маҳв этувчи синалган услубларидан биридир. Шу билан бирга Навоийнинг ҳикоятчиликдаги маҳорати, мазкур жанр тараққиётига қўшган улкан ҳиссаси ҳам алоҳида эътиборга молик. Асардаги уч ҳикоятни танлаб, уларнинг насрий баёнини шарҳлашга ҳаракат қилдик. Бу учала ҳикоятнинг изоҳи тасаввуфдаги маълум бир истилоҳ, тушунча ва ҳолларни бир қадар англашга йўл очиши шубҳасиз.

Дostonда Симурғни излаб йўлга отланган қушлар босиб ўтадиган водий еттига ажратилади. Нух сурасидаги: “Ҳолбуки У зот сизларни босқичма-босқич яратди-ку (Нух: 71/14)!” оятига асосланиб, мутасаввифлар Аллоҳ инсонни етти даражада яратган, деган фикрни илгари суришади. Шу тарзда тасаввуфда *атвори сабъ* – етти мақом: *нафс, қалб, руҳ, сир, сиррус-сир, хафи, ахфо* тушунчалари пайдо бўлган. “Лисон ут-тайр”даги етти водий ҳам ана шунга бир ишорадир. Қалб хасталигига даво излаб қилинган сафар жуда қаттиқ ва узоқ бўлишига қарамай, комил муршид тажрибаси билан етти водий: *талаб, ишқ, маърифат, истигно, тавҳид, ҳайрат* ва *фанога* ажратилиб, сайри сулукда изчиллик ва енгиллик ҳосил қилинган.

Ҳар бир водийнинг таърифу тавсифидан сўнг, Ҳақ йўлчисининг мақомини янада ёрқинроқ кўрсатиб бериш мақсадида “тамсил” деб номланган махсус боблар келади. Мазкур тамсиллар кичик ҳикоятлардан иборат. “Маърифат водийсининг васфи”дан сўнг “Кўрлар ва фил” ҳикояти келтирилади. У маърифат водийси ҳамда орифлик мақомининг мазмун-моҳиятини очиб беришга хизмат қилади. Руҳий тарбияда ҳар бир толибнинг феъл-атвори, маърифат даражаси инобатга олинади. Умумий бир тизим бўлса-да, тасаввуф хусусийлик касб этадиган тарбия йўлидир.

Ҳаққа бориш йўллари инсон нафаси янглиғ, дейди Навоий ҳазратлари ҳам. Бу йўлда пашшаю фил, Фиръавну Мусо, Дажжолу Исо бор. Кимдир Лотни паноҳ этса, кимдир “Ла илаҳа иллаллоҳ” дейди. Улар ҳар бири ўзича ҳақ. Инсоннинг залолати ва ҳидояти, тараққию таназзули маърифатидадир. Ушбу водийда кимдир адашиб йўлни йўқотади, кимдир ҳалок бўлади, кимдир манзилга етади. Аммо узун ва хатарли йўлни бир қадам қилиш чораси бор. Бу бору йўқдан воз кечиш, тажриду тафрид айлашдир. Ушбу ҳақиқатни олдинроқ манзилни қатъ этган йўл каровулигина аниқ кўрсата олади:

*Чун сулук ичра кўп эрди ихтилоф,
Кўпраги дурд эрди, лекин ози соф.
Ким равишда софи эрди машираби,
Бор эди ул тобеъи шаръи наби,–*

дея муаллиф маърифат водийсининг таърифини яқунлайди. Йўл ниҳоясига етиб, хазинани қўлга киритган тўғри йўл эгалари наби шаръига итоат қилганлардир. Демак, тўғри йўл дини ислом, шарияти Муҳаммадиядир. Зикр аҳли гўзал калима Тавҳид – Ла илаҳа иллаллоҳ, унинг мукамаллиги эса Муҳаммадур расулуллоҳ – Муҳаммад унинг расули иқрори билан дейишади. Шундай экан фано водийсига етиш ва бақобиллоҳга юз тутиш – “Барчаларингиз Аллоҳнинг арқонига боғланингиз ва бўлинмангиз” ояти билан Қуръони карим ва Ҳадиси шарифни ҳаёт мезонига айлантириш, илоҳий амрларга буйсуниш, тақдири азалга ризо бўлиш ва шукр этиш. Мана шу йўл турли-туманлиги каби ҳақиқатлар маърифат водийсида англашилади. Бунга жуда яхши мисол тариқасида “Кўрлар ва фил” воқеаси ҳикоя қилинади: Нақл қилишларича, бир гуруҳ кўрлар мусофирлик ёхуд асирлик туфайли Ҳиндистонга бориб қолибди. Бир замонлар ўтгач, тақдир тақазоси билан улар ўз юртларига қайтиб келишибди. Бир киши улардан сўрабди: “Ҳиндистонда филларни кўрдингларми?” Улар: “Ҳа”, – дея жавоб беришибди. “Кўрган бўлсангиз далил келтиринг-чи”, – дебди ўша киши. Аммо улар филни кўрмаган, ҳатто яхши сўраб суриштирмаган ҳам эди. Ҳар бири филнинг бир аъзосини пайпаслаб, у ҳақида ўзича тасаввур, билим ҳосил қилган эди, холос. Шу сабабли фил қўлларини ушлаган басир фил сутунга ўхшаркан деса, қорнини пайпаслаган “йўқ, у бесутун” дейди. Хартумини ушлаган филни аждаҳога ўхшатса, тишларини ушлаган бири “йўқ фил иккита суяк” экан, дея таъриф беради. Қуйруғидан хабар топган киши эса филни осилиб турган илонга қиёс этади. Филнинг бошини пайпаслаш насиб этган киши уни бир қоянинг тумшуғи дея шарҳлайди. Ниҳоят, филнинг қулоқларини пайпаслаган киши уни қимирлаб турган икки елпигич дея таърифлайди. Улар кўрлик юзасидан шу тариқа турли сўзлар айтдилар. Гарчи уларнинг барча сўзлари рост бўлса ҳам уларнинг ҳаммаси нуқсонли эди. Шу билан бирга бу таърифларда тартиб ҳам йўқ. Шунинг учун ҳам филбонликда етук донишманд устод, ўзи ҳинд бўлган киши фил ҳақида нақл қилганларни маломат қилмасдан шундай дейди: “Ҳар бир одам фил ҳақида билганларича хабар беришди. Улар бир-бирларига зид фикрларни айтган бўлсалар ҳам кечирарлидир. Зеро, уларнинг ҳар бири билганича сўзлади, бироқ бирортаси филни кўрмаган эди. Лекин улар айтган сифатларнинг бари жамланса, бир маърифат ҳосил бўлиб, улардан фил ҳақида муайян тасаввур дунёга келади. Комил кўрувчи зот буни аниқ билгани учун, ҳеч иккиланмасдан, кўрларнинг барча сўзларини чин дея тасдиқлайди. Мазкур ҳикоят орифона мушоҳада ила таҳлил ва талқин қилинса, тариқатнинг маърифат босқичи ҳақидаги тасаввурлар тиниқлашади. Ҳикоятда эътибор бериш зарур бўлган жиҳатлар: кўрлар, фил, филбон донишманд каби ладуний тимсоллар ва жойнинг Ҳиндистон дея танланиши. Кўплаб талқинларда таъкидланганидек, ҳикоятда Ҳиндистон Ҳақ даргоҳини тамсил этган. У ерга йўл олган кўрлар Ҳақ ирфонига талабгор йўлчилардир. Филбон эса комил муршид, фил ҳақидаги маърифатдан хабардор орифибиллоҳ. Шу боис у кўрларнинг ҳолини англайди ва уларни айбламасдан ҳар бирининг сўзини рост дейди. Зеро, нафс тарбиясида қанчалар маърифатга эришиб, солиқ юксак мартабаларга

кўтарилса ҳам Аллоҳ азда ва жалланинг бирор исм, феъл ва сифатлари тажаллисини англаб етади, холос. Демак, даҳри дунда мусофир инсон Ҳакни, маърифат нури ила кўрувчи басирлар филни ўз илму ирфонига яраша тасаввур этадилар. Бироқ Аллоҳнинг мутлақ зотига эришиш барибир имконсиздир. Шунга қарамай бу сифатлар бирлаштирилса, Зот ҳақидаги тасаввур мукаммаллашади:

*Лек жамъ ўлгонда бу барча сифат,
Пилга ҳосилдур улдам маърифат.*

Сайри сулукда босиб ўтилиши шарт бўлган маърифат водийсидан мурод мақсад ҳам ана шудир.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Navoiy A. Lison ut-tayr. MAT. 12-tom. Toshkent. Fan, 1996.
2. Navoiy A. Nayrat ul-abror. MAT. 7-tom. – Toshkent: Fan, 1991.
3. Alisher Navoiy Mukammal asarlar to‘plami. 17 jild. – Toshkent: "Fan" , 2001.
4. A.Navoiy. Lison-ut tayr. (nasriy bayoni) www. ziyo.uz kutubxonasi.
5. Иброҳим Ҳаққул. Тасаввуф ва шеърят. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991.
6. Раҳмонова З. ишқ, ирфон ва иршод. – Тошкент: “Тафаккур томчилари”, 2021.
7. G‘iyosiddin Xondamir. Makorim ul-axloq. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2015.

BULUT – NAFS

*Mo‘minova Aziza**Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti**Boshlang‘ich ta’lim va sport
tarbiyaviy ishi yo‘nalishi talabasi**Ubaydullayeva Shohista**Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti,
o‘simlik va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari karantini yo‘nalishi talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayevning “Bulut to‘sgan oy” hikoyasi tahlil etilgan va unda detallarning ahamiyati va asar bosh g‘oyasi haqidagi mulohazalar bildirilib, dalillar bilan asoslangan.

Kalit so‘zlar: oy, bulut, irmoq, nafs, muhabbat, shamol.

Hikoya qisqa hajmli bo‘lsa-da, unda katta muzmunni singdirish, butun boshli romanda ifodalab bo‘lmaydigan voqelikni tasvirlash mumkin. Bu albatta, ijodkordan katta mahorat talab etadigan ishdir. Bunday jarayonda yozuvchi asaridagi har bir elementga ma’lum bir ramz, sirli bir funksiya yuklaydi. Buni adabiyot bilan yaqindan aloqada bo‘lgan kitobxon yoki shu soha vakillari juda yaxshi ilg‘aydilar. Shukur Xolmirzayev ham hikoyalarida kichik detallarni juda mahorat bilan ishlatadiki, ularning hech biri oddiy tasvir uchun ishlatilmagandek go‘yo. “...Eslaysizmi, ustoz adibimiz Odil Yoqubov maqolalaridan birida Shukur Xolmirzaev o‘z hikoyalarida detallashtirishga alohida e’tibor beradi, deb yozgandi. Aslida detal barcha janrlarda ham o‘ziga xos o‘rin tutadi, lekin hikoyada boshqacha ahamiyat kasb etadi-da! Bilasiz, hikoya qisqa hajmli asar. Qisqalikka esa tasvirda so‘zlarni tejash orqali erishiladi. Ana shunda detallashtirish mahorati yozuvchiga qo‘l keladi. Ijodkorning topqirligi tufayli qo‘llangan detallar tilga kirganda hikoyani gapirtirib yuboradi. Kitobxon e’tibor bermay o‘tishiyam mumkin bo‘lgan bunday detallar yo‘l-yo‘lakay shunchaki eslab qo‘yiladi (ammo izziz ketmaydi) yoki bayon qilinayotgan voqelikka singdirib yuboriladi. Atoqli san’atkor Jek London: “Hikoya bu — tugal asardir. U hayotiy epizod, ruhiyat, vaziyat va harakatlar birligidir”, deganida bu janrda bir paytning o‘zida epiklik ham, lirizm ham, dramatik holat ham mujassam bo‘lishiga ishora qilgandi. Darvoqe, yaxlitlik, tugallanganlik hikoya janrining eng muhim belgilari sanaladiki, ularni ta’minlashda detalning ahamiyati juda muhimdir”[2:4]. Shukur Xolmirzayevning shunday o‘ziga xos asarlaridan biri “Bulut to‘sgan oy” hikoyasidir. Bu hikoyadagi detallarni tahlil qilgan Yo‘ldosh Solijonov hikoya haqida juda asosli fikrlar bildirgan. Undagi kichik detallarning ramziy belgilarini e’tirof etgan. Y. Solijonov hikoyadagi *shamol, yomg‘ir, irmoq, lola* kabi detallarni diqqat bilan tahlil etib, ularni hikoya qahramonlariga va ularning taqdir yo‘liga o‘xshatadi: “... “Bulut to‘sgan oy”dagi kuchli yomg‘ir Gulsaraga, guvillagan shamol esa Tavakkalga nisbat berilgan detallardir. Gulsara o‘ksik qalb egasi, turmushidan yolchimagan, ko‘nglidagi odamini topolmagan baxtsiz ayol. Bevaqt yoqqan kuchli yomg‘ir uning hayotini barbod qilgan. “Yomg‘irni bukib-qayirib” o‘z izmiga solishga urinayotgan shamol esa “novcha, norg‘ul yigit” Tavakkaldir.

Hikoyada yomg'ir, shamol va bulutlar ortidan chiqishga urinayotgan oy tasviri tez-tez takrorlanadi. Bu tasvirlar personajlarning ichki dunyosi, xatti-harakati, kayfiyati bilan chambarchas bog'lanib ketgan, obraz darajasiga ko'tarilgan. Yomg'ir, shamol va oy qahramonlarning holati, o'zaro munosabati, ruhiyatiga qarab o'z shiddati hamda shakl-shamoyilini o'zgartirib boradi"[2:4]. Hikoya qahramoni Tavakkalning hayoti ham tavakkalchilik asosiga qurilgan. Turmushidan yolchimagan bo'la-da, Gulsara gullarning sari aslida. Tavakkal haqiqiy mard, jasur, tanti o'zbek yigiti. U ham aslida yoshligidan yetimlikda katta bo'lgan. Shu oriyatli va millatparvarligi evaziga sakkiz yil qamoqda o'tirish bilan "mukofotlanib" ham bo'lgan. U har qancha mehribon, oqibatli inson bo'lmasin, ayollar bobida suyagi yo'q toifadan. Gulsara ta'biri bilan aytganda "perchatkaday almashtiradi". Asardagi yozuvchi Quvvatjon ham unga "... bu inson – bir qop yong'oq misolidir. Dali-g'uli, mard. Xullas, Temur bobo yurtining vallamat yigitlaridan..."[1:585], – deb ta'rif beradi. Bekorga *bir qop yong'oq* demadi. Qopda mag'zi to'q va puch yong'oq ham bo'ladi. Faqat uni chaqib ko'rganda bilish mumkin. Xuddi shunday Tavakkalning ham ayrim qiliqlari vaziyat taqazo qilganda ochilib boradi. Hikoyaning ikki o'rnida irmoqqa ishora mavjud. "...Hikoyada qo'llanilgan detallardan yana biri irmoqdir. Garchi irmoqni hikoyachi o'rtadagi suhbat maromiga nisbat berib tilga olsa-da ("suhbatimiz ravon oqayotgan irmoq maqomida davom etdi"), aslida bu asar qahramonlarining hayot yo'lini ifodalovchi detalga aylanadi. Masalan, Tavakkalning hozirgi hayoti sho'x, ravon oqayotgan irmoqqa o'xshaydi. Bolaligida ota-onasidan erta yetim qolib, og'ir qiyinchiliklarni ko'rib ulg'aygan bu yigitning hayoti o'xtin-o'xtin toshlarga urilib, sharqirab oqayotgan, manzilga yetish uchun o'ziga yo'l ochayotgan irmoqni eslatadi. Aksincha, Gulsaraning xarakteri, o'zini tutishi sokin jildirab, o'ziga ehtiyotkorlik bilan yo'l ochib berayotgan irmoqchani eslatadi"[2:4]. Hikoyaning bir necha o'rinlaridan qora bulutlar tagidan chiqishga urinayotgan oy tasviri uchraydi. Bu yerda oy va bulutlar garchand suhbat vaqtidagi ob-havoni tasvirlayotgandek tuyulsa ham aslida yozuvchi uni boshqa maqsad bilan ishlatgan: "... – Ko'ryapsizmi? – dedi Tavakkal. Men uni bog'ni tomosha qilyapti deb o'ylagan esam-da:

– Nimani? – dedim.

– Oyni-da, e, yozuvchi, – kinoya qildi Tavakkal. – Bulut to'sdi.

Xa-xa. Hozir o'tib ketadi. Oy yana ko'rinadi... Kallangizga biron gap keldimi?

– O'zimmi shu qora bulutga o'xshatdim. Oyni nima desam ekan, keling, muhabbat deb ataylik..."[1:639]. Parcha orqali anglashiladiki, oy – pok muhabbat ramzi ekan. Agar oy muhabbat ramzi bo'lsa, unda qora bulutlar-chi? To'g'ri Tavakkal bulut menman deb turibdi. Ammo hikoyaning voqealar rivojini kuzata turib, qora bulutlar – nafs degan qarorga keldik. Chunki Gulsara uchun Tavakkal har narsaga tayyor bo'lishiga qaramay, nafsning qutqusi bilan harakat qilganligi tufayli Gulsaraning sevgisiga emas, balki nafratiga, sevgi iztirobiga erishdi. Asarda ikki qahramon taqdiri bilan yonma-yon tarzda ikki qaldirg'och ham tasvirlab borilgan. Ular qish yaqinlashgach bolalarini olib issiq yurtlarga uchib ketdi. Ammo bizning qahramonlarimiz birga bo'la olishmadi. Tavakkal ham

avvaliga nafsning da'vosi, keyinchalik qalbining va dardining davosi bo'lgan sevgisidan kechishga majbur bo'ldi: – O'-o', Quvvatim! – deb xitob qildi: sezdimki, tiliniyam tshlab olgan. – Akangizni tabriklang! – Keling, Tavakkal aka, – dedim va ne bir xush istak ila so'radim: – Nima bilan tabriklay?

– O-ozodlik bilan! – dedi u. Keyin loyga belangan tufлисini bir-biriga ishqab yechib tashladi-da, xonaga kiriboq meni mahkam quchib oldi. – Azizim, ukam, yurtdoshim... Akangiz rasvo bo'ldi. Hammasi tugadi uka"[1:633]. Bu endi butunlay mag'lubiyatni tan olgan Tavakkalning iqrori. Hikoyadan ko'zlangan bosh maqsad – odam har qanday sharoitda ham odam bo'lib qolishi kerak. Aks holda, hayvondan nima farqi qoladi? Xuddi ushbu mulohazalar Gulsara tomonidan ham aytilgan. Xulosa qilib aytda, inson nafsga emas, imoniga, aqliga, sof, samimiy tuyg'ulariga ergashib yashamog'i kerak. Shukur Xolmirzayev qahramonlari ko'p hollarda nafsdan ustun kela oladigan, farosatli, pokiza insonlar. Ijodkor hamisha insonni ulug'lar ekan uni tabiatdan ayro tasavvur etmaydi, ularni bir-birisiz tasvirlamaydi. Inson va tabiatni bir butun vujud sifatida tasvirlaydi. Shuning uchun ham u tanlagan detallar doimo tabiat va hayvonot olamidani tanlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Холмирзаев Шукур. Танланган асарлар. – Т.: Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси, 2020. - Б. 759.
2. Солижонов Ёўлдош. Деталлар тилга кирганда// Ўзбек тили ва адабиёти, - 2007.- № 5.

Foydalanilgan internet saytlari

3. <https://n.ziyouz.com>.
4. <https://Xurshid Davron kutubxonasi>.

“QUTADG‘U BILIG” ASARIDA AXLOQIY MASALALAR TALQINI*Fazilat Xolmuminovna Qosimova**TDYU qoshidagi**M.S.Vosiqova nomidagi akademik litsey katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” didaktik dostoni o‘dob-axloqqa doir qimmatli pand-nasihatlarini qamrab oladi. Yusuf Xos Hojib til odobi, rostgo‘ylik va halollik, sevgi va sadoqat kabi masalalar haqida hikmatli so‘zlar so‘zlaydi, takabburlik va mayxo‘rlikni tanqid qiladi, kishining o‘zini tutishi, yurish-turishi haqida o‘git beradi. Bular dostonning butun mazmuni-mohiyatiga singdirilgandir. Ushbu maqolada asardagi axloqiy masalalar talqini xususida fikrlarimiz bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: o‘dob-axloq, farzand [tarbiyasi](#), til odobi, mardlik, rostgo‘ylik, kibr, yolg‘onchilik, takabburlik, mayxo‘rlik.

Abstract. Yusuf Khos Hajib's didactic epic "Kutadgu Bilig" contains valuable advice on manners. Yusuf Khos Hajib speaks wise words about issues such as language etiquette, truthfulness and honesty, love and loyalty, criticizes arrogance and arrogance, and gives advice on one's behavior and behavior. These are embedded in the whole essence of the epic. This article describes our thoughts on the interpretation of moral issues in the work.

Key words: manners, child upbringing, language etiquette, courage, honesty, arrogance, deceit, arrogance, arrogance.

Абстракт. Дидактический эпос Юсуфа Хос Хаджиба «Кутадгу Билиг» содержит ценные советы о манерах. Юсуф Хос Хаджиб говорит мудрые слова о таких вопросах, как языковой этикет, правдивость и честность, любовь и верность, критикует высокомерие и высокомерие, дает советы по поведению и поведению. В них заложена вся сущность эпоса. В данной статье изложены наши размышления о трактовке нравственных вопросов в произведении.

Ключевые слова: манеры, воспитание детей, языковой этикет, мужество, честность, заносчивость, обман, заносчивость, заносчивость.

Boshidan oxiri donolar so‘zi,

Go‘yoki tizilgan javohir o‘zi

(Yusuf Xos Hojib)

“Qutadg‘u bilig” asarida adibning o‘dob-axloq, farzand [tarbiyasi](#), chin insoniylik, halollik, kishilikning ulug‘ hislatlari, insonning ma’naviy dunyoqarashi, komil inson haqidagi chuqur falsafiy qarashlari badiiy ifodasini topgan. Ulug‘ mutafakkir- Yusuf Xos Hojibning falsafasi o‘rta asrlar Sharq falsafiy qarashlarining eng yuksak cho‘qqisida turadi.

Asarda ilgari surilgan axloqiy fazilatlar mohiyatining to‘laqonli ochib berilishi adibning axloq va ta’lim-tarbiya masalalarini juda chuqur bilganligidan dalolat beradi: insoniylik, mehr-muhabbat, vafo, rostgo‘ylik, to‘g‘rilik, ishonch, sadoqat, soflik, insof, adolat, shafqat, muruvvat, xushmuomalalik, shirinso‘zlik, mardlik, saxovat, himmatlilik, tavoze, tadbirkorlik, hurmat va ehtirom.

Aql-zakovat, ezgulik, halollik kabi insoniy fazilatlar ulugʻlanadi, ularga yolgʻonchilik, fisq-u fasod, noinsoflik, bevafoqlik, mehrsizlik, hurmatsizlik, qoʻpollik, [baxillik](#), nomardlik, quvlik, johillik, nodonlik, ochkoʻzlik, haromxoʻrlik kabi xislatlarni qiyoslab, ezgu fazilatlarining yaxshi oqibatlarini va salbiy xislatlarining yomon oqibatlarini misollar bilan ishonarli qilib bayon etadi.

Asarda barcha yaxshiliklarning manbaini ezgulik, yomon ishlar asosini esa essizlik nomlari bilan talqin etadi. Adib inson hayotda qilgan ishlari bilan yo yaxshi nom qoldiradi, yoki yomon nom oladi, deydi. Yusuf Xos Hojib barcha ezgulikning boshi til odobi, ushbu kitob esa uning foyda va zararlariga bagʻishlanadi deya uqtiradi.

Til insonning qadr-qimmatli qiladi yoki shu til orqali inson yuz tuban ham ketishi mumkin. Kishining nomi ikki narsa bilan hayotda mangu qoladi: biri xushxulqlik, ikkinchisi yaxshi soʻz, deydi. “Qutadgʻu biligʻ”ning bir necha bobi odob-axloq masalalariga bagʻishlangan. Shunday boblardan biri “Til ardami” (“Til odobi”) deb atalgan 7-bob boʻlib, unda shoir bilim olishda tilning ahamiyati, tilga ortiqcha erk bermaslik, qisqa va mazmunli soʻzlash kabi insoniy fazilatlar haqida ibratli oʻgitlar beradi:

Uqushqa biligki, bu tilmachi til,
Yarutgachi arni yoʻriq tilin bil.
Kishig til ogʻirlar boʻlur qut kishi,
Kishig til ujuzlar yarir ar bashi.
Til arslan turur, koʻr eshikda yatur,
Aya avlug orsiq boshingni yatur.
Tilin emgamish er naku ter eshit,
Bu soʻz ishqa tutgʻil oʻzunga ish et.
Mani emgatur til ezi oʻg talim,
Boshim kasmauni kasayin tilim.

(Uquvga, bilimga tilmoch-bu til,
Kishini roʻshnolikka chiqargan ravon til deb bilgin.
Kishini til eʻzozlaydi, kishi u tufayli baxtga erishadi,
Kishini til qadrsiz qiladi, er boshini yoradi.
Til hovlida yaʻni qafasda yotgan arslon kabidir,
Ey, qafasdagi (makkor) vahshiy boshingni eydi.
Tili tufayli ozor topgan kishi nima deydi, eshit,
Bu soʻzga amal qilgin, oʻz foydangga ishlat:
Til meni juda koʻp kulfatlarga soladi,
(U) boshimni kesmasin, (men) tilimni kesayin.

Insoniy munosabatlarning eng oliy qonuni sanalgan hurmat va ehtiromni shakllantirishning barcha koʻrinishlari asarda yaqqol oʻz ifodasini topgan. Yusuf Xos Hojib jamiyat taqdirini: taraqqiyoti va tanazzuliga bevosita hal etuvchi eng ulugʻ mansabdorlardan tortib, oddiy aholining oila aʻzolarigacha bir-biriga boʻlgan ehtiyojlari: muomala-munosabat masalalarini hayotiy misollar vositasida yoritadi. Katta kishilarning kichiklarga, kichiklarning ulugʻlarga, amaldor va mansabdorlarning oʻz qoʻl ostidagi xizmatchilarga, xizmatchilarining oʻz

xo'jalariga, oilada oila a'zolarining bir-birlariga muomala madaniyatining eng oddiy ko'rinishlarigacha e'tibor berib, kishi ko'z oldida yaqqol tasvirlab beradi. Farzand tug'ilganidan boshlab tarbiyalash hamda unga bilim va hunarni o'rgatish, odob qoidalarini o'rgatish uchun pok va bilimli muallim-murabbiy tanlash, farzand hatti-harakatini doimiy nazoratda saqlash kabi masalalarning asarda batafsil bayon etilganligidan ham bilish mumkin.

Yusuf Xos Hojib asarda ulug'lar va kichiklar o'rtasidagi odob- xulq qoidalari haqida fikrlarini bayon etganida kamtar bo'lishlik, salomlashish odobi, odob talablari, axloq qoidalarini ham tavsiya etadi.

Ayniqsa, Yusuf Xos Hojibning amaldorlar axloqi haqidagi o'g'itlari diqqatni tortadi. Bunday fikrlar hozirgi davrda ham muhim ahamiyatga molik hamda qimmatli sanaladi. Allomaning beklar, hojiblar, vazirlar, xazinadorlar, saroyboshilar, lashkarboshilar, devonboshilar, elchilar, sarkotiblar kabi ko'plab amaldorlarning hatti-harakatlari, ish yuritishlari, xulq-odobi haqidagi o'g'itlari va yo'l-yo'riqlari har bir amaldor uchun dastur sanaladi. Masalan, har bir amaldorning o'z ishining ustasi, ilm-fanni egallagan, uning turli sohalari borasida fikr yurita oladigan, zehqli, fahm-farosatli, so'zga chechan, tadbirli, zukko, hushyor, himmatli, ko'zi to'q, ochiq qo'l, saxiy, jiddiy, qanoatli, jasur, samimiy, sog'lom, sadoqatli, andishali, o'z so'zining ustidan chiqadigan, she'r baxsida ishtirok etib, o'zi ham she'r to'qiy oladigan, turli tillarni biladigan va yoza oladigan, chovgon, shatranj, nard, o'yinlarida o'ynay oladigan, merganlik kabi xislatlarga ega bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Shuningdek, har bir insonning kamolga yetishida to'sqinlik qiladigan yomon illatlar, nuqson va kamchiliklardan birinchi navbatda el-yurt xizmatida bo'lgan amaldorlar ham xoli bo'lishi lozimligi uqtiriladi: maishatbozlik, ishratparastlikka berilish, adovat, nizo, kek, gina, xusumat, fisqi-fasod, mayparastlik, maishiy buzuqlik, kayfu safoga berilish, xiyonat, mutakabbirlik, manfaatparastlik, xudbinlik, davlat ketidan quvish, ta'magirlik, boshqalarning haqu-huquqlarini toptash kabilar shunday illatlardirki, buning natijasi davlat rivojiga putur yetkazadi, jamiyatni ma'naviy qashshoqlikka olib boradi, deb bu kabi yomon illatlardan tiyilish haqida maslahat beradi. Masalan:

(Agar) dunyo beglari ichimlikka (maishatga) berilsa,

El va xalqning dardlari (qismati) achchiq bo'ladi.

Jahongir kishi aysh-ishratga mahliyo bo'lsa,

Elini buzadi (xarob qiladi), o'zi (esa) tilamchi

Bo'lib qoladi

Yusuf Xos Hojib mag'rurlanish, takabburlik, kekkayishga kamtarlik, xushfe'llik, xushsuxanlikni zidlaydi. Amaldorlarga xoh katta, xoh kichik bo'lsin, baland himmatlilik, samimiylik, muruvvatli bo'lish, mardlik xos fazilat ekanligini ta'kidlaydi. Chin insoniy boyluk- uning ko'zi va ko'ngil to'qligi deb baholaydi. Zero, ta'magirlik, ochko'zlik insonda poraxo'rlik kabi yomon illatning tomir otishiga olib keladi, deydi.

Yusuf Xos Hojib oilaviy turmushning mayda ikir-chikirlariga ham katta e'tibor qaratadi. U uylanish va bola tarbiyasi haqidagi 53-bobda oila va bola tarbiyasining murakkab ekanini ta'kidlab, bolani yoshlik chog'idan boshlab yaxshi xulqli qilib etishtirish zarurligini aytadi.

U kishilarni mulohaza qilib oila qurishdan boshlab, farzand tarbiyalashi, oilaning moddiy ta'minotini yuritishgacha bo'lgan eng ezgu zaruriy vazifalarni birma-bir bayon etadi. Shuningdek, yigitlik va keksalik fasllari haqida ham fikr yuritib, yigitlikni ehtiyot qilish, yigitlik davrida qarilikning g'amini yeyish, bu to'g'rida qayg'urish kabi zaruriy narsalar haqida tavsiyalar beradi.

Ziyofatlar va ularda ishtirok etish, o'zini tutish odobiga bag'ishlangan 55-56-boblarda saroy ahllariga o'git beradi. Adib insonning turli oilaviy marosimlar, yig'inlar, ziyofatlarda o'zini tutishi, xulq-odob qoidalariga rioya etishi haqida ham fikr yuritib, insonning mehmon va mezbonnavozlik qoidalari, tartib-intizomlari haqida ham muhim o'gitlarni ham berib o'tadi. Masalan, "Qutadg'u bilig"dagi elchilar (diplomatlari) huzurida, shohlar saroyida, to'y va azalarda qilinadigan mehmondorchiliklarda kishi o'zini qanday tutishi, hatti-harakati, odob-axloq masalalari bugungi davrda ham o'ta ahamiyatli va dolzarbdir.

Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarini yozishda Sharqda keng yoyilgan pandnoma janriga tayanib ish ko'rsa ham mulohazalarini bayon etishda, ularga odamlarni iqrar qilish va ishonch hosil qilishi uchun hayotiy dalillarga ko'proq murojaat etadi. Masalan, insonga yaxshilik bilan yomonlik qilishning oqibatlarini quyidagicha bayon etadi:

O'zing ezgu bo'lsang, oting maqtovg'a loyiqdir,
Agar yomon bo'lsang, tahqirga mahkumsan, ey latif.
Tuban Zahhok ne tufayli tahqirga loyiq bo'ldi,
Baxtli faridun qanday qilib madhga sazovor bo'ldi.
Biri ezgu edi, uni madh qildilar,
Biri yomon edi, uni so'kdilar.
Demak, ezgulik va essizlik bu o'rinda qiyoslanadi.

Shunday qiyosni biz rost bilan yolg'onchilik, yaxshilik bilan yomonlik, yorug'lik bilan ziyo, kamtarlik bilan takabburlik, samimiylik bilan quvlik, saxiylik bilan baxillik, bilimlilik bilan johillik va boshqa juda ko'p axloqiy xislatlarni taqqoslaganda ham ko'ramizki, bu uslub maqsadni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, "Qutadg'u bilig" axloqiy-ta'limiy yo'nalishga ega doston bo'lib, unda kishilar o'rtasidagi muomala-munosabat madaniyatining eng oddiy ko'rinishidan eng yuksak insoniy fazilatlariga qadar fikr yuritilgan hamda asosli dalillar, hayotiy misollar yordamida asoslangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmad Yugnakiy. Hibat ul-haqoyiq. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1971.
2. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. Toshkent, "Fan", 2004. 185-B.
3. Jumaxo'ja N. Satrlar silsilasidagi sehr. Toshkent, "O'qituvchi", 1996.
4. Mallaev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi. 1-kitob. 3-nashri:-Toshkent: «O'qituvchi», 1976.
5. Mualliflar jamoasi. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 1-tom.-Toshkent: «Fan», 1977..

**“НАСОЙИМ УЛ-МУҲАББАТ”ДА NAJMIDDIN KUBRO VA
KUBRAVIYA TARIQATI**

*Ruxsora Rahimberganova,
Urganch davlat universiteti magistranti*

Annotatsiya. Alisher Navoiy Shayx Najmiddin Kubro shaxsiyati, irfoniy asarlari bilan yaxshi tanish bo'lgan. Kubraviya tariqati vakillari asarlarini ham “Nasoyim” tazkirasida zikr etadi. Mazkur maqolada shoirning shayx va uning muridlari haqidagi ma'lumotlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tazkira, tariqat, tasavvuf, murid, shayx, murshid, silsila.

Аннотация. Алишер Навои был хорошо знаком с личностью и мистическими произведениями шейха Наджмуддина Кубро. Он также упоминает работы представителей секты Кубравия в tazkire «Насаим». В данной статье анализируются сведения поэта о шейхе и его мюридах.

Ключевые слова: tazkira, тарикат, мистика, мюрид, шейх, муршид, силсила.

Annotation. Alisher Navoi was well acquainted with the personality and mystical works of Sheikh Najmuddin Kubro. He also mentions the works of representatives of the Kubravia sect in the Nasaim tazkir. This article analyzes the poet's information about the sheikh and his murids.

Key words: tazkira, tarikat, mysticism, murid, sheikh, murshid, silsila.

Alisher Navoiy mutasavvif ijodkor Najmiddin Kubro va u zot asos solgan kubraviya tariqati vakillarining asarlaridan ilhomlangan, ularning nafs tarbiyasidagi usulu arkonlarini puxta o'rgangan. Shoir asarlarida, nafaqat to'qima, balki, tarixiy obrazlarga ham keng o'rin ajratilgan. Shunday tarixiy shaxslardan biri Xorazm vohasidan yetishib chiqqan Najmiddin Kubrodir. Valiylar hayotiga bag'ishlangan “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasida va tariqat yo'lini badiiy ifoda etgan “Lison ut-tayr” dostonida Najmiddin Kubro siymosini gavdalantiradi.

Ulug' insonlar haqida fikr bildirmoq, ularning hayoti va ijodi haqida mulohaza yuritmoq oson emas. Ulug'larning ishq oliylari, sobit e'tiqodlari, tafakkur kengliklariga havas qilamiz, ulardan bahramand bo'lishga harakat qilamiz. Bunday kishilar shaxsini o'rganish bilan qalbimizga nazar tashlaymiz. O'z vijdonimizni taftish qilamiz, uni tozalash, hayot tarzimizni to'g'rilik va ezgulik sari yo'naltirishga ehtiyoj sezamiz. Chunki ularning hayot tarzi, ezgu amallari bizga saboq maktabidir. Shunday buyuk zotlardan biri, shubhasiz, Shayx Najmiddin Kubrodir. Xiva yaqinidagi Sayot qishlog'ida tug'ilgan Najmiddin Kubroning nomi tirikligidayoq yetti iqlimga ketgan edi. O'z zamonasi ilm-u urfonida Najmiddin Kubroga teng keladigan birorta olim topilmagan. Shu bois ham unga “Kubro” ismi berilgan. G'iyosiddin Xondamir “Makorim ul-axloq» asarida quyidagi ma'lumotni keltiradi: “... Hazrat sulton hazrati oliylariga shunday arz qildilar: Bir safar sizning Xudo ko'nglingizga solgan narsalarni so'zlovchi tilingizdan: “Qachonki jahondorlik kabi o'ta mas'uliyatli bu ishdan zeriksam, avliyolarning sarasi bo'lgan shayx Najmiddin Kubroning o'zidan nurlar taratuvchi maqbarasida istiqomat qiluvchi yoki ulug' Tangrining yaqini bo'lgan Xoja Abdulloh Ansoriyning (Alloh bularning qabrlarini tabarruk qilsin) tabarruk maqbarasi ostonasini supuruvchi

bo‘laman”, degan gap chiqqan edi. Biroq endi sizning bu orzungiz ushalmaydigan bo‘ldi, menga esa to‘la xohish va rag‘bat bilan Hijoz safariga borishimga ruxsat bermaydilar. Shunga ko‘ra sizning qutlug‘ shaxsingiz vakolati bilan qolgan umrimni Ansoriyaning tabarruk maqbarasi ostonasini supuruvchilik bilan o‘tkazishimga va saroy mulozimligi ishidan butunlay bo‘shashimga ruxsat bersangiz...” [7:45] Navoiyning do‘sti shoh Husayn Boyqaro ham bejiz Kubro hazratlari ostonasida jorubkashlik qilishni orzu etmagan. Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asarida eng katta uchin ajratgan valiylardan biri Najmiddin Kubrodir. Muallif tazkirada shunchaki valiylar nomini zikr etishni emas, balki tasavvufning mazmun-mohiyatini anglatishni ham maqsad qilgan edi. Shuning uchun Najmiddin Kubro laqablarining berilish sababi, ustozlari, muridlari, sharaflari va vafotlari – barcha-barchasini e‘tibordan chetda qoldirmaydi. Tazkirada o‘qiymiz: “Alarg‘a Kubro ondin laqab bo‘ldiki, har kim bila munozara va mubohasa qilsalar ermish, ul kishi g‘olib bo‘lurlar ermish” [3:286]. Bugun biz anglashimiz lozimki, bu mubohasa, munozaralar fiqh, kalom, hadis, tariqat ilmidan bo‘lgan, zero valiy zotlarning ilmi insoniyat, jamiyat va tabiatga xizmat qilgan. Kubro hazratlari, haqiqatan, ilm-ma‘rifat yo‘lida riyozat chekkan, munosib ustoz izlab yurtma-yurt kezgan edilar. Kubroning “Valiytarosh”, ya‘ni valiylar yetishtiruvchi, “Tummat ul-kubro”, ya‘ni baloqazolarning oldini oluvchi, buyuk bashoratchi, “Abuljannob”, ya‘ni parhez qiluvchi, dunyoviy iker-chikirlardan uzoq turuvchi kabi nom va laqablari bo‘lgani ham manbalarda zikr etilgan. Najmiddin Kubro hazratlari bu maqom-mavqega osonlikcha erishmagan. Ilohiy bir ist‘odini tinimsiz ilm o‘rganish, zahmat chekish orqali toblagan. Ilm olish yo‘lida mashaqqatlardan cho‘chimadi, egallagan bilimlaridan hech qoniqmadi, ilm istab Misr, Tabriz va boshqa ko‘plab o‘lkalarni kezdi. Alaloqibat tinimsiz mehnat, izlanish, mashaqqatlar uni komillik darajasiga ko‘tardi. Najmiddin Kubro dunyoviy bilimlarda yuqori martabaga erishgach, bu bilimlar Haq ma‘rifatini idrok etish uchun kam ekanligini anglaydi. Endi u botiniy bilim, g‘ayb asrorini o‘rganishga kirishadi. Bu nihoyatda mashaqqatli yo‘l bo‘lib, Najmiddin Kubro bu og‘ir sinovlarni ustozlari rahnamoligida yengib o‘tdi. Shundan keyin u olamga boshqacha qaraydigan, faqat kitoblardagi bilimlarni takrorlaydigan olimlardan farq qilib, erkin, ozod mushohada etadigan, mohiyatni teran idrok etib, buni odamlarga yetkaza oladigan darajaga erishdi. Ilmi qoldan ilmi holga yuksaldi.

Tazkirada, avvalo, Najmiddin Kubroning ustozlari: Shayx Ammor Yosir, Shayx Ro‘zbehoni Kabir Misriy, Shayx Ismoil Qasriylar haqida ma‘lumot beriladi. Avvalo, shuni ta‘kidlash lozimki, Navoiy shayxning ustozlari haqida ma‘lumot berar ekan, Kubro hazratlarining «Favoyih ul-jamol» asaridagi ma‘lumotlarga tayanadi. Navoiy tazkirasidagi Najmiddin Kubro hamda xalifalari xususidagi ma‘lumotlar asosiy manbadan olingan. Shoir Kubroning irfoniy asarlaridan xabardor bo‘lgan. Tazkiradagi quyidagi misol fikrimizni dalillaydi: “Shayx Najmuddin Kubro q. s. «Favotih ul-jalol» otlig‘ kitobida kelturubdurkim, chun Shayx Ammor Yosir xidmatig‘a yettim va aning izni bila xilvatqa kirdim, xotirg‘a keldikim, chun ulumi zohiriy iktisobin qilibmen, g‘aybiy futuhot dast bergandin so‘ngra ani minbarlar ustida Haq subhonahu toliblarig‘a yetkurgaymen. Chun bu niyat bila xilvatqa kirdim, xilvat tamom muyassar bo‘lmadi va chiqdim. Shayx

dedikim, avval niyating tas'hihin qil, andin so'ngra xilvatqa kir! Aning botinining nurining partavi ko'nglumga tushdi, kitoblarimni vaqf qildim va liboslarimni fuqarog'a ulashdim, bir jubbadin o'zgakim kiyib erdim" [3:286]. Xuddi shu solik hayotidagi xilvatdan maqsad-muddao, bunda murshidning muhimligi haqidagi mulohazalarning davomini "Favoyih ul jamol va favotih-ul jalol" risolasida o'qiyimiz: "Xullas, niyatimni sof va samimiy qildim. Ruhimni qo'lga oldim va o'zimga: "Uni mahkam ushla!" dedim. Kitoblarimni vaqf qilib, kiyimlarimni hadya etdim. Pullarimni sadaqa qildim. Dunyoni ortga uloqtirdim, Qiyomatni qarshimga keltirdim. Or va nomus libosini yechdim. Toki odamlar: "Parishon va zalil bo'ldi, egildi yoxud aqlini yo'qotdi, zero borar joyi ham o'zi shu edi", desinlar. O'zimni shayxim oldida taxta ustidagi o'likdek his etdim va dedim: hozir qabrga kiraman va Qiyomat qo'pmaguncha u yerdan aslo chiqmayman. Nihoyat, bor-yo'g'im – qo'limdagi ana shu libos mening kafanim. Agar xilvatdan chiqish uchun xayolimga biror narsalar kelsa hamda kuchaysa, odamlarga yalang'och ko'rinishdan hayo qilib, ustimdagi kiyimlarimni yirtib tashlayman. Ana shunda xilvatxonaning devorlari menga libos bo'ladi. Bularning bari qutulish va najot shavqining natijalari edi". Ko'rinadiki, Tazkiradagi shayxning hol va maqomlari haqidagi tasavvur va izohlarning teran va aniqligi Navoiyning Kubro hazratlari hamda u kishining muridlari asarlariga tayanganidandir. Tazkiradagi ko'plab ma'lumotlar shayxning o'z asarlaridan olinganligi ularni qiyoslab o'qish jarayonida aniq bo'ldi. Masalan: "Qaytib kelurda, Hazrat Risolat (s.a.v.)ni voqeada ko'rdi va iltimos qildiki, Hazrat anga kuniyate bag'ishlag'ay. Abuljannob kuniyati Hazratdin anga inoyat bo'ldi. So'rdiki, Abuljannob muxaffafa? Buyurdiki, lo, mushaddada. Chun voqeadin uyg'ondi. Bu kuniyatdin anga bu ma'ni yuzlandiki, dunyodin ijtinob qilmoq kerak! [3:287]" Xuddi shu ma'lumotlar shayx tilidan ham o'z asarida keltiriladi: " Keyin menga kunyamni so'rash ilhom qilindi va: "Yo Rasululloh, mening kunyam Abuljanobmi yoki Abuljannobmi? Nafsim Abuljanob (buyuklik otasi) bo'lmog'ini istayapti", deya so'radim. U zot: "Yo'q, kunyang Abuljannob (qo'ruvchilar otasi)dir", deya javob berdilar. Shunda yonlaridagi birodari ham: "Albatta, yo Rasululloh, u Abuljannobdir", deya quvvatladilar. Xuddi mana shu ikki ism dunyo va oxirat siriga sohib erur. Agar Abuljanob deganlarida edi, men dunyoga sohib bo'lardim. Abuljannob degani uchun Alloh izni ila har ikkalovidan ham yiroq qoldim" [8:124]. Kitobxon tazkiradan shayx shaxsiyatini to'laqonli ochib beruvchi ma'lumotlar to'planganiga guvoh bo'ladi. Ammo Kubro risollari bilan "Nasoyim" tazkirasini baravariga o'qish, o'quvchi tasavvurini tiniqlashtiradi, kubraviya tariqati asosi, usulu arkoni to'g'risida bilim doirasi boyiydi. Shayx Ro'zbehoni Kabir valiytaroshning ham murshidlari, ham qaynotalaridir. Bu ma'lumotlarni ham Navoiy Majididdin Bag'dodiy asaridan oladi: "...«Majduddin Bag'dodiyning «Tuhfat ul-bararah» kitobida yozilgan: «Shayximiz Abuljannobdan eshitdim. U kishi Misrda Ro'zbehonning shunday deganini eshitdim, deydi: «Menga bir necha marotaba «namozni tark qil, sen bunga muhtoj emassan», – deyildi. Men: «Ey Rabbim, bunga toqat qilolmayman, menga boshqa narsani taklif qil», – dedim». Navoiy tazkirada Kubro hazratlarining ustozlarini bir-bir sanarkan, ammo irodat xirqasi nisbati Shayx Ismoil Qasriyga tegishli ekanini ta'kidlab, ushbu silsilani to'liq keltiradi: "Va Shayx Najmuddin

Kubro aning suhbatig‘a yetibdur va aning iligidin xirqa kiyibdur. Va ul Muhammad Monkildin va ul Muhammad b. Dovud al-ma‘ruf Nodim ulfuqarodin va ul Abulabbos Idrisdin va ul Abulqosim Ramazondin va ul Abu Ya‘qub Tabariydin va ul Abu Abdulloh b. Usmondin va ul Abu Ya‘qub Nahrajuriydin va ul Abu Ya‘qub Susiydin va ul Abdulvohid b. Zayddin va ul Kumayl b. Ziyoddin q. t. a. va ul amir ul-mo‘minin Ali b. Abu Tolib (r. t.)din va alar Hazrat Risolat (s.a.v.)din” [3:287]. Tazkirada Najmiddin Kubroning tahsil jarayonlari bilan birgalikda uning komil bir murshid sifatidagi faoliyati ham ko‘rsatib beriladi.

“Hazrat Shayxqa muridlar ko‘p erdilar, ammo alardin nechasi jahonda yagona va zamonda muqtado va farzona erdilar. Andoqki, Shayx Majiduddin Bag‘dodiy va Shayx Sa‘duddin Humuyiy va Bobo Kamol Jandiy va Shayx Rozuddin Ali Lolo va Shayx Sayfuddin Boxarziy va Shayx Najmuddin Roziy va Shayx Jamoluddin Giliy r.t. va ba‘zi debdurlarki, Mavlono Bahouddin valadki, Hazrat Mavlono Jaloluddin Rumiy(q.s.)ning volidi bo‘lg‘ay, ham alardindur” [3:287]. Tazkirada shayx va muridlari orasida kechgan, tariqat sir-asrorini ochib beruvchi, ustoz va shogird o‘rtasidagi munosabatlarni ko‘rsatib beruvchi voqealar bayon qilingan. Bularning bari tasavvuf ta‘limotini hol ilmi o‘laroq kashf qilishga, tariqat usulini tushunishga yaqindan yordam beradi. Kubraviya tariqatining ta‘lim jarayoni, bu tariqat vakillarining ijodkorligidan ham xabardor qiladi. Shayxning shahidlar kubrosi ekanligi ham tazkirada, albatta, ta‘kidlanadi. Vatanparvarligi, xalqparvarligi asrlar osha avlodlarga bir namuna sifatida ham Navoiy nazaridan chetda qolmaydi. Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, Alisher Navoiy asarlari Najmiddin Kubro hayoti, tariqati xususida muhim va asosiy manbadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

8. Navoiy A. Lison ut-tayr. MAT. 12-tom. Toshkent. Fan, 1996.
9. Navoiy A. Hayrat ul-abror. MAT. 7-tom. – Toshkent: Fan, 1991.
10. Alisher Navoiy Mukammal asarlar to‘plami. 17 jild. – Toshkent: "Fan" , 2001.
11. A.Navoiy. Lison-ut tayr. (nasriy bayoni) www. ziyo.uz kutubxonasi.
12. «Alisher Navoiy va XXI asr» mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Toshkent: 2020.
13. Ibrohim Haqqul. Tasavvuf va she‘riyat. – Toshkent: Adabiyot va san‘at, 1991.
14. G‘iyosiddin Xondamir. Makorim ul-axloq. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2015.
15. Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. – Toshkent: Movarounnahr, 2004.

ИСЛОМ ДИНИДА АТРОФ-МУХИТ МУХОФАЗАСИ

Қориев Мирзохид Рустамжонович
НамДУ катта ўқитувчиси, г.ф.ф.д., PhD.
qoriyevmirzohid@mail.ru

Рахимова Шохиста Хокимбек қизи,
Орифжоновна Одина Нодиржон қизи
НамДУ иқтидорли талабалари

Аннотация. Ушбу мақолада муқаддас ислом динида атроф-мухит муҳофазасига катта эътибор қаратилиши ҳақида атрофлича маълумот берилган. Жумладан, Ислום динида мусулмонлар Аллоҳ томонидан яратилган барча табиат неъматларини (масалан: тупроқ, сув, ҳаво, ўсимлик ҳамда ҳайвонот дунёси) муқаддас билиши, уларга беҳуда зиён еткизмаслиги, ифлослантирмаслиги, исроф қилмаслиги зарур амаллардан ҳисобланади. Шунингдек, мусулмонлар табиат неъматларини асраб авайлаши ҳам жуда муҳимдир. Ушбу мақола мазкур масалаларга бағишланган.

Калит сўзлар: Ислום дини, атроф-мухит муҳофазаси, Қуръони Карим, Ҳадиси Шариф, экологик маданият.

Аннотация. В религии исламе очень много внимания уделяется вопросу охраны окружающей среды, и в статье дается много информации об этом. В частности, в религии Ислам необходимо, чтобы мусульмане считали священными все природные блага, созданные Богом (например, почву, воду, воздух, растительный и животный мир), не причиняли им вреда без надобности и не растрчивали попусту. Для мусульман также очень важно сохранить все блага природы. Статья посвящена этим вопросам.

Ключевые слова: Исламская религия, охрана окружающей среды, Священный Коран, хадисы, экологическая культура.

Annotation. In the religion of Islam, a lot of attention is paid to the issue of environmental protection, and the article provides a lot of information about this. In particular, in the religion of Islam, it is necessary that Muslims consider sacred all the natural benefits created by God (for example, soil, water, air, flora and fauna), do not harm them unnecessarily and do not waste them in vain. It is also very important for Muslims to preserve all the blessings of nature. The article is devoted to these issues.

Key words: Islamic religion, environmental protection, Holy Quran, Hadith, ecological culture.

Кириш. Фан-техника тараққиёти инсониятнинг эҳтиёжларини кондириш мақсадида табиатнинг янги, ўрганилмаган бойликларини излаб топишга, уларни ўзлаштириш имкониятларини тадқиқ этишга ва табиий бойликлардан кенг миқёсда фойдаланишга имконият яратди. Шу билан бир қаторда, саноат корхоналаридаги барча жараёнларни техникалашгани, халқ хўжалигининг турли соҳаларида кимёвий моддаларнинг ишлатилиши, автомобил транспортининг тез ривожига кўп миқдорда захарли чиқиндиларнинг пайдо бўлишига ҳамда атроф-мухитга ташланишига олиб

келди. Натижада, зарарли чиқинди моддалар атмосфера хавосида, сув хавзаларида, тупроқ юзасида тўпланиб, уларни кучли даражада ифлосланишига, тирик организмларнинг ташқи муҳит билан бўлган муносабатларини бузилишига, қолаверса, инсон саломатлигига жиддий салбий таъсир этишига олиб келди [2, 3, 4, 5]. Зеро, бу муаммолар ўзининг инсониятга келтириши мумкин бўлган ёмон оқибатлари бўйича ядро ҳалокатидан кам эмас [6].

Табиийки, табиатни муҳофаза қилиш муаммоси бутун ер юзаси бўйлаб истиқомат қилаётган юз миллионлаб мусулмонларни ҳам, ислом уламоларини ҳам ташвишга солмоқда. Улар бу муаммоларни ҳал қилишда Қуръони Карим оятларига, Ҳадиси Шарифларга ва Ислом таълимотларига мурожаат этмоқдалар. Зеро, Қуръони Карим ҳамда Ҳадиси Шарифларда атроф-муҳит муҳофазасига доир жуда кўплаб маълумотлар келтирилган. Мазкур маълумотлар, панд-насихатлар, Пайғамбаримиз Муҳаммад соллаллоҳу алайҳи васаллам (с.а.в.)нинг суннатлари жамиятда экологик маданиятни юксалтириш ва янги дунёқарашни шакллантиришда катта имкониятлар яратади. Чунки, ўзбек халқи ислом динига эътиқод қилади, диний таълим ва тарбияга, ислом динининг муқаддас китобларида келтириб ўтилган панд-насихатларга жиддий эътибор қилган ҳолда уларга амал қилишга интилади. Шу жihatдан ислом динининг муқаддас китобларида келтириб ўтилган экологик таълим ва тарбия, табиатни муҳофаза қилиш, табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш борасидаги панд-насихатлар ҳам аҳоли ўртасида ижобий қабул қилиниб, уларга амал қилишга ҳаракат қилади. Бу эса аҳолининг экологик маданиятини шаклланишига катта туртки беради.

Асосий қисм. Маънавиятимиз асоси бўлмиш ислом дини асрлар давомида халқимизни озодаликка, покликка, саранжон-саришталикка, ерни, сувни, ҳавони булғамасликка даъват этади. Аллоҳнинг яратиб қўйган ҳар бир жонли махлуқотлари – ўсимликлар, ҳайвонот дунёси ва ҳоказоларга меҳр ва шафқат назари билан қараш талаб этилади. Умуман, ислом таълимотида жонли ва жонсиз табиатга, атроф-муҳитга бўлган ижобий муносабат кенг ўрин олган.

Табиатга, табиий ресурсларга ислом динининг муносабати қандай, деган саволга жавоб бериш учун тўғридан-тўғри Аллоҳнинг каломи бўлмиш Қуръони каримга мурожаат қилишимиз мумкин. Ер, сув, осмон, умуман, табиат ҳақида, уларни асраб-авайлаш, қадрига етиш, муҳофаза қилиш ва улардан оқилона фойдаланиш ҳақида Қуръони каримда қуйидаги ояти карималар нозил қилинган:

«Ерни эса ёйиқ (кенг) қилдик ва унга тоғларни ўрнатиб қўйдик ҳамда унда (ўсимлик, мевалардан) ҳар турли гўзал жуфтларни ундирдик («Қоф» сураси 7-оят) [7].

Биз осмондан баракотли сув (ёмғир) ёғдириб, у билан боғларни ва ўриб олинадиган донларни ундирдик («Қоф» сураси 9-оят) [7].

Шунингдек, зич мевали, шохлари баланд хурмоларни ҳам («Қоф» сураси 10-оят) [7].

Бандаларга ризқ булсин учун (шундай қилдик). Яна у (сув) билан «ўлик» шаҳарни (ерни) «тирилтирдик...» («Қоф» сураси 11-оят) [7].

«У сизлар учун Ерни «пайондоз», осмонни «бино» қилиб қўйди ва осмондан сув тушириб, у сабабли сизларга ризқ сифатида мевалар (мевали дарахтлар)ни ундирди... («Бақара» сураси, 22-оят) [7].

Аллоҳ сизлар учун ўзи яратган нарсалардан соя жойлар (бунёд) этди ва сизлар учун тоғлардан бошпаналар қилди ҳамда сизлар учун иссиқ (ва совуқдан асрайдиган кийимлар ва сизларни (турли) хавфдан сақлайдиган совутлар яратди. (Иймон келтириб) мусулмон бўлурсиз, деб У сизларга ўз неъматини шу тарзда мукамал етказиб туради» («Нахл» сураси, 81-оят) [7].

«У яна сизлар учун иссиқ (кийим) ва (турли) манфаатлар бўлсин, деб, чорва молларини ҳам яратди ва улардан тановул ҳам қилурсиз.

Яна сизлар учун уларда кечкурун (ўтлоқдан) қайтаётган ва тонгда (ўтлоққа) кетаётган пайтида гўзал манзара пайдо булур («Нахл» сураси, 5-6 – оятлар) [7].

Юқоридаги ояти карималардан маълум бўлмоқдаки, Аллоҳ ерда инсонлар учун жуда кўп неъматларни, яъни табиий ресурсларни яратди, табиатни гўзал манзарали қилди. Ҳақиқатдан ҳам инсоннинг фаровон ҳаёт кечириши учун табиатда барча нарсалар мавжуддир. Буни инкор этиб бўлмайди. Зеро, «Ар-Раҳмон» сурасининг 16-оятида «Бас, (эй, инсонлар ва жинлар!) Раббингизнинг қайси неъматларини инкор этасиз?! Деб марҳамат қилинган [7]. «Ар-Раҳмон» сурасида Аллоҳ таоло инсон ва жинларга бу дунё ва охирада ато этган ва этадиган неъматларини 31 марта эслатиб, шу оятни 31 марта қайтарган! Ушбу ояти карима, бизнинг фикримизча, Аллоҳ инсонларнинг ҳар турли эҳтиёжларини қондириши учун ер юзасида (табиатда) яратган неъматлар – ер (тупроқ), сув, ҳаво, ўсимлик, ҳайвонот дунёси ва б. дан инсонлар ўз эҳтиёжига яраша, тежамкорлик билан фойдаланишларини, уларга зарар етказмасликларини, яъни ифлослантмасликларини, бефойда исроф қилмасликларини ҳамда уларни яратган Аллоҳга доимо шукур келтиришликларини алоҳида уқтириш, алоҳида огоҳлантириш мақсадида 31 марта такрорланган бўлиши мумкин.

Аллоҳ яратган неъматларни, табиий ресурсларни асраб-авайлаш ва уларни яратган Аллоҳга шукур келтириш лозимлиги тўғрисида «Ёсин» сурасининг 33-35 – оятларида шундай дейилган: «Яна Биз унда (ерда) хурмозор ва узумзор боғларни (пайдо) қилдик ва у ерда булоқларни оқизиб қўйдик. Токи (одамлар) мевасидан есинлар. Холбуки, у (мевалар)ни ўз қўллари (билан) қилмаган эдилар. Ахир шукур қилмайдиларми?!» [7]

Ер юзасида бузғунчилик қилмаслик, табиатга зарар етказмаслик тўғрисида Қуръони каримнинг «Аъроф» сураси 56-оятида шундай дейилган: «Ерни (Аллоҳ, хайрли ишларга) ярокди қилиб қўйгандан кейин (унда) бузғунчилик қилмангиз!..» дейилган [7]. Ушбу оят инсоннинг табиатга нисбатан билдириши керак бўлган муносабатини кўрсатади. Яъни, инсоннинг табиатга нотўғри аралашини, мақсадсиз ҳайвонларни ўлдиришини, дарахтзор ва ўрмонларни кесиб юборишини, атроф-муҳитга қўпол муносабатда бўлишини динимиз ман этади.

Ўсимлик ва ҳайвонот дунёсини бемақсад ҳалок қилмаслик, уларни муҳофаза қилиш ва асраб-авайлаш тўғрисида Қуръони каримнинг «Бақара» сураси 205-оятда шундай дейилган: «Жумладан, «(Олдингиздан) кетганида ерда фитна-фасод, экин ва наслини ҳалок қилиш ишлари билан юради, Аллоҳ эса, фасодни (бузғунчиликни) ёқтирмайди». Оятда «экин» деб набодот олами, «насл» деб ҳайвонот олами эътиборга олинапти [7].

Аллоҳнинг биз инсонлар учун гўзал, унумли, мусаффо ва баракотли қилиб яратиб қўйган табиатни, ер (тупроқ), сув, ҳаво каби табиий ресурсларни ифлослантираётган, ўсимлик ҳамда ҳайвонот дунёсига зиён келтираётган инсонлар қилмишларини ҳеч ким кўрмайпти, билмайпти, деб фикр юритмасликлари, бу учун албатта жазо муқаррар эканлигини англамоқликлари лозим. Чунки Қиёмат куни зарар кўрган табиат ва табат компонентлари тилга кириб инсоннинг барча қилмишларини Аллоҳга айтиб беради. Бу ҳақда пайғамбаримизнинг қуйидаги ҳадиси муборакларида таъкидлаб ўтилган:

Пайғамбаримизнинг саҳобалари бўлмиш Абу Хурайра разийаллоҳу анҳу айтадилар:

Расулulloҳ: «Қиёмат куни Ер Аллоҳга барча хабарларни маълум қилади. Ернинг хабарлари – ҳар банданинг ва ҳар умматнинг Ер юзида қилган ишлари тўғрисида гувоҳлик беришидир. Ердан эҳтиёт бўлинг. У сизнинг онангиздир. Ҳар ким Ернинг устида бирор яхши, ёмон иш қилса (Ерга, сувга, ҳавога умуман, табиатга зарар етказса) у албатта, буни Аллоҳга хабар қилади», дедилар [1].

Яшаб турган заминимиз – Ер (тупроқ), сув, ҳаво ва бошқалардан ташкил топган она табиат Аллоҳнинг мулки бўлиб, улар инсониятга фойдаланиш учун топшириб қўйилган Аллоҳнинг омонатидир. Биз бу омонатни қандай бўлса шундайлигича авайлаб-асрашимиз, келгуси авлодларга ҳозир табиат қандай бўлса шундайлигича етказишимиз керак бўлади. Зеро, Аллоҳнинг омонатини кимда-ким яхши сақласа, Аллоҳ ҳам унинг иймонини муҳофаза қилади. Омонатга хиёнат эса охир-оқибат дўзах билан жазоланиши мумкин. Шунинг учун пайғамбаримиз Муҳаммад алайҳиссалом «Омонатни яхши сақламаганнинг иймони йўқдир, аҳдида турмаганнинг эса дини йўқдир», деб айтганлар ва бунинг учун Аллоҳ олдида жавоб берасизлар, деб огохлантирганлар.

Халқимиз орасида «Тузини ичиб, тузлиғига тупирма», деган мақол бор. Аллоҳнинг яратиб қўйган неъматларига ношукрлик қилиб «тузлуғига» тупириб, гунохкор бўлмаслигимиз, табиат ва унинг компонентларини асрашимиз, исроф этмаслигимиз лозим.

Хулоса. Муқаддас Қуръони каримда Аллоҳ томонидан мукамал қилиб яратилган неъматлар, табиат ресурслари ҳақида, шунингдек уларга зиён келтирмаслик, ифлослантирмаслик, исроф қилмаслик, табиат неъматларини асраб авайлаш тўғрисида кўплаб ояти карималар ва уларнинг қисқача изоҳлари билан юқорида таништириб ўтилди. Шунингдек, Пайғамбаримизнинг ҳадиси муборакларидан ҳам мисоллар келтирилди. Бу маълумотлар денгиздан томчи десак муболаға бўлмайди. Чунки Аллоҳнинг

инсонлар учун ер юзасида яратиб қўйган неъматлари, табиат ресурслари тўғрисида, уларни асраб-авайлаш, муҳофаза қилиш борасида, Пайғамбаримизнинг бу борадаги ҳадиси шарифлари, суннатлари тўғрисида кўплаб мисоллар келтириш, йирик асарлар битиш мумкин. Шу жihatдан, маънавиятимиз асоси бўлган, покликка, тозалikka, гўзалликка, софликка, меҳр-шафкат кўрсатишга, барча тирик жонзотларга зулум етказмасликка ундайдиган ислом динининг она табиат, унинг ресурслари ва уларни асраш борасидаги диний таълимотидан фойдаланиб аҳолининг экологик маданиятини оширишимиз мумкин. Натижада, инсонларнинг табиатга бўлган меҳри, табиий ресурслардан тежамкорлик билан фойдаланиш бўйича масъулияти ортади, табиат ва унинг ресурсларидан эҳтиёткорлик билан фойдаланиш, уларга таъсир этиш одоби шаклланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Имом Абу Хомид Ғаззолий. Мукошафат ул-қулуб. – Т.: «Адолат», 2002. – 167 б.
2. Кориев М. Р. Адир тупроқларининг зичлашиб бориши ва унинг олдини олиш чора-тадбирлари //Журнал Биологии и Экологии. – 2019. – №. 2.
3. Кориев М. Р. и др. Namangan viloyati atmosfera havosining ifloslanishi //География: Природа и Общество. – 2021. – Т. 2. – №. 1.
4. Rustamjonovich K. M. Geocological issues of horticulture development in the foothills of the Namangan region of the Republic of Uzbekistan //Indonesian Journal of Innovation Studies. – 2019. – Т. 5.
5. Rustamjonovich K. M. Salinization of soils of adyr as a result of irrigation farming in the possibility of its elimination //Indonesian Journal of Innovation Studies. – 2019. – Т. 7.
6. Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Иймон. – Т.: «Hilol-Nashr», 2021. – 368 б.
7. Шариф Отабоев. Экология, дин ва саломатлик. – Т.: «Тошкент ислом университет», 2007. – 106 б.

**ZEBO MIRZO SHE'RLARIDA OTA-ONAGA MUNOSABATNING
MILLIY-BADIIY IFODASI**

Saloxiddinova Nigoraxon Inomjonovna

*Filologiya fanlari falsafa doktori, katta o'qituvchi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Andijon*

Annotatsiya. Bugungi o'zbek ayol ijodkorlarining ijodiy laboratoriyasiga kirar ekanmiz, ular she'riyatida ko'ngil lirikasi ustuvor yo'nalish kasb etib borayotganligiga guvoh bo'lamiz. Olamni poetik idrok etishda yangicha qarash, yangicha fikrlash an'anasi kuchaymoqda. Ijtimoiy ruhning o'rniga qalb ruhiyati, uning evrilishlarini poetik obrazlar orqali ifodalash she'riyatda g'oyaviy-estetik ta'sirchanlikni oshirishga, ijodkorlar poetik mahoratini ko'rsatishga xizmat qilmoqda.

Kalit so'zlar. Mavzu, poetik obraz, badiiy tasvir, oksimoron san'ati, poetik ma'no, lirik qahramon.

Abstract. When we enter the creative laboratory of today's Uzbek women artists, we witness that the lyric of the heart is becoming a priority in their poetry. The tradition of a new way of thinking and a new way of thinking in the poetic perception of the world is gaining strength. Instead of the social spirit, the spirit of the soul, expressing its transformations through poetic images serves to increase the ideological and aesthetic effectiveness of poetry, and to show the poetic skill of creators.

Key words. Theme, poetic image, artistic image, art of oxymoron, poetic meaning, lyrical hero.

Аннотация. Когда мы заходим в творческую лабораторию современных узбекских художниц, мы видим, что лирика сердца становится приоритетной в их поэзии. Набирает силу традиция нового взгляда, нового мышления в поэтическом восприятии мира. Вместо общественного духа дух сердца, выражающий свои эволюции через поэтические образы, служит повышению идейно-эстетической действенности поэзии, проявлению поэтического мастерства творцов.

Ключевые слова: тема, поэтический образ, художественный образ, искусство оксюморона, поэтический смысл, лирический герой.

Kirish. Zebo Mirzayeva ijodini tahlil qilar ekanmiz, uning ishqqa yo'g'rilgan dunyosi o'quvchini tamoman o'ziga mahliyo etadi. E'tibor berib qaraydigan bo'lsak, shoira she'rlarining o'zak qismini ishq mavzusi band etgan. O'sha o'zakdan esa Yaratganga, vatanga, ota-onaga va yorga bo'lgan muhabbat paydo bo'lgan. U o'z muhabbatini turli poetik obraz va badiiy tasvirlar bilan ifoda etmoqqa urinadi. Natijada, har bir she'rida kutilmagan tashbehlariga, ramzlarga boy olam paydo bo'ladi. O'quvchi ramzlar tilini, timsollar mohiyatini to'g'ri anglasagina, bu olamning yana bir sirini tushungandek bo'ladi.

Asosiy qism. Shoira vatan, tarix, ota-ona, zamon haqida bitilgan she'rlariga an'anaviy uslubda yondashmaydi. Balki yangi timsollar orqali ham ona yurtning, tarixning siyratini yarata oladi. Eng asosiysi esa, ijodkor qalbidagi bular uchun ham

ishq bor. Endi bu ishq o'zni bilan goh achinish, goh quvonch, goh afsuslanish, goh hayqirish bilan yuzaga chiqadi.

Ijodkorning "Onamga" she'rida oksimoron san'ati bilan yuzaga kelgan *oppoq tun* birikmasi orqali farzandlar tashvishida qora sochi oqargan onaning umumlashma obrazini yarata olganligini ko'rishimiz mumkin. Uning "Onamga" she'rida ham tantanavor kayfiyat o'rniga ezginlik, o'zining onasiga bo'lgan munosabatidan qoniqmaslik holati sezilib turadi.

Oq sochlari oppoq tun uning,
Umri halol ishqqa bayroqdir.
Oh, yuzlari dunyoi dunning,
Go'zalidan chiroyliroqdir.
(Bo'lolmadim hassasichalik),
Otam dardin ko'targan mohim.
Ushoqqina onam ko'ngliga
Bir hovuch nur bergil, iloyim! [5.B.9].

Oksimoron san'ati bilan yuzaga kelgan *oppoq tun* bu o'rinda katta poetik ma'no kasb etgan. She'rdagi *oppoq tun* lirik qahramon uchun yorug'lik manzili. Chunki oqlik va tunning qoraligi bu o'rinda badiiyatning go'zal namunasini hamda ijodkorning tuyg'ularning mohir rassomi ekanligini ko'rsatgan. "Albatta, so'zga yangi ma'no, yangi badiiy jilo berishda shoirning iste'dodiga, so'z tanlash va qo'llash mahoratiga, taassurotlarining boyligi va fikrlarining teranligi" [4.B.42] lirik qahramonning ishq deb atalmish ko'ngil saltanatida onaning umri bayroq timsolida aks etishiga sabab bo'ladi. Oilaning ichki tashvishini butun gardaniga ilgan, tashvishlardan toliqqan ona shuning uchun bu she'rda dunyo go'zalidan-da chiroyliroq deb ta'riflanadi. Onasidan olislariga ketgan farzand o'z farzandlik burchini bajara olmagan, balki uni sog'inchi azobiga giriftor etgani kitobxon qalbini ham junbushga keltiradi. She'rning so'nggi esa "*Rabbim, meni gul qilib yarat, hech bo'lmasa uning poyiga!..*" deya lirik qahramonning Yaratganga iltijosi bilan yakunlanadi. Shuningdek, ijodkor ushbu she'rida o'zi bilan o'zi ichki ziddiyatga berilayotganligini sezish qiyin emas. Ayni hol ham badiiy fikrning originalligini ta'minlab kelgan.

Har bir farzand ota-ona oldida qarzdor ekanligi ko'hna tarixdan ma'lum va bu holat asrlar she'riyatida turlicha talqin etilgan. Chunonchi, Navoiy bobomiz:

Boshni fido ayla ato qoshig'a,
Jismni qil sadqa ano boshig'a.
Tun-kunungg'a aylagali nur fosh,
Birisin oy angla, birisin quyosh, - [2.B.118]

deb ota-ona uchun tanu jondan kechmoq, yoinki, qalblarini har doim nurafshon aylamoq kerakligini uqtiradi. Xalq orasida uchraydigan "Ota – quyosh, ona – oy" iborasi ham yuqoridagi baytga o'zni bilan singdirilgan.

Uni xafa qildim, bora olmayman,
Nazdimda u qahri qattiq, bardoshli.
Hech kimdan so'ramas, hech kimsa ko'rmas,
Bilaman, yo'l poylar ko'zlari yoshli...

Ota oldidagi aybdor farzandning achchiq ko'zyoshi, achchiq iqrori she'r ohangiga tabiiy singdirilgan. O'zbek xalqi mentalitetida ota deyilganda qahri qattiq, vazmin, sirli insonning qiyofasi chiziladi, lekin bu uning suvratida, xolos. Siyratida esa aksincha. Chunki bu insonda ham qalb bor, ko'ngil bor. Hech qaysi ota o'z farzandini sevmaydi emas, shunchaki, hayotda to'g'ri yo'lini topib ketishida qattiqqo'llik bilan qalqon yelkadosh, kezi kelganda g'amdosh bo'la oladi.

Dunyo sellariga borolmasdim tik,
Qalbimga bermasa edi hur qonni!
Axir, u do'zaxning og'zini yopib,
Ko'tarib turibdi to'qqiz osmonni.

Istiora san'ati bilan vujudga kelgan birinchi satrning javobi ikkinchi misrada izohlangandek ko'rinadi. Ya'ni lirik qahramon vujudida oqayotgan "qon" oddiy qon emas, "hur qon". U shu "qon" tufayli hayot sinovlarini yengishda o'zini mardonavor, ulug'vor his qiladi. Chunki otadagi chin insoniy fazilatlar shu "qon" tufayli farzand ruhiyatiga ko'chib o'tadi. Shoir otaning qudrati haqida: "do'zaxning og'zini yopish", "to'qqiz osmonni ko'tarish"ga qodirligida ko'rsatadi va bu ifoda bilan mubolag'aning go'zal namunasini yaratadi.

Payg'ambar emas, yo avliyo emas,
Ammo men uchun u eng buyuk odam.
Oriyatday ulug', mehrday baland –
Hazrati otam u, hazrati otam! [5.B.88].

Lirik qahramon otasi haqida yozganda "U" kishilik olmoshini qo'llaydi. Misralar davomida "U" kim ekanligini o'quvchiga avvaldan bildirmaydi. "U"ning qudrati, mehri, bardoshi haqida gapirib keladi-da, she'rning so'nggi misrasida "U" otasi ekanligini ma'lum qiladi, ammo shunchaki "otam" deb tanishtirmaydi, "hazrati otam" darajasida ta'rif etadi. Zebo Mirzayeva so'zlarni bekorga isrof qilmaydi, balki so'zlarga o'rni bilan darddan yaralgan hislarini yuklaydi. Natijada kuchli pafosga yo'g'rilgan she'rlar yaratiladi.

"Poetik obraz hayot haqidagi shoirona xayol va tafakkurning konkret his-tuyg'u, kechinma orqali maxsus suratlanishidir; bu goh ob'ektiv olamning shoir sub'ekti – qalb oynasida aks etishi tarzida, goh ruhiy olam – odamlar shuuriga, hissiyotiga ko'chgan olamni shoir "go'zallik qonunlari" nuqtai nazaridan qaytadan kechirishi, yangidan inkishof qilishi tarzida yuz beradi" [1.B.3]. Darhaqiqat, ijodkor olamni shunday e'tirof etmaydi, balki yuqoridagi kabi holatlarni qalbidan o'tkazadi, fikrlaydi, sintez qiladi va eng maqbulini qabul qiladi. Zero, inson ongi hayotiy voqelikdan estetiklik sari o'sib boradi. Natijada uning fantaziyasi bilan favqulodda nozik tashbehlar paydo bo'ladi. So'z esa badiiy adabiyotda o'zining yangi qiyofasi bilan yangicha mazmun kasb etadi. Dunyoni obrazli qiyofada gavdalantirish so'z yordamida amalga oshirilar ekan, N.V.Gogolning quyidagi fikrlari ahamiyatga molikdir: "So'z ko'p emas, ammo ular shu qadar aniqki, ular barcha narsani ifodalaydi. Har bir so'zda tubsiz kenglik bor, har bir so'z shoir kabi qamrov bilmaydi [3.B.55].

Xulosa. Ijodkor xayolini band etgan voqelik, avvalo, uning ongida akslanadi. Yuritilgan mulohaza natijasida qalb uning oqimiga bo'ysunadi. Ana shu jarayonda yozuvchining ko'ngil torlari chertiladi. U borliqning mohiyatidan yana bir yangi

Bugungi O'zbekiston - bu hali tom ma'nodagi, biz orzu qilayotgan, intilayotgan, Yangi O'zbekiston emas. Hali bu marraga yetish uchun oldimizda juda olis va mashaqqatli yo'l turibdi. Yo'limiz shu paytgacha oson bo'lgani yo'q, bundan keyin ham oson bo'lmaydi. Lekin biz dadil oldinga borishdan, kerak bo'lsa, kutilmagan, ammo pirovard natijasi samarali va xalqimiz manfaatlariga javob beradigan noan'anaviy qarorlar qabul qilishdan cho'chimasligimiz kerak. Shu bois ham istiqbolli yosh kadrlarning intelluktual salohiyatini yuksaltirish davr talabi bo'lib kelmoqda. Nafaqat yosh rahbar kadrlarni, balki barcha yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va tarbiyalash, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, yosh kadrlarning iste'dodini, rahbarlik salohiyatini ochib berish Yangi O'zbekistonning asosiy maqsadlardan biriga aylangan.

Yangi O'zbekistonning yanada taraqqiy etishida IT texnologiyalari ham katta rol o'ynamoqda. Yurtimizda qolaversa xorij davlatlarida shu soha bo'yicha ta'lim olgan yosh rahbar kadrlar sohani to'laqonli o'rganib yoshlar orasida yanada kengroq targ'ib etmoqda. Bugungi hamma yosh zamonaviy rahbarlar ilg'or texnologiya tarafdori va shunga moyil hamdir deb aytish to'g'ri bo'ladi. Bu esa o'z navbatida, yosh rahbarning zamonaviy va ilg'or ishlab chiqarish uslublariga murojaat etish ehtimolini kuchaytiradi. Demak zamonaviy rahbar yoshidan qati'y nazar ilg'or texnologiyalar tarafdori, zamonaviy qarorlar qabul qiladigan qobiliyatli shaxs bo'lmog'i lozim.

Yangi O‘zbekistonning yoshlari yangicha fikrlaydigan, yangi-yangi g‘oyalarni dadil o‘rtaga tashlab, ularni amalga oshirishga, muammolarni ijodiy va nostandart yondashuvlar asosida hal etishga qodir yoshlar bo‘lib shakllanmog‘i kerak.

Sinovdan o‘tgan shaxslarni rahbar qilib saylash zarur. Nega deganda, bu dunyoda katta aql-zakovat bilan birga, ko‘pni ko‘rgan, uzoqni ko‘zlaydigan irodasi mustahkam, kerak bo‘lsa turli-turli murakkab sinovlardan o‘tgan odamlarni biz o‘zimizga rahbar qilib tanlashimiz kerak. Uzoqni ko‘ra olmaydigan odamning rahbar bo‘lishga mutlaqo haqqi yo‘q. Shuning uchun biz kabi yosh avlod vakillarining bilim olishi, ilm-fan, innovatsiyalar, adabiyot, san‘at, sport sohasidagi iste‘dod va salohiyatimizni yuzaga chiqarish, jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etish uchun barcha sharoitlar yaratib berilmoqda deb o‘ylayman.

Biz uzluksiz milliy ta‘lim-tarbiya tizimining barcha bosqichlarini uyg‘un va mutanosib rivojlantirishga alohida e‘tibor bermoqdamiz. 2021-yil Toshkent shahrida eng yuksak xalqaro talablarga javob beradigan “Yangi O‘zbekiston” universiteti tashkil etildi. Ushbu universitetda mamlakatimizdagi barcha oliy o‘quv yurtlari uchun na‘muna bo‘ladi. Eng bilimli va iste‘dodli yoshlarimiz shu yerda o‘qiydi. Mana shunday o‘zgarishlar bo‘layotgan bir paytda biz yoshlar aqlimizni, intellektual salohiyatimizni, bilim doiramizni oshirishimiz va yurtimizdagi o‘zgarishlarga befarq bo‘lmasligimiz lozim.

Davlatimiz rahbari “Axborot texnologiyalarini rivojlantirishga alohida ahamiyat beramiz. Men har gal yoshlar bilan uchrashganimda, “Ilmni qadrlang, ilmga intiling” degan so‘zlarni takrorlashdan aslo charchamayman. O‘zingiz ko‘ryapsiz, dunyoda o‘qigan, zamonaviy ilm va hunarlarni puxta egallagan, yosh avlodini ayni shu ruhda tarbiyalagan xalqlar, davlatlar jadal rivojlanmoqda. Yangi O‘zbekiston yoshlari ham shunday yuksak darajalarga ko‘tarilishi uchun biz albatta barcha imkoniyatlarni ishga solamiz”, - deydi.

Azmu jazm bilan ish tutdim. Biron ishni qilishga qasd qilgan bo‘lsam, butun zehnim, vujudim bilan bog‘lanib bitirmaguncha undan qo‘limni tortmadim. Bashariyat tamaddunining rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shgan Sohibqiron Amir Temur bobomiz aytganlaridek, nimaiki qilsak bor kuchimiz bilan harakat qilmog‘imiz darkor. Biz Uchinch Renessansga qadam qo‘yishda ham mana shunday azmu jazm va shijoat bilan, butun zehnimiz vujudimiz bilan harakat qilmog‘imiz lozim.

Yangi O‘zbekiston orzusi, bugungi kunlarimizga nisbatan aytganda, hozirgi davrning taqazosi, uning asl qiyofasini, harakatlantiruvchi kuchlari va omillarini belgilaydigan g‘oyaviy-ma‘naviy asos, xalqimizga xos yaratuvchanlik shijoati va keng ko‘lamli islohatlarimizning yaqqol ifodasidir.

Yosh rahbarlarda eng murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri va tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantirishda maxsus trening darslaridan foydalanish va malaka oshirish kurslarida o‘qitish maqsadga muvofiqdir. Kasbiy mahoratini oshirish yo‘lidagi asosiy omil nafaqat kasbga oid mutaxassisliklar, balki rahbarlik mahoratini oshirishga ham tegishlidir. Misol uchun, “General Electric” kompaniyasi inson resurslarini rivojlantirish uchun sarflangan har bir dollar ustiga ustama 3 dollar foyda olar ekan. Ushbu rivojlantirish dasturidagi asosiy e‘tibor,

yangi texnologiyani o'zlashtirish va maqsadga intilish yo'lida samarali faoliyat yuritish uslubini o'rganishga qaratiladi. Shunday ekan yosh rahbarlarni tashkilotda statusi va mavqei oshirish, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish samarali yangicha uslublarni o'rganishni davrning o'zi taqozo qilmoqda. Shu maqsadda yosh rahbarlarining malakasini oshirish zarur. Ularni aynan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasiga 4 oylik "Zamonaviy boshqaruv" va "Boshqaruv mahorati", "Kreativ boshqaruv", "Siyosiy madaniyat" kabi malaka oshirish kurslarida o'qitish lozim. Bundan ko'zlangan maqsad yosh rahbarlarning rahbarlik mahorati oshadi, xodimlariga bo'lgan munosabati o'zgaradi, muammoli vaziyatlardan oson chiqib ketish yo'llarini o'rganadi. Sohasiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ishlash texnikasini oshiradi, bugun bilan hamnafas bo'lish kerakligini va xodimlariga o'rnak bo'lish ko'nikmalarini egallaydi. Shuningdek, seminartreninglar mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy pozitsiyaga ega bo'lgan va qaror qabul qila oladigan yoshlarni tarbiyalash, ularda mantiqiy fikrlash va mohirona munozara olib borish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda davlat xizmatida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish qadriyat sifatida namoyon bo'lmoqda.

Hech bir rahbarga to'liq o'xshashga harakat qilmang, siz uning "ikkinchi nusxa"si bo'la olmaysiz. Siz undan va o'zgalardan eng yaxshi sifatlarni oling va ulardan ham komil bo'lishga intiling. Yangilikka chanqoq bo'ling, rahbarlik faoliyatingizda yangi uslub, texnologiya, yondashish, loyihalar muallifi bo'ling va shu bilan birga mutaxassislar maslahatini oling.

Xulosa qilib aytganda Yangi O'zbekistonning Uchinchi Renessansni amalga oshirishda yanada jadal qadam qo'yish, biz kabi yoshlarning zamonaviy texnologiyalarni, tezkor va samarali qaror qabul qilishni bilishimiz hamda liderlik qobiliyatini o'stirish uchun jamoa a'zolari bilan ko'proq muloqotga kirishishimiz lozimdir. Biz kabi yoshlar ota-onamizning, Vatanimizning, Prezidentimizning qolaversa butun xalqimizning ishonchini to'laqonli oqlaymiz, albatta.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. A. Yuksak malakali mutaxassislar - taraqqiyot omili.-T.: O'zbekiston, 2005, 22- b.
2. Глухов В.В. Менеджмент: Учебник. 3- изд.- СПб.: Питер, 2009. -608 с.
3. Feodor Mikhaylova, Kolesnikova Julia, Salyakhov Eldar, Current tendencies of the development of serviceof human resources management Procedia – Social and Behavioral Sciences Volume 150, September 2014, Pages 300-335
4. Qosimova D.S. Menejment nazariyasi: darslik. –T .: Tafakkur bo__stoni, 2011. -336 b.
5. M.Mahkamova, S. Yuldasheva, Sh. Holmatova Menejment darslik –T.: Sharq, 2007. -200 b.
6. <http://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
7. <http://www.uzagroservis.uz> —O'zagroservisAJ web sayti
8. <http://www.cbu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankning rasmiy sayti.

**KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNI O'QISHGA
BO'LGAN MUNOSABATINI**

Gulhayo Umarova Murodiljonovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Boshlang'ich ta'lim fakulteti o'qituvchisi
gulhayoumarova03@gmail.com

Kayumxo'jayeva Fazilat Dilshod qizi
Boshlang'ich ta'lim fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarning o'qish faoliyati, qiziqish va harakatchanligi, ulardagi aqliy taraqqiyot rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, o'quvchilarda qiziqishlar, aqliy taraqqiyot rivojlanishi va ularning ahamiyati haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: aqliy rivojlanish, taraqqiyot, o'quvchi, kichik maktab yoshi, qiziqish, o'qish, topshiriq, axloqiy sifat, mustaqil fikrlash, malaka va ko'nikma.

Abstract. The article provides information on the educational activities, interests and mobility of primary school children, factors affecting the development of their intellectual development, the interests of students, the development of intellectual development and their significance.

Keywords: mental development, academic performance, student, primary school age, interest, reading, homework, moral qualities, independent thinking, skills and abilities.

Kirish. Bugunga kunda mamalakatimizning rivojlanishi va ravnaqi uchun xizmat qiladigan, aqliy rivojlangan, iste'dodli yoshlarni tarbiyalash talab etilmoqda. Shunday ekan ta'lim jarayonini mukammallashtirmay jamiyat talab etayotgan yoshlarni shakllantirib bo'lmaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Pedagogik ta'limda bunga yechim topish, o'quvchilar qiziqishini, e'tiborini jalb qilish uchun ko'pgina metodlar, usullar, ishlab chiqilmoqda. Bu jarayonni esa har bir bola, o'quvchi turlicha o'z qiziqishidan, qobiliyatidan, turmush tarzidan jelib chiqqan holda qabul qilmoqda. Aynan bu dolzarb masalada pedagogning o'rnini asosiy negiz deb ham olsak bo'ladi.

Tadqiqotlardan kelib chiqdiki kichik yoshdagi o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishda quyidagi bir nechta samarali yondashuvlar mavjud.

- o'quvchilarda bilim olishga qiziqishni shakllantirish uchun qulay psixologik muhitni yaratish.

- o'quvchilarning bilim olishga qiziqishini oshiruvchi usul va usullar tizimini ishlab chiqish va joriy etish.

-kichik yoshdagi o'quvchilarda bilim olishga qiziqishni oshirishga qaratilgan usul va usullardan foydalanish.

- tadqiqotning dastlabki bosqichida o'rganishga qiziqish diagnostikasini o'tkazish

- final so'ngida esa o'quvchilarga qayta tashxis qo'yish.

Kichik yoshdagi o'quvchilarning qiziqishini oshirishning bir qator omillari mavjud.

O'quv materialining mazmuni,

O'qituvchining ma'lumotni to'g'ri yetkaza olishi,

Muhokama. Shaxsiy fazilatlarini va individual xususiyatlarini hisobga olish. Bundan tashqari G.I. Kroslining so'zlariga ko'ra dars jarayonida o'quvchini rag'batlantirib borish, unga ilmga bolgan motivatsiyani berish o'quvchini ta'limga bo'lgan e'tiborini jalb qilishda muhim rol o'ynaydi.

Maktab hayotining boshlang'ich davri 6-7 yoshdan 10-11 yoshgacha (1-4-sinflar) yosh oralig'ini egallaydi. Boshlang'ich maktab yoshida bolalar rivojlanishning sezilarli zaxiralariga ega. Ularni aniqlash va samarali foydalanish rivojlanish va tarbiya psixologiyasining asosiy vazifalaridan biridir. Bolaning maktabga kirishi bilan, ta'lim ta'siri ostida uning barcha ongli jarayonlarini qayta qurish boshlanadi, ular kattalarga xos bo'lgan fazilatlarga ega bo'ladilar, chunki bolalar ular uchun yangi faoliyatga va shaxslararo munosabatlar tizimiga kiritiladi. Bolada mavjud bo'lgan zaxiralardan mohirona foydalanish uchun bolalarni maktabda va uyda ishlashga imkon qadar tezroq moslashtirish, ularni o'qishga, diqqatlilikka, mehnatsevarlikka o'rgatish kerak. Maktabga kirish bilan bolada o'zini o'zi boshqarish, mehnat ko'nikmalari, odamlar bilan muloqot qilish qobiliyati, rol o'ynash xatti-harakati etarli darajada rivojlangan bo'lishi kerak. Bola maktabga kirgan paytdan boshlab rivojlanishning yangi ijtimoiy holati o'rnatiladi. O'qituvchi rivojlanishning ijtimoiy holatining markaziga aylanadi. Boshlang'ich maktab yoshida o'quv faoliyati etakchi o'rinni egallaydi. O'quv faoliyati - o'quv sub'ekti sifatida o'zini o'zgartirishga qaratilgan o'quvchilar faoliyatining maxsus shakli. Boshlang'ich maktab yoshida fikrlash asosiy vazifaga aylanadi. Kichik maktab o'quvchilari, maktabgacha yoshdagi bolalar kabi, odatda yaxshi mexanik xotiraga ega. Ularning ko'pchiligi o'qish davomida boshlang'ich maktab o'quv matnlarini mexanik ravishda yodlash, bu ko'pincha sezilarli qiyinchiliklarga olib keladi o'rta maktab material murakkabroq va hajm jihatidan kattalashganda va o'quv muammolarini hal qilish nafaqat materialni takrorlash qobiliyatini talab qiladi. Yoshga bog'liq xususiyat ham umumiy irodaning etishmasligi: kichik o'quvchi mo'ljallangan maqsad uchun uzoq vaqt kurashda, qiyinchilik va to'siqlarni engib o'tishda hali ko'p tajribaga ega emas. U muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda taslim bo'lishi mumkin, o'zining kuchli va imkonsizligiga ishonchini yo'qotadi. Ko'pincha injiqlik, o'jarlik bor. Ularning odatiy sababi oilaviy ta'limning kamchiliklari. Bola uning barcha istaklari va talablari qondirilishiga odatlangan, u hech narsada rad etishni ko'rmagan. Injiqlik va qaysarlik maktabning unga qo'yadigan qat'iy talablariga, o'zi xohlagan narsani qurbon qilish zarurligiga qarshi bolaning noroziligining o'ziga xos shaklidir. Kichik maktab o'quvchilari o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ularning do'stligi, qoida tariqasida, tashqi hayot sharoitlari va tasodifiy manfaatlarining umumiylikiga asoslanadi; masalan, ular bir partada o'tirishadi, yonma-yon yashaydilar, o'qish yoki chizishga qiziqadilar... Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining ongi hali har qanday muhim shaxs xususiyatlariga ko'ra do'st tanlash darajasiga yetmagan. Ammo umuman olganda, III-IV sinfdagi bolalar shaxsiyat va xarakterning ayrim

fazilatlarini chuqurroq bilishadi. Va allaqachon III sinfdan, agar kerak bo'lsa, birgalikdagi mashg'ulotlar uchun sinfdoshlarni tanlang. Uchinchi sinf o'quvchilarining taxminan 75 foizi boshqa bolalarning ma'lum axloqiy fazilatlarini bilan o'z tanloviga turtki beradi.

Natija. Kichik yoshdagi o'quvchilarni qiziqtirish diagnostikasi. O'z ma'nosi bilan "qiziqish" lug'atdan aniqlaydigan bo'lsak biron-bir narsaga e'tibor, bilish va anglashga bo'lgan katta istakdir. Kognitiv qiziqish- bu anglashning shunday bir turi, kichik yoshdagi o'quvchilar hayotida alohida o'ringa ega. Negaki, maktabda asosiy yo'nalish bilim olish tizimini anglashga qaratilgan bo'ladi. Shundan kelib chiqadiki " kognitiv qiziqish " o'qishga qiziqishning xususiy, shaxsiy turi hisoblanadi.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarini o'qitishga qiziqishning rivojlanishi baholash uchun, o'qitishga qiziqishni shakllantirish darajalari aniqlandi. Ular quyidagi jadvalda keltirilgan.

Daraja	Xususiyat
Yuqori	Bu darajada kichik yoshdagi o'quvchilarning o'qishga qiziqishning yuqori bo'lishi; Vazifalarni hal qilishda ijobiy his tuyg'ularning mavjudligi; Mavjud bilimlarni amaliyotda faol qo'llashda; Qiyinchilik tug'diradigan muayyan vaziyatlarda o'quvchi taslim bo'lmaydi, aksincha miya faoliyatini ishga soladi.
O'rta	Bu darajada kichik yoshdagi o'quvchilarning o'qishga qiziqishning o'rtacha bo'lishi. Ushbu qiziqish quyidagicha tavsiflanadi. Kognitiv qiziqish shaklining yetarli darajada yuqori emasligi; Bolaning diqqatini doimiy ravishda uyg'otish zarurati; Topshiriqqa qiziqishning mavjudligi va muayyan natijaga erishish istagi; Taklif etilgan kasb uchun ma'lum ijobiy his-tuyg'ularni saqlab qolish; Muvaffaqiyatli va to'g'ri bajarilgan ishdan qoniqish hissining mavjudligi; Qiyinchilik tug'diradigan muayyan vaziyatlarda o'quvchilar o'zlarini nochor his qilishlari va kattalarning yordamiga muhtoj bo'lishi.
Quyi	Bu darajada kichik yoshdagi o'quvchining o'qishi pastligini anglatadi. Ushbu qiziqish quyidagicha tavsiflanadi Darsga faqat boshida qiziqish; Topshiriqning yechimiga nisbatan " befarqlik " sifatida tavsiflanishi mumkin bo'lgan munosabat; Ishda ma'lum mahsuldorlikning yo'qligi, bolaning tez tez chalg'ishi.

Kichik yoshdagi o'quvchilarni o'qitishga qiziqishning dastlabki darajasini aniqlash uchun quyidagi metodikalari qo'llanildi.

1. Kichik yoshdagi o'quvchilarning ta'lim motivatsiyasini diagnostika qilish metodikasi. " Motivlar zinapoyasi " N. V . Elsimova
2. "Motivatsiya anketasi " muallif E.N. Elsimova
3. Umumiy o'rganish qobiliyatining tuzilishiga kognitiv qiziqishni diagnostika qilishning qamrovli tizimi. E. A . Baranov

Diagnostikadan so'ng, kichik yoshdagi o'quvchilarning o'qishga qiziqish darajasi past degan xulosaga kelish mumkin. Ushbu muammo bir qator omillar tufayli yuzaga kelishi mumkin, jumladan

- o'quvchining o'qituvchiga bo'lgan munosabati;
- o'qituvchining o'quvchiga munosabati;
- fanning o'quvchi hayotidagi ahamiyati;
- o'quvchining aqliy rivojlanish darajasi;
- o'quv faoliyatining unumdorligi;
- o'qitish maqsadini noto'g'ri tushunish;
- maktab qo'rquvi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda uchinchi sinf o'quvchilarning odob tog'risidagi fikr, va mulohazalari mazmuni va shakli va tuzilishi bilan fikr mulohazalaridan farqlanadi. Buning sababi ularning turmush tajribasi ko'lami kengroqligi yosh davri xususiyatiga bog'liq farq bilan narsaga turlicha qarsh har xil yondashish muammo mohiyatini ochib berish uslubi bo'yicha ham farqlar mavjuddir. Amalda barcha tavsiyalarni qo'llash orqali siz o'quvchilarni bilimga bo'lgan qiziqishini oshirishimiz mumkin. Bolaning onggi ilmiy axborotlarni qabul qilishi murakkabroq jarayondir. Shuning uchun bu erda o'qituvchining professional yordami kerak, to'g'ri yondashuv va bolaning o'quv jarayoniga maksimal darajada jalb etilishi. Bundan tashqari, bolaning e'tiborini jalb qilish, qiziqishini oshirish kerak. Buning uchun puxta rejalashrilgan dars ishlanmasi, yangicha interaktiv metodlar bn o'qituvchi qurollanib, o'quvchini dars davomida qamrab olishi zarur. O'quvchi jarayonga o'z xohishi bilan ishtirok etishi va zerikish uchun fursat qolmasligi shart. Bolaning maktabgacha ta'limdan so'ng ilk qadami maktab maskani bo'ladi. O'ynab kulib yurgan bolada endi mas'uliyat biroz ko'payadi. Bolaning fikr-u hayolidan o'yin programmasi surilib, bilim olish, o'z ustida ishlash, yangi ko'nikmalarni hosil qilish jarayoni kechadi. Savod o'rgatish davri esa kichik yoshdagi o'quvchi va o'qituvchi uchun ham biroz murakkabroq davr hisoblanadi. O'quvchidan ko'proq mehnat, shijoat, chidamlilik talab etilsa, o'qituvchidan esa sabr, matonat, diqqat va psixologik yondashuv talab etiladi. Bola ushbu jarayondan muvaffaqiyatli o'tib olishi uchun esa, biz pedagog ustozlardan yuksak mahorat, izlanuvchanlik, kreativlik, o'z ustida ishlash, yangi texnologiyalar asosida darsni tashkil qilish talabi qo'yilgan. Hozirgi kunga kelib internet, virtuellik rivojlangan davrda biz uchun qulay bo'lgan onlayn kurslar, vebinarlar, marafonlar, mahorat darslari kabi turli xil axborot manbalarini o'rganib chiqishimiz va ularni amalda qo'llashimiz bizga fanni mukammal darajada o'zlashtirish o'qituvchi va o'quvchilar uchun imkoniyat yaratadi. Hozirgi davr zamonaviy ta'limda o'quvchilarning darsga bo'lgan munosabati qoniqarli darajada deb ham aytolmaymiz. Chunki zamon rivojlangan sari yoshlarning ham dunyoqarashi kengayib bormoqda. Aynan kichik yoshdagi bolalar kerakli bilim, ko'nikmalarni qabul qilishda muammolarga duch kelmoqda. Bular qanday muammolar deysizmi? Pedagogning o'z fanini chuqur bilmasligi, yangi texnologiyalar, internet tarmoqlaridan, programmalardan foydalana olmasligi, darsning borishi eski talqindagi metodlar asosida olib borilmoqda. Shu fursatdan foydalanib, Sobiq Prezidentimiz I. A. Karimovning so'zlaridan keltirib o'tmoqchiman. " Yaxshi yashashni istar ekanmiz, biz tezroq

eskilik sarqitlaridan, illatlardan qutulishimiz zarur",-deya aytib o'tganlar. Zero bu so'zlar bejizga emas, davlatimiz rivojlanishi uchun eski tizimdan vos kechishimiz yangilik tomon intilishimiz, o'z ustimizda ko'proq ish olib borishimiz, yoshlarni ta'limga, bilim olishga bo'lgan ishtiyoqni uyg'otishimiz zarur. Buning uchun hozirda chet el pedagoglarining metodik qo'llanmalari, rus olimlarining tadqiqot ishlarini, nazariy bilimlarni o'rganib borishimiz, ularni amalda qo'llay olishimiz zarur. Shundagina kichik yoshdagi bolalarni o'qishga qiziqtirish imkonini beradi. Darsni tashkil etishda bir necha metodlarni qo'llab o'quvchi e'tiborini jalb qilish mumkin. Masalan, o'rgimchak to'ri metodi, yelpig'ich metodi, to'rt taraf metodi, klasster, maktub, asalari va shunga o'xshash bir qancha metodlarni o'rganib ular ustida ish olib borish mumkin. Ishoning bu metodlar yoshlarning e'tiborini jalb qilishda, ularning aqliy faoliyatini rivojlantirishda, kreativ fikrlashga, undaydi. Biz bu metodlarni qo'llar ekanmiz, darsni ham o'yin tarzida olib borishimiz o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini uyg'otamiz. Davlat Ta'lim tizimida ham yildan- yilga ta'limga oid bir qancha o'zgarishlar, islohotlar olib borilmoqda. Masalan, ta'lim oluvchilar uchun shart - sharoitlar, smart darsliklar, dars mavzusi yuzasidan audio videoroliklar, ishlab chiqilmoqda, bolalarga ushbu mavzuni kengroq yoritib berish uchun yangi texnologiyalar, usullar joriy etilmoqda.

References

1. Umarova Gulhayo Murodiljonovna. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiruvchi texnologiyalar // American Journal of Interdisciplinary Research and Development. Volume 09, Oct., 2022. pp. 210-224.
2. Gulhayo Umarova Murodiljanovna, Zulayho Jabborova Mansur qizi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish // "Ustozlar uchun" fidoyi va jonkuyar pedagoglar jurnali. 34-son, 1-to'plam, dekabr, 2022. 8-12 b.
3. Gulhayo Umarova Murodiljanovna, D.O.Ximmataliyev. O'smirlarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning usullari va vositalari // "Ustozlar uchun" fidoyi va jonkuyar pedagoglar jurnali. 34-son, 1-to'plam, dekabr, 2022. 13-23 b.
4. Umarova Gulhayo Murodiljanovna. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqishni klasterli yondashuv asosida rivojlantirish // "Pedagogs" international research journal. Volume-21, Issue-2, November, 2022. Pp.7-10.

ANDIJON QISHLOQ XO`JALIK INSTITUTINING TARIXI

Maxmudova Zulfiya Alimjanovna.
Andijon davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi

“Imom Moturidiy bobomizning: “Elu yurt bilan hamdard bo‘lib yashagin, toki xalq hamisha sen bilan birga bo‘lgay”, degan hayotiy hikmati har bir vazir, har qaysi rahbarning ongi, qalbi va harakatida muhrlanishi lozim”.

(O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil uchun
Murojaatnomasidan)

Annotatsiya. Ushbu berilgan maqolada Andijon Qishloq xo'jalik Institutining tarixi, Qishloq xo'jalik institut nomiga o'zgartirilishi, Institutning rivojlanish yo'li, Institutning ochilgandan hozirgacha faoliyat olib borgan rahbar hodimlar ilmiy hayoti va institut rivojlanishiga qo'shgan hissalarini yoritib berilgan.

Kalit soʻzlar: Qishloq xo'jalik institut, tarix, agronom- olim, oliy o'quv yurt, kata Farg'ona kanali, qora daryo, uzumchilik, Gidromelioratsiya va Agronomiya, rektor.

Аннотация. В статье рассказывается об истории Андиганского сельскохозяйственного института, изменении его названия на сельскохозяйственный институт, пути развития института, научной жизни ведущих сотрудников института и их вкладе в развитие института.

Ключевые слова: Сельскохозяйственный институт, история, агроном-ученый, высшее учебное заведение, ката Ферганский канал, Черная река, виноградарство, гидромелиорация и агрономия, ректор.

Annotation. The history of the Andijan Agricultural Institute, its name change to the Agricultural Institute, the way of the Institute's development, the scientific life of the leading employees of the Institute and their contributions to the Institute's development are explained in this article.

Key words: Agricultural institute, history, agronomist-scientist, higher educational institution, kata Fergana canal, black river, viticulture, hydromelioration and agronomy, rector.

Tarixga nazar solsak, Vatanimiz azal azaldan qishloq xo'jaligida yetakchi bo'lgan paxtachilik bo'yicha ko'plab tajribalarga ega bo'lgan. Paxtachilik soxasini yanada rivojlantirish, yangi paxtachilik texnologiyalari, xosildor paxta navlarini yetishtirish, ulardan sifatli va hosildor paxta navlarni olish maqsadida sobiq ittifoqida yagona oliy o'quv yurti xisoblangan, Andijon paxtachilik instituti 1964 Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash injenerlari institutining Andijon shoxobchasi bazasida ochilgan edi. O'sha davrlarda O'zbekiston va qo'shni respublikalarda paxta tolasi hajmini oshirish va bu tarmoqni ilmiy asosda rivojlantirish uchun malakali mutaxassislariga katta ehtiyoj bor edi. Yangi institut vodiyni asosiy suv tomirlaridan biri bo'lgan Katta Farg'ona kanalining azim Qora daryodan suv oluvchi bosh inshooti yaqinida,

Kuygan yor qishlog`ida joylashtirilishiga Farg`ona vodiysi va ayniqsa , Andijon viloyatida dehqonchilik madaniyati va ekinlar hosildorligining yuqori bo`lganligi , paxta yetishtirishda har tomonlama boy tajribaga ega bo`lganligi sabab bo`lgan bo`lsa ajab emas.

Institut tashkil topgan paytda o`ziga xos qiyinchiliklar yaqqol sezilib turardi. Birinchi navbatta yuqori malakali va tajribali ilmiy – pedagogik kadrlar yetishmas edi. Yangi tashkil topgan paytda institutda 13 ta kafedra shakllantirilgan. Ushbu 13 ta kafedrada 55 nafar o`qituvchilarning 6 nafarigina fan nomzodi ilmiy darajasiga ega edi. Sovbiq maktab – Internatining deyarli hamma xonasida o`quv jarayoni uchun kerakli qurilmalar va asbob uskunalari bilan jixozlanishi kerak edi. Talabalarni yotoqxonada bilan taminlash ham cheklangan edi va kutubxonada zarur adabiyotlar yetarli emas edi.

Shunga qaramasdan yuqori tashkilotlarning g`amxo`rligi va e`tibori xamda ahil jamoaning astoydil izlanib ishlashi natijasida institut tez orada oyoqqa turdi.

1967 yili institutning dastlabki qaldirg`ochlari - 75 nafar yigit-qiz injener-mexanik mutaxassisligini egalladilar, 1969 yilda esa Agronomiya fakultetini 66 nafar, Hidromelioratsiya fakultetini 54 nafar yoshlar bitirib lqishloqva suv xo`jaligi tarmoqlarida ishlash uchun jo`nab kettilar. Ishlab chiqarishdan ajralmagan xolda tahsil olgan sirtqi ta`lim fakultetining ilk bitiruvchilari bo`lgan 129 kishi 1967-70 yillarda olim - agronom, injener-gidrotexnik va injener-mexanik diplomlariga ega bo`ldilar.

Oliy ta`lim muassasalarining ixtisosligini kengaytirish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1992 yil 15 martdagi farmoniga asosan Andijon paxtachilik instituti negizida Andijon qishloq xo`jalik instituti tashkil etildi.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 3 sentabrdagi "Respublika qishloq va suv xo`jaligi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to`g`risida"gi 415-sonli qaroriga asosan ayrim ta`lim yo`nalishlariga o`zgartirishlar kiritildi. Yani yangi ta`lim yo`nalishlari ochildi , bazi mavjud kafedrallar birlashtirilib, ular negizida yangi kafedralar tashkil topdi.

Xozirgi vaqtda institutda, zamonaviy talablarga mos o`quv jixozlari bilan ta`minlangan 5 ta fakultetlar bor ular quyidagilar :

Qishloq xo`jaligi maxsulotlarini saqlash va qayta ishlash fakulteti.

O`simliklarni himoya qilish va agrokimyo fakulteti.

Agrobiznes va raqamli iqtisodiyot fakulteti.

Agrobiologiya fakulteti

Agroinjeneriya va giromelioratsiya fakulteti.

Ularning tarkibida 22 ta kafedra faoliyat ko`rsatib kelmoqda, ular tarkibida 300 nafardan ortiq professor-o`qituvchilar ilmiy-pedagogik faoliyat olib bormoqdalar, ulardan 10-nafari fan doktorlari va professorlar, 100 nafardan ortig`i fan nomzodlari va dotsentlar, qolganlari esa yuqori malakali katta o`qituvchi va assistentlardir. Institut jamoasining o`tgan yarim asrdan oshiqroq vaqt oralig`idagi mexnatlari natijasida xozirgi kungacha institutni 22000 dan ortik yukori malakali mutaxassislar, bakalavrlar va magistrar bitirib chikdilar. Ular xalq xo`jaligining

turli tarmoqlarida faoliyat ko`rsatib vatanimizning yuksalishiga munosib xissa qo`shib kelmoqdalar.

Institutning tashkil etilganidan to shu kungacha rahbarlik qilib , rivojlanishiga hissa qo`shgan rahbarlar quyidagilar.

Sattorov Xabibullo Sattorovich

Qishloq xo`jalik fanlari nomzodi, dotsent.

1950-1955 yillarda Samarkand qishloq xo`lik institutini olim-agranom mutaxassisligi bo`yicha tugatgan.

1962 yili dissertatsiya ishini muvaffaqiyatli himoya qilib, qishloq xo`jalig fanlar,nomzodi ilmiy darajasiga ega bo`lgan.

1964 yilda yangi tashkil etilgan Andijon paxtachilik institutiga rector lavozimiga tayinlangan va bu lavozimda to 1972 yilgacha ishlagan.

X.Sattorov o`z faoliyati davomida bu oliy ta`lim muassasasida o`quv uslubi, ilmiy tadqiqot , tarbiyaviy ishlar jarayonini yo`lga qo`yish , uni yangi kadrlar bilan butlash va moddiy bazasini mustaxkamlashda ko`plab xayrli ishlarni amalga oshirgan .

Akademik Xabibullayev Po`lat Qirg`izboyevich

Fizika – matematika fanlari doktori, professor,

1960 yilda O`rta Osiyo davlat universitetini fizika mutaxassisligi bo`yicha tugatgan.

1971 yili doktorlik ilmiy ishini muvofaqiyatli ximoya qilib, fizika-matematika fanlari doktori ilmiy darajasiga ega bo`lgan.

1972-1975 yillarda Andijon paxtachilik instituti rektori lavozimida faoliyat yuritgan.

P.Habibullayev rektorlik faoliyati davomida o`quv-tarbiya va ilmiy – tadqiqot ishlariga katta e`tiborini qaratgan.shu vaqtlarda institutda Aspirantura bo`limi tashkil etilgan. Ilmiy tadqiqot ishlari hajmi , jumladsn , xo`jalik shartnomalarini bajarish hajmi kengaygan.

Akademik Mamadaliyev Abduraim Xudayberdiyevich

Qishloq xo`jalik fanlari doktori , professor.

1962 yilda Toshkent davlat universitetini o`simliklar fiziologiyasi mutaxassisligi bo`yicha tugatgan.

1992 yili doktorlik ilmiy ishini muvaffaqiyatli himoya qilib, qishloq xo`jaligi fanlari doktori ilmiy darajasiga ega bo`lgan.

1975-1995 yillarda Andijon paxtachilik instituti rektori lavozimida faoliyat yuritgan.

A.Mamadaliyev rektorlik faoliyati davomida o`quv-tarbiya va ilmiy-tadqiqot ishlariga katta etiborini qaratgan Institut moddiy –texnik bazasi mustahkamlangan. Shu davrda bir qator o`quv binolar, yotoqxonalar , yozgi stadion , qishki sport kompleksi, oshxona va profilaktoriyalar ishga tushgan.

Xakimov Abdurasul Hakimovich

Texnika fanlari nomzodi, dotsent.

1970 yil Moskva gidromelioratsiya institutini injener gidromeliorator mutaxassisligi bo`yicha tamomlagan.

1970 yildan 1988 yilgacha kafedra asistenti, katta o`qituvchi, dotsent lavozimlarida faoliyat ko`rsatgan. 1982 yili nomzodlik ilmiy ishini muvaffaqiyatli ximoya qilib, texnika fanlar nomzodi ilmiy darajasiga ega bo`lgan.

1985 yildan 2004 yilgacha fakultet dekani va institutni o`quv ishlari prorektori lavozimida ishlagan.

1995- 1997 yillarda andijon qishloq instituti rektori lavozimida ishlagan.

A.Xakimovdekanlik, prorektorlik va rektorlik faoliyati davomida institutning moddiy texnika bazasini yaxshilashga qaratilgan. O`quv –tarbiya va ilmiy tadqiqot ishlariga katta ahamiyat bergan.

Xudoyberdiyev Tolibjon Soliyevich

Texnika fanlar doktori, professor.

1969 yilda andijon paxtachilik institute qishloq xo`jaligini mexanizatsiyalash fakultetini bitirgan. 1975 yilda Moskvada nomzodlik, 1992 yilda Sank-Peterburgda doktorlik ilmiy ishlarini muvaffaqiyatli ximoya qilgan.

1997-2004 yillarda Andijon qishloq xo`jalik institute rektori lavozimida ishlagan.

2004-2011 yillarda Toshkent irrigatsiya va Melioratsiya institute rektori bo`lib ishlagan.

Ikkala institutedagi faoliyatida asosiy etiborini professor – o`qituvchilarning salohiyatini orttirishga, institutning moddiy – texnika bazasi va moliyaviy xolatini yaxshilashga qaratgan. Shuningdek, institutda sog`lom vajjodiy muhitni yaratilishiga va o`quv jarayonigaeng zamonaviy pedagogic texnologiyalarni kiritilishiga salmoqli hissa qo`shgan.

Yoqubjonov Oybek Yoqubjonovich

Qishloq xo`jalik fanlari doktori.

1973 yilda yilda Andijon paxtachilik institutini olim-agronom mutaxassisligi bo`yicha tugatgan.

2002 yili doktorlik ilmiy ishini muvaffaqiyatli himoya qilib, qishloq xo`jaligi fanlar doktori ilmiy darajasiga ega bo`lgan.

2004-2011 yillarda Andijon qishloq xo`jalik institut rektori lavozitsida faoliyat yuritgan.

O.Yoqubjonov rektorlik faoliyati davomida o`quv –tarbiyaviy va ilmiy-tadqiqot ishlariga katta e`tiborini qaratgan 500 o`rinli talabalar turar joyi, 300 o`ringa mo`ljallangan oshxona capital ta`mirdan chiqqan.

Sulaymonov Botir Abdushukurovich

Biologiya fanlari doktori, professor.

1996 yilda. Toshkent davlat agrar universitetini o`simliklarni ximoya qilish mutaxassisligi bo`yicha tugatgan.

2010 yili doktorlik ilmiy ishini muvaffaqiyatli, ximoya qilib, biologiya fanlari doktori ilmiy darajasiga ega bo`lgan.

B.Sulaymonov rektorlik faoliyati davomida o`quv –tarbiyaviy va ilmiy-tadqiqot ishlariga katta e`tiborini qaratgan xolda magistratura bo`limini tashkil qilgan. Meva –sabzavotchilik va uzumchilik, qishloq xo`jaligi ekinlari seleksiyasi va urug`chiligi ta`limy o`nalishlari ochilgan.

Jumaboyev Zuhridin Mo`minovich

Qishloq xo`jaligi fanlari nomzodi , dotsent.

1986 yilda Andijon paxtachilik institutini olim- agronom mutahassisligi bo`yicha tugatgan.

1994 yili fan nomzodligi uchun dissertatsiya ishini muvaffaqiyatli himoya qilib , qishloq xo`jaligi fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo`lgan.

2013- 2016 yillarda Andijon qishloq xo`jalik instituti rektori lavozimida faoliyat yuritgan.

Z.Jumaboyev rektorlik faoliyati davomida o`quv –tarbiyaviy va ilmiy-tadqiqot ishlariga , Institut moddiy texnika bazasini yangilashga , o`quv jarayonini takomillashtirishga hamda yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishga katta etibor qaratgan.

Abdulazizbek Abduvasiqov Abdulazizovich

2001- yilda Toshkent davlat agrar universitetini tamomlagan.

2005-2009 yillarda Toshkent davlat agrar universitetini qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi iqtisodiyoti va uni tashkil etish fakulteti dekanı muovini sifatida faoliyat ko`rsatgan.

2009-2010 yillarda Toshkent davlat agrar universitetini fermer xo`jaligini boshqarish fakulteti dekani lavozimida ishlagan.

2010-2016 yillarda Toshkent davlat agrar universitetini ma`naviyat va ma`rifat ishlari bo`yicha prorektor sifatida faoliyat ko`rsatgan.

2016-2021 yillar davomida Andijon qishloq xo`jaligi va agrotexnologiyalar institutining rektor lavozimida ishlagan.

A.Abduvasiqov rektorlik faoliyati davomida o`quv –tarbiyaviy va ilmiy-tadqiqot ishlariga , Institut moddiy texnika bazasini yangilashga , o`quv jarayonini takomillashtirishga hamda yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishga katta etibor qaratgan.

Komilov Komiljon Sobirjonovich

Komilov Komiljon Sobirjonovich 1980 yilda Andijon viloyatida tug`ilgan.

2002 yilda Toshkent davlat agrar universitetini paxtachilik mutaxassisligi bo`yicha tamomlagan.

2021 yil 19 fevraldagi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan Andijon qishloq xo`jaligi va agrotexnologiyalar Institutining rektori lavozimiga tayinlangan va hozirga qadar rektor lavozimida ishlamoqda.

K.Komiljonov rektorlik faoliyati davomida o`quv –tarbiyaviy va ilmiy-tadqiqot ishlariga , Institut moddiy texnika bazasini yangilashga , o`quv jarayonini takomillashtirishga hamda yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishga katta etibor qaratib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil uchun Murojaatnomasi
2. “Andijon qishloq xo`jalik instituti”. 50 yillik yubileyi uchun tayyorlangan. Muallif prof. T.S. Xudoyberdiyev.
3. “Andijon paxtachilik instituti” muallif Rixsi Fayziyev. 2006 yil “Andijon nashriyot-matbaa” ochiq aksiyadorlik jamiyati.

**PEDOGOGIK TEXNOLOGIYA BU TA'LIM JARAYONIGA SISTEMALI
YONDASHUV BO'LIB XIZMAT QILADI**

To'rayeva Habiba Toshboboyevna

*CHirchiq davlat pedagogika unversitet katta o'qituvchisi
turayevaxabiba2020@gmail.com*

Nigmatova Dilorom Abdurahimovna

Kasb-hunar maktab kimyo fan o'ituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada talim sohasini yanada oshirish maqsadida talabalarga innavotsion texnologiyalarni qo'llab bilim salohiyatini yanada yuksaltirish jarayonlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogik, Tushuntiruv, Reproduktiv, Tadqiqot metodi, Karbon kislotalar, Paxta moyining sovunlanishi.

Аннотация. В целях дальнейшего совершенствования сферы образования в данной статье представлены процессы повышения когнитивного потенциала обучающихся с использованием инновационных технологий.

Ключевые слова: Педагогический, Объяснение, Репродуктивный, Метод исследования, Углекислоты, Омыление хлопкового масла.

Abstract. In order to further improve the education sector, this article presents the processes of increasing the cognitive potential of students using innovative technologies.

Key words: Pedagogical, Explanation, Reproductive, Research method, Carbonic acid, Saponification of cottonseed oil.

Talaba asosan, o'zi o'zlashtirgan bilimlarni namoyish etadi, o'qituvchi esa uning fikrlarini tinglaydi, zarur o'rinlarda o'qituvchi – talaba an'anaviy ta'limdagi suhbat ishtirokchilari savollar bilan murojaat qiladi. Talabalar guruhi (jamoasi) bu vaziyatda butunlay sust ishtirokchi, tinglovchi bo'lib qoladi. Bir qarashda talaba yoki o'qituvchi tomonidan uzatilayotgan axborotlarning qabul qilinishi talabalar guruhi (jamoasi) uchun bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatini yaratayotgandek taassurot uyg'otadi. Biroq, psixologik tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, shu tarzda qabul qilingan bilim (ma'lumot)lar juda tez unutiladi. Hususan, amerikalik psixolog olimlar R. Karnikau va F. Makelrouning o'rganishlariga ko'ra shaxsning tabiiy fiziologik – psixologik imkoniyatlari muayyan shakllarda o'zlashtirilgan bilimlarni turli darajada saqlab qolish imkonini beradi. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni talabalarga yetkazib berish asosida ma'lum faoliyat ko'nikma va malakalarni shakllantirish, faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan nazariy va amaliy bilimlar darajasini baxolash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni, ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni kiritish ta'kidlanadi. Pedagogik texnologiya bu ta'lim jarayoniga sistemali yondashuv bo'lib, unda ta'lim jarayonining tashkil etishda texnika va

inson imkoniyatlari hisobga olinadi va ularning o'zaro munosabati ta'limning optimal formalari yaratilishiga zamin bo'ladi.

Pedagogik texnologiyalarni quyidagi tarkibiy qismlarga bo'lish mumkin: - ta'lim - tarbiya ishtirokchilari shaxsiga qo'yiladigan ijtimoiy talablar; - hamkorlik faoliyati a'zolarining kasbiy tayyorgarligi; - ta'lim jarayoning maqsadi, mazmuni, mohiyati, amalga oshirish vositalari; - ta'lim jarayonini differentsiyalashtirish; - ijodiylik. Ya'ni shaxs: manbani o'zi o'qiganida 10 %; ma'lumotni eshitganida 20 %; sodir bo'lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko'rganida 30 %; sodir bo'lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko'rib, ular to'g'risidagi ma'lumotlarni eshitganida 50 %; ma'lumot (axborot)larni o'zi uzatganida (so'zlaganida, bilimlarini namoyish etganida) 80 %; o'zlashtirilgan bilim (ma'lumot, axborot)larni o'z faoliyatiga tatbiq etganida 90 % hajmdagi ma'lumotlarni yodda saqlash imkoniyatiga ega. Talabalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun fikrlash xususiyatlarini shakllantirish zarur. Fikrlash operatsiyalari asosida dars jarayoni faollashtiriladi. O'qituvchilarni evristik, muammoli vaziyatlarga tortish, tanqid, gumon xolatlarini muhokama qilish, ulardagi muammolarni mustaqil holda topish va ularni yechish uchun o'z loyihalarini tuzish va himoya qilish talabalar tafakkurining ma'nodor va unumdor bo'lishiga xizmat qiladi. Ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilimlarni o'zlashtiribgina qolmay xilma-xil ko'nikma va malakalarni hosil qiladilar. Ko'nikmamashq qilish natijasida yuzaga kelgan xatti-harakatlarning avtomatlashgan usuli. Ta'lim jarayoni tashkil etishning o'ziga xos metodlaridan biri ishbop o'yinlardir. Ishbop o'yinlar munosabatlar sistemasini modellashtirish, faoliyat karakteristikasini tashkil etishga yordam beradi.

Ta'lim oluvchilarning ta'lim faoliyatiga ko'ra ta'limning quyidagicha metodlari ajratiladi:

1. Tushuntiruv ko'rsatmalilik metodi – bu metod reproduktiv metod bo'lib unda faoliyat o'qituvchi tomonidan olib boriladi. Talabalar ta'lim jarayonida bilim oladilar, tanishadilar. Bu metod juda keng tarqalgan metodlardan biri bo'lib, uni albatta takomillashtirilgan usullari mavjud. Bu dasturlashtirilgan ta'limdir.

2. Reproaktiv metod – bu metodda talaba faoliyat ko'rsatib, unda talaba berilayotgan bilimni qayta xotirada tiklab, olingan bilimni nusxa sifatida qabul qiladi.

3. Muammoli ta'lim metodi – o'qituvchi tomonidan tashkil etilib, u produktiv harakterga egadir. Ushbu metod orqali talaba bilim va malakalarini shakllantiradi. Ushbu metodning takomillashtirish yo'llaridan biri ishchan o'yinlarni tashkil etishdan iboratdir.

4. Qisman izlanish metodi – o'qituvchi nazorati ostida tashkil etiladigan metod bo'lib, u ham produktiv harakterga ega bo'lib, bunda talaba ijod qiladi.

5. Tadqiqot metodi – o'qituvchi ilm yordamisiz tashkil etiladigan ta'lim metodi bo'lib, u talabaning mustaqil izlanish, fikrlash va bilimlar transformatsiyasini talab etadi.

mavzusini o`qitishda undagi tushuncha va bilimlar bayon qilingandan so`ng darsni mustahkamlash maqsadida innovatsion texnologiyaning klaster usuli joriy qilinadi

O`quvchilar berilgan ma`lumotni qog`ozning o`rta qismiga yozib, u bilan bog`liq holdagi moddaning xossasi, tuzilishi, olinishi, ishlatilishi bo`yicha tarmoqlarni tuzib chiqadilar. Klaster usuli matnlarni idrok etish va tushunishning samarali usuli bo`lib, bu ayniqsa talabalar tomonidan o`quv fanlarini ongli ravishda o`rganish, ularning shaxsiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish uchun muhimdir. An'anaviy ta`lim tizimiga ega bo`lgan sinfdagi zamonaviy talaba ko`pincha zerikadi va qiziqmaydi, o`rganish uchun motivatsiya yo`q. Shu munosabat bilan ushbu usuldan foydalanish rivojlanish yo`li bo`lishi mumkin.

Xulosa o`rinda shuni aytish mumkinki ushbu maqolada aytib o`tilganki, amaliy faoliyatga asoslangan pedagogik metodning klaster usuliga e`tibor qaratilgan. Klaster tizim usuli faol usullardan biri bo`lib, talabaning kasbiy rivojlanishi va kamolotiga qaratilgan. U ilm-fan sohibining umrbod bilim olishini ta`minlash, shuningdek mehnat bozori va zamonaviylik talablariga javob bera oladigan kadrlar tayyorlashga qaratilgan.

Adabiyotlar ro`yxati

1. Abdullaeva N. Kimyo fanini o`qitishda ilg`or pedagogik texnologiyalardan foydalanishni turli shakl va usullari. - Urganch, 2011.
2. Abdullaev Sh.V., Muxitdinova D.X. «Kimyo o`qitish metodikasi»dan uslubiy qo`llanma. Namangan, 2003.
3. Алимova Ф.А. Современные технологии при обучении химии. Учебник. – Ташкент: Иқтисодиёт дунёси, 2020 г. – с. 307.
4. Giyasov K., Turaeva G. S., Turaeva H. T. Biological activity of benzoxazolinone and benzoxazolinthione derivatives //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2021. – Т. 258. – С. 04017.
5. S.Y.Khushvaktov S.X. Mullaboyeva. D.A. Shayzakova. D.S. Murodullayeva.
6. Explain the topic of hybridization to schoolchildren in a systematic way. Journal Academics Globe: Inderscience Research: 2022. № Vol. 3 No. 04 (2022): <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/EA3Y6>
7. Shirinova Dilshoda Ortiq qizi. Международный научно-образовательный электронный журнал «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ» Выпуск № 25 (том 2) (апрел 2022) стр 666-668 betlar. Kimyo fanidan suv mavzusini o`qitishda barqaror taraqqiyot ta`limi tushunchalarining tatbiqi
8. Nargiza, E., & Ulugbek, M. (2022). Physico chemical properties of sulfocationite based on walnut skin numa. Universum: химия и биология, (7-3 (97)), 23-26.
9. Torayeva, H. T., & Sharipov, I. I. O. (2022). ORGANIK KIMYO FANINI O`QITISHDA MIS VA KUMUSH BIRIKMASINI KIMYOVIY REAKSIYALARINI KLASTER USULIDA OLIB BORISH. *Academic research in educational sciences*, 3(12), 281-285.

MUNDARIJA

Falsafa. Filologiya. Pedagogika. Psixologiya. Metodika. San'atshunoslik. Sotsiologiya. Islomshunoslik fanlari

Otamurodova S.A. Teaching academic terms by various methods in english language	2
Зарипов О.К. Электрон таълим муҳитида интерактив таълим ресурсларини яратиш методикасини бошқариш моделлари	7
Sattorova F.S. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tarbiyalashda erkin tarbiya asoslari	13
Abdullayeva S. G'arb va sharq folklorida allalar va ularning mazmun jihatdan qiyosiy tahlili	17
Ro'zimatova D.O. Maktablarda matematika fanining o'qitishning asosiy vazifalari	23
Niyazbaeva A.J., Kamalova G.M. Chanqovuz musiqa asobi va uning turlari.....	26
Maxkambayeva Sh.X., Binoqulova D.S. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy rivojlantirish	31
Odilova S.U. Features of the transmission of english discursive markers into russian	38
Izzatulloyeva G.S. Teaching reading in the classroom. forming the reading techniques of the pupils.....	43
Normatov Z.F. “Ergativ konstruktsiya”ning pashtu tili grammatikasidagi ahamiyati masalasi va uni o'rganish hamda o'rganishdagi asosiy qiyinchiliklar tahlili.....	49
Esanboyev K.U. Ota-onalarning farzandlar tarbiyasidagi harakati – pedagogik madaniyat tarkibi sifatida	54
Azimova M.S. Satire and humor in political discourse	57
Qurbanova S.T. Harbiy xizmatchilarda liderlik sifatlarini shakllantirishning psixologik o'ziga xosligi muammosining tadqiq etilishi.....	60
Jo'raboyeva S. Mulla Shams Shavqiy Namangoniyning “Riyozul muslimin” asari - adabiy manba sifatida	67
Umarova M. Matematika o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarning o'rni	74
Ашурова Ш.А. Музыка фанида миллий кадрларимизни акс эттириш	79
Saidova M.R. Maktabgacha ta'lim tashkilotida innovatsion menejment	84
Saminova Sh. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xorijiy mamlakatlar tajribasidagi integratsion yondashuvdan foydalanish	89
Ходжамуратова Р.Дж. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi va uning innovatsion faoliyati	93
O'ljayeva Sh.T., Ibrahimova Sh.B. Implementation of Kahoot and Wordwall to improve vocabulary aspect in intermediate level in FLT.....	98
Раҳмонова З. “Лисон УТ-Тайр” достонидаги бир ҳикоят ҳақиқати	106
Mo'minova A., Ubaydullayeva Sh. Bulut – nafs	110
Qosimova F.X. “Qutadg'u Bilig” asarida axloqiy masalalar talqini	113
Rahimberganova R. “Насойим УЛ-Муҳаббат”да Najmiddin Kubro va Kubraviya tariqati	117
Қориев М.Р., Раҳимова Ш.Х., Орифжонова О.Н. Ислом динида атроф-муҳит муҳофазаси	121
Saloxiddinova N.I. Zebo Mirzo she'rlarida ota-onaga munosabatning milliy-badiiy ifodasi	126
Onarqulov M.K., Yoqubjonov A.M., Mahamadaminova Sh.V. Bashoratli tahlillar uchun mashinali o'qitish algoritmlari. qiyosiy qarashlar	130
Базарова Л.А., Бегбудиева П.Ш. Особенности методики преподавания в новометодных школах России в XIX -XX в.в.	135
Shonazarova S.A. Shaxs rivojlanishining gender xususiyatlari	139
Turg'unboyeva S.Sh., Valijonova N.O. Ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'qitish va o'rganishda madaniyatning ahamiyati.....	143
Mamajonova B.T., Gafurov A.B. O'zbekiston Respublikasi boshqaruv tizimida yosh kadrlarning roli	146

Umarova G.M., Kayumxo'jayeva F.D. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni o'qishga bo'lgan munosabatini.....	150
Maxmudova Z.A. Andijon qishloq xo'jalik institutining tarixi	155
To`rayeva H.T., Nigmatova D.A. Pedagogik texnologiya bu ta'lim jarayoniga sistemali yondashuv bo'lib xizmat qiladi.....	160